




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
VAZIRLIGI

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha ko'rsatma beruvchi organlar uchun rahbariy ko'rsatmalar

2020



Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha korsatma beruvchi organlar uchun rahbariy ko'rsatmalar

Minnatdorchilik

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasida, shuningdek (onlayn muhitda) bolalarni himoya qilish masalalarida faoliyat yurituvchi yetakchi institutlarning mualliflaridan iborat ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan va quyidagi tashkilotlarni o'z ichiga olgan:

ECPAT International, Global Kids Online tarmog'i, Bolalarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish bo'yicha global hamkorlik, HABLATAM loyihasi, xavfsiz internet markazlarining Insafe tarmog'i (Insafe), INTERPOL, daraksiz yo'qolgan va ekspluatatsiya qilinadigan bolalar bo'yicha xalqaro markaz (ICMEC), Xalqaro Nogironlar Alyansi, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI), Internetni kuzatish jamg'armasi (IKJ), London Iqtisodiyot maktabi, Bosh kotibning bolalarga nisbatan zo'rvonlik bo'yicha maxsus vakili idorasi va bolalarni sotish va jinsiy ekspluatatsiya qilish bo'yicha maxsus ma'ruzachi, Privately SA, RNW Media, Buyuk Britaniya xavfsiz internet markazi, WePROTECT Global Alyansi (WPGA) va AQSHning Butunjahon bolalik fondi.

Ishchi guruh Devid Rayt (Buyuk Britaniya xavfsiz internet markazlari/ SWGfL) raisligi ostida o'z faoliyatini amalga oshirgan va Fanni Rotino (XTI) tomonidan muvofiqlashtirilgan.

Mualliflarning vaqti, g'ayrati va fidoyiligisiz ushbu rahbariy ko'rsatmalarni amalga oshirish imkoni bo'lmas edi. Shuningdek, COFACE-Families Europe, Yevropa Kengashi, Avstraliya elektron xavfsizlik komissari, Yevropa Komissiyasi, e-Worldwide Group (e-WWG), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), Garvard universitetining Internet va jamiyat masalalari bo'yicha Berkman Kleyn markazi/ Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, Internetni bolalar va yoshlar uchun yaxshiroq va xavfsizroq joyga aylantirish kabi umumiy maqsadlarga ega bo'lgan manfaatdor tarmoq tashkilotlari va ayrim mamlakatlarning hukumatlari ham o'zlarining bebaho hissalarini qo'shdilar.

O'zlarining qimmatli vaqtlari va bilimlari bilan hissa qo'shgan quyida keltirilgan hamkorlarga XTI o'z minnatdorchiligini bildiradi: (tashkilotlar ketma-ketligi alifbo tartibida berilgan):

- Martin Schmalzried (COFACE-Families Europe)
- Livia Stoica (Yevropa Kengashi)
- John Carr (ECPAT International)
- Julia Fossi va Ella Serry (Elektron xavfsizlik masalalari bo'yicha komissariat)
- Manuela Marta (Yevropa komissiyasi)
- Salma Abbasi (e-WWG)
- Amy Crocker va Serena Tommasino (Bolalarga nisbatan zo'rvonlikka barham berish bo'yicha global hamkorlik)
- Lionel Brossi (HABLATAM)
- Sandra Marchenko (ICMEC)
- Karl Hopwood (Insafe)¹
- Lucy Richardson (Xalqaro nogironlar ittifoqi)
- Matthew Dompier (INTERPOL)
- Fanny Rotino (XTI)
- Tess Leyland (INJ)
- Sonia Livingstone (London Iqtisodiyot maktabi va Global Kids Online)
- Elettra Ronchi (IHTT)
- Manus De Barra (Bosh kotibning bolalarga nisbatan zo'rvonlik bo'yicha maxsus vakili idorasi)
- Deepak Tewari (Privately SA)

¹ Under the Connecting Europe Facility (CEF), European Schoolnet runs, on behalf of the European Commission, the Better Internet for Kids platform, which includes the coordination of the Insafe network of European Safer Internet Centres. More information is available at www.betterinternetforkids.eu

- Pavithra Ram (RNW Media)
- Maud De Boer-Buquicchio (Birlashgan Millatlar Tashkilotining bolalarni sotish va jinsiy ekspluatatsiya qilish bo'yicha maxsus ma'ruzachisi)
- David Wright (Buyuk Britaniya xavfsiz internet markazi/SWGfL)
- Iain Drennan va Susannah Richmond (WePROTECT Global alyansi)
- Lina Fernandez va Dr. Joanna Rubinstein (AQSHning Butunjahon bolalik fondi)
- Sandra Cortesi (Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar)



**Mazkur hisobotni chop qilishdan avval atrof-muhit haqida o'ylashingiz
so'rab qolinadi**

Ushbu hisobot [Guidelines for policy-makers on Child Online Protection](#) hujjatining tarjima nusxasi hisoblanadi. Ushbu hujjatning asl nusxasi XTI tomonidan ingliz tilida tayyorlangan. Ushbu tarjima Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (XTI) tomonidan amalga oshirilmagan va bu tarjima XTIning rasmiy tarjima ishi deb hisoblanmasligi kerak. XTI mazkur tarjima hisoboti mazmunidagi xatoliklar uchun javobgar emas.

Soʻz boshi

Internet hayotning deyarli barcha jabhalariga kirib borayotgan dunyoda yosh foydalanuvchilarning onlayn muhitdagi xavfsizligin taʼminlash har bir mamlakat uchun dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

XITI 2009-yilda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish boʻyicha oʻzining birinchi rahbariy koʻrsatmalar toʻplamini ishlab chiqdi. Oʻsha paytdan boshlab Internet keskin darajada rivojlandi. Bu bolalar uchun oʻynash va oʻrganishning cheksiz boy manbaiga aylangan boʻlsa-da, ayni paytda ular nazoratsiz foydalanishlari uchun ancha xavfli joyga aylandi.

Bugungi kunda bolalar shaxsiy hayot tashvishlaridan tortib zoʻravonlik va boshqa nomaqbul kontent, internet-firibgarlik, onlayn muhitda gruning koʻrinishidagi tahdidlar, shahvoniy suiisteʼmolliklar va shahvoniy ekspluatatsiyagacha boʻlgan koʻplab xavf-xatarlarga duch kelishmoqda. Tahdidlar ortib bormoqda, bunda jinoyatchilar bir vaqtning oʻzida bir nechta yurisdiksiyalarda faoliyat yuritayotganligi ayrim davlatlar tomonidan koʻriladigan javob choralarining samaradorligiga oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda.

Bundan tashqari, COVID-19 global pandemiya davrida oʻquv jarayonini davom ettirish va ijtimoiy oʻzaro munosabatlarni saqlab qolish uchun birinchi marta onlayn dunyoga qoʻshilgan bolalar sonining koʻpayishi yuz berdi. Virus tufayli cheklovlar nafaqat koʻplab yosh bolalarning Internetdan ota-onalari rejalashtirganidan ancha erta foydalanishiga sabab boʻldi, balki oʻz lavozim majburiyatlarini bajarishga majbur boʻlgan koʻplab ota-onalar oʻz farzandlariga nazorat qila olmay qoldilar, bu esa oʻz navbatida ularni nomaqbul kontentga kirish yoki bolalarga nisbatan shahvoniy suiisteʼmollik bilan bogʻliq materiallarini ishlab chiqarish bilan shugʻullanuvchi jinoyatchilar nishoniga aylanish xavfini tugʻdirdi.

Bugungi kunda bolalarning onlayn muhitda xavfsizligini har qachongidan ham koʻproq saqlash uchun xalqaro hamkorlik va manfaatdor tomonlarning keng doirasi tomonidan: tarmoq vakillari, shu jumladan xususiy platformalar, xizmatlarni yetkazib beruvchilar va tarmoq operatorlari hamda hukumat strukturalari va fuqarolik jamiyatlarining faol ishtiroki va qoʻllab-quvvatlashini talab qiladigan kuchlarni muvofiqlashtirish zarur.

Buni eʼtirof etgan holda, 2018-yilda XITIga aʼzo-davlatlar shu davrgacha vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladigan COP boʻyicha rahbariy koʻrsatmalarni navbatdagi yangilashdan koʻra koʻproqni talab qildilar. Shu tariqa, ushbu qayta koʻrib chiqilgan yangi rahbariy koʻrsatmalar bolalar yashaydigan raqamli muhitda sodir boʻlgan tub oʻzgarishlarni aks ettirish uchun boshidan oxirigacha qayta koʻrib chiqildi, qayta yozildi va butunlay qayta ishlandi.

Ushbu yangi nashr raqamli texnologiyalar va platformalardagi yangi ishlanmalar aks ettirilganidan tashqari, muhim kamchilik bartaraf etildi: onlayn dunyo nogiron bolalarga ijtimoiy hayotda toʻliq va toʻlaqonli ishtirok etish imkonini beradigan hayotiy muhim aloqa vositasini taklif qiladigan, nogiron bolalar boʻlgan vaziyat. Bu hujjatda migrant bolalar va boshqa himoyaga muhtoj guruhlarining alohida ehtiyojlari ham hisobga olingan.

Umid qilamizki, ushbu rahbariy koʻrsatmalar koʻrsatme beruvchi organlarga bolalar bilan ochiq maslahatlashuvlar va muloqotlarni oʻz ichiga olgan inklyuziv, koʻplab manfaatli milliy strategiyalarni ishlab chiqish, yanada aniq maqsadli chora-tadbirlar va yanada samarali harakatlarni ishlab chiqish uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Ushbu yangi rahbariy koʻrsatmalarni ishlab chiqishda XITI va uning hamkorlari xalqaro standartlar va umumiy maqsadlarga, xususan, Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya qoidalari va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda foydalanishga yaroqli, moslashtirilgan va osonlashtirilgan platformani yaratishga intildilar. Men, ushbu qayta koʻrib chiqilgan rahbariy koʻrsatmalar XITIning global hamkorlikdagi saʼy-harakatlari doirasida, koʻp manfaatdor tomonlardan iborat xalqaro ekspertlar tomonidan mualliflik qilinganidan faxrlanaman.

Men, shuningdek, XITI yoshlar bilan muloqot qilish xalqaro dasturining bir qismi sifatida bir guruh bolalar tomonidan yaratilgan doʻstona, shijoatli va qoʻrqmas personaj boʻlgan COP ning yangi tumori - Sangoni tanishtirganimdan mamnunman.

Tobora koʻp yoshlar onlayn texnologiyalarga oshno boʻlib borayotgan bir davrda, ushbu COP rahbariy koʻrsatmalari alohida ahamiyatga ega. Bunda koʻrsatma beruvchi organlar, tarmoq vakillari, ota-onalar va oʻqituvchilar hamda bolalar ham – hammaligi nihoyatda muhim oʻringa ega. Men, har doimgidek qoʻllab-quvvatlaganingiz uchun minnatdorman va ushbu muhim masala boʻyicha yaqin hamkorlikni davom ettirishni intiqlik bilan kutib qolaman.



Telekommunikatsiya rivojlantirish byurosi direktori
Bogdan-Martin Dorin

Muqaddima

O'ttiz yil avval deyarli barcha davlatlarning hukumatlari bolalar huquqlariga rioya qilish, himoya qilish va rag'batlantirish majburiyatini o'z zimmalariga olgan edi. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (BHK) inson huquqlari bo'yicha tarixdagi eng keng ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomadir. So'nggi o'ttiz yil ichida sezilarli taraqqiyotga erishilgan bo'lsa-da, saqlanib qolgan jiddiy muammolar bilan bir qatorda bolalar xavfsizligi uchun xavfning yangi manbalari paydo bo'lmoqda.

2015-yilda barcha davlatlar 2030-yilgacha bo'lgan davrdagi va 17 ta universal Barqaror Rivojlanish Maqsadlarini (BRM) qabul qilish orqali bola huquqlariga sodiqligini yana bir bor tasdiqladilar. Masalan, 16.2-maqsad 2030-yilgacha bolalarga nisbatan tahqirlash, ekspluatatsiya va har qanday zo'rovonlik va qiynoqlarning barcha shakllariga barham berishni talab qiladi. Umuman olganda, bolalarni himoya qilish 17 BRMdan 11 tasi uchun bog'lovchi mavzudir. UNICEF 1-rasmda ko'rsatilganidek, bolalarni 2030-yilgi kun tartibining markaziga qo'yadi.

1-rasm: Bolalar, AKT va BRM belgisi



2030-yilgacha AKT Barqaror rivojlanish kun tartibida BRMga erishish uchun asosiy omil bo'lishi mumkinligini tan olinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) tarqalishi va tarmoqlarning global o'zaro bog'lanishi insoniyat taraqqiyotini tezlashtirish, raqamli tafovutni bartaraf etish va bilimga asoslangan jamiyatlarni qurish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shuningdek, u ta'lim sohasida barqaror rivojlanish uchun AKTdan foydalanish (4-maqsad), gender tenglik (5-maqsad), infratuzilma (9-maqsad – Internetdan universal va arzon foydalanish) va 17-maqsad – hamkorlik va amalga oshirish² vositalari bilan bog'liq aniq maqsadlarni belgilaydi. AKT 17 ta SDGning har biriga erishishda harakatlantiruvchi kuch bo'lib, iqtisodiyotni butunlay o'zgartirish imkoniyatiga ega. AKT allaqachon dunyo bo'ylab milliardlab odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek ta'lim resurslari va sog'liqni saqlash, elektron hukumat va ijtimoiy tarmoqlar kabi muayyan xizmatlardan foydalanishni ta'minlash orqali o'z harakatlarini amalga oshirdi.

Shu tariqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal tarqalishi bolalar va yoshlar uchun muloqot qilish, bog'lanish, fikr almashish, o'rganish, axborotdan foydalana olish hamda o'z hayoti va jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bildirish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratdi.

Shu bilan birga, Internet va mobil texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va soddalashtirish bolalarning ham onlayn, ham real hayotda xavfsizligi va farovonligi uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Raqamli dunyoning xavf-xatarlarini kamaytirish va ko'proq bolalar va yoshlarning undan foyda olishiga imkon berish uchun hukumatlar, fuqarolik jamiyati vakillari, mahalliy hamjamiyatlar, xalqaro tashkilotlar va tarmoq korxonalar umumiy maqsadga erishish yo'lida kuchlarini birlashtirishi kerak. Ko'rsatma beruvchi organlar bolalarning onlayn muhitda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalqaro maqsadga erishish uchun muhim o'rinni egalladilar.

² UNDP, Sustainable Development Goals | UNDP, undp.org, accessed January 29, 2020, <https://www.undp.org/content/undp/en/home/sustainable-development-goals.html>; Houlin Zhao, "Why ICTs Are so Crucial to Achieving the SDGs," *ITU*, ITU News Magazines, 48, accessed January 29, 2020, https://www.itu.int/en/itu-news/Documents/2017/2017-03/2017_ITUNews03-en.pdf.

AKTning jadal rivojlanishi va bolalarni ushbu hodisaning oqibatlaridan himoya qilish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun 2008-yil noyabr oyida Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (XTI) tomonidan ko'p tomonlama xalqaro [“Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish” \(COP\) tashabbusi](#) ishga tushirilgan. Ushbu tashabbus butun dunyo bo'ylab bolalar uchun onlayn muhitda xavfsiz va imkoniyatlarni kengaytiradigan sharoitlarni yaratish uchun jahon hamjamiyatning barcha sektorlaridan hamkorlarni birlashtirishga qaratilgan.

Bundan tashqari, 2018-yilda Dubayda bo'lib o'tgan Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqining Vakolatli konferensiyasi ishtirokchilari COP tashabbusining ahamiyatini yana bir bor tasdiqladi va undan xabardorlikni oshirish, ilg'or tajriba bilan almashish hamda a'zo-davlatlarga, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarga COP sohasidagi yo'l xaritalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda yordam berish va qo'llab-quvvatlash uchun samarali platforma sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi va inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro shartnomalar doirasida bolalarning onlayn himoyasini ta'minlash muhimligi, onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bilan bog'liq barcha manfaatdor tomonlar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish muhimligi e'tirof etildi.

Konferensiya ishtirokchilari Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM), xususan, BRM 1, 3, 4, 5, 9, 10 va 16da onlayn muhitda bolalarni himoya qilishning turli jihatlarini ko'rib chiquvchi 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibining muhimligini e'tirof etdilar; shuningdek, imkoniyatlari cheklangan va alohida ehtiyojlari bo'lgan shaxslar uchun elektr aloqa/axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish to'g'risidagi [175-sonli rezolyutsiya](#) (Dubay, 2018-y. qayta ko'rilgan) va Butunjahon elektraloqani rivojlantirish konferensiyasining [XTI elektraloqani rivojlantirish sektorining](#) (XTI-D) bolani onlayn muhitda himoya qilishdagi roli to'g'risidagi [67-rezolyutsiyasi](#) (Buenos-Ayres, 2017-y. qayta ko'rilgan) ham hisobga olindi.

2019 yil oxirida XTI/YUNESKOning Barqaror rivojlanish bo'yicha keng polosali aloqa komissiyasi bolalar uchun Internetni qanday qilib xavfsizroq qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar bilan [“Onlayn muhitda bolaning xavfsizligi”](#) hisobotini taqdim etdi.

2009-yilda [COP tashabbusi](#) doirasida XTI tomonidan bolalarni onlayn muhitda himoya qilish bo'yicha birinchi rahbariy ko'rsatmalar to'plami chiqarilgan. So'nggi o'n yil ichida COP rahbariy ko'rsatmalari ko'plab tillarga tarjima qilingan va dunyoning ko'plab mamlakatlari tomonidan onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bilan bog'liq yo'l xaritalari va milliy strategiyalarni ishlab chiqishda ma'lumot manbasi sifatida foydalaniladi. Ular milliy davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, bolalarni parvarish qilish muassasalari, tarmoq va boshqa ko'plab manfaatdor tomonlarga onlayn muhitda bolalarni himoya qilish harakatlarida asqotadi.

Xususan ushbu rahbariy ko'rsatmalar Yevropa mintaqasida Bosniya, Gruziya, Moldova, Chernogoriya, Polsha va Ukraina; Arab mintaqasida Bahrayn va Ummon; Osiyo-Tinch okeani mintaqasida Bruney, Kamboja Kiribati, Indoneziya, Malayziya, Myanma va Vanuatu; Afrika mintaqasidagi Kamerun, Gabon, Gambia, Gana, Keniya, Syerra-Leone, Uganda va Zambiya kabi ko'plab a'zo-davlatlarda bolalarni onlayn muhitda himoya qilish milliy strategiyalarini loyihalash, ishlab chiqish va amalga oshirish uchun foydalanilgan;

Bundan tashqari, ushbu rahbariy ko'rsatmalar Kampalada (Uganda, 2014) bo'lib o'tgan [“Bo'lajak raqamli fuqarolarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”](#) onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha mintaqaviy konferensiyasi (ACOR) va Bangkokda (Tailand 2020) bo'lib o'tgan ASEAN onlayn muhitda bolalarni himoya qilish mintaqaviy konferensiyasi kabilarning asosini tashkil etdi.

[179-son rezolyutsiyaga](#) muvofiq (2018-yilda qayta ko'rib chiqilgan, Dubay) XTIGA COP tashabbusi bo'yicha hamkorlar va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda nogiron bolalar va maxsus ehtiyojli bolalar uchun rahbariy ko'rsatmalarga, shu jumladan elektaloqa tarmog'idagi texnologiyalar rivojlanishini hisobga olgan holda to'rtta rahbariy ko'rsatmalar to'plamini yangilash topshirildi.

Ushbu jarayon natijasida ushbu rahbariy ko'rsatmalar sezilarli darajada yangilandi va ekspertlar hamda tegishli manfaatdor tomonlar tarafidan qayta ko'rib chiqildi va raqamli dunyoda bolalarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli tavsiyalar ishlab chiqildi. Ular onlayn muhitda bolalarni himoya qilish sohasida butun dunyo bo'ylab ko'plab tashkilotlar va shaxslarning bilimi, tajribasi va ekspert baholashidan foydalangan holda ko'p manfaatdor tomonlarning hamkorlikdagi sa'y-harakatlari natijasidir. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar kelajak avlodlar uchun xavfsiz va ishonchli kiberdunyoni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilishga mo'ljallangan. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar milliy yoki mahalliy urf-odatlar va qonunlarga mos keladigan tarzda moslashtirilishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan loyihaga aylanadi deb ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, ushbu rahbariy ko'rsatmalar har bir yosh guruhining turli ehtiyojlarini hisobga olgan holda, 18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar va yoshlarga

tegishli bo'lgan masalalarga qaratilgan. Bundan tashqari, ular turli xil sharoitlarda yashaydigan bolalar, nogiron bolalar va alohida ehtiyojli bolalarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Ushbu rahbariy ko'rsatmalar, shuningdek, raqamli dunyo bolalarning hayotiga olib kelishi mumkin bo'lgan ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda, bolalar onlayn muhitda duch kelishi mumkin bo'lgan barcha xavf-xatarlar, tahdidlar va zararli ta'sirlarni hisobga olib, onlayn muhitda bolalarni himoya qilish choralarini qamrovini ham kengaytiradi.

Umid qilamizki, ushbu rahbariy ko'rsatmalar nafaqat yanada ochiq axborot jamiyatini yaratish, balki XTIga a'zo-davlatlarga 1989-yil 20-noyabrdagi 44/25-son rezolyutsiyasida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi³ konvensiyasida va [Axborot jamiyati bo'yicha](#)⁴ [Butunjahon sammitining \(AJBS\) yakuniy hujjatida](#) ko'rsatilganidek, bolalar huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga yordam imkon beradi.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalarni nashr etish orqali COP tashabbusi barcha manfaatdor tomonlarni kibermakonda bolalarni himoya qiladigan va onlayn resurslar taqdim etadigan barcha ajoyib imkoniyatlardan xavfsizroq foydalanishni osonlashtiradigan qoidalar va strategiyalarning amalga oshirilishini ta'minlashga chaqiradi.

³ UNICEF, "Convention on the Rights of the Child," [unicef.org](https://www.unicef.org/child-rights-convention), accessed January 29, 2020, <https://www.unicef.org/child-rights-convention>.

⁴ WSIS was held in two phases: in Geneva (10-12 December 2003) and in Tunis (16-18 November 2005). WSIS concluded with a bold commitment "to build a people-centered, inclusive and development-oriented information society, where everyone can create, access, utilize and share information and knowledge."

Mundarija

Minnatdorchilik	iii
Soʻz boshi	vi
Muqaddima	viii
Rasm, jadval va holatlar roʻyxati	xi
1. Hujjatning sharhi	1
2. Kirish	4
3. Onlayn muhitda bolani himoya qilish boʻyicha milliy strategiyasini tayyorlash	21
4. Prinsiplar va amalga oshirishga oid tavsiyalar	31
5. Onlayn muhitda bolani himoya qilish boʻyicha milliy strategiyani ishlab chiqish	38
6. Maʼlumot materiallari	48
1-qoʻshimcha: Atamalar	52
2-qoʻshimcha: Bolalar va yoshlarga qarshi aloqa jinoyatlari	59
3-qoʻshimcha: WePROTECT Global alyansi	60
4-qoʻshimcha: Onlayn muhitda zarar manbalariga qarshi harakat qilish choralari (misollar)	62

Rasm, jadval va holatlar roʻyxati

Jadvallar

1-jadval : Koʻrib chiqishni talab qiladigan asosiy sohalar	38
--	----

Rasmlar

1-rasm: Bolalar, AKT va BRM	viii
2-rasm: Onlayn muhitda bolalar duch keladigan tahdidlarning tasnifi	10

Holatlar

Internetdan foydalana olish	7
Internetdan foydalanish	7
Zarar manbalari	12



1 Hujjatning sharhi

1.1 Maqsad

Milliy hukumatlar bolalarni real dunyoda hamda virtual dunyoda himoya qilish majburiyatiga ega. Shuni tushunish kerakki, bugungi kunda yangi texnologiyalar ko'plab bolalar va yoshlarning hayotiga bir qator muhim yo'llar bilan shu qadar mustahkam integratsiyalashgan bir paytda, real dunyo voqealari va onlayn hodisalar o'rtasidagi farqlarni saqlab qolishga urinishdan endi ma'no yo'q. Ular tobora o'zaro duch kelmoqda va bir-biriga bog'liqdir.

Ko'rsatma beruvchi organlar⁵ va boshqa barcha tegishli manfaatdor tomonlar juda muhim o'ringa ega. Texnologiyalarning jadal rivojlanish sharoitlarida, siyosatni ishlab chiqishning ko'plab an'anaviy usullari endi yaroqsizga aylandi. Ko'rsatma beruvchi organlardan bolalarni onlayn muhitda himoyasini ta'minlash uchun tez o'zgarib borayotgan raqamli asrga moslashtirilgan muhit kontekstida o'z vazifasini bajaradigan moslashuvchan va keng qamrovli normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish zarur.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar XTlga a'zo-davlatlardagi ko'rsatma beruvchi organlarga real, ya'ni fizik va virtual olamlarda bolalarni himoya qilishni ta'minlash bo'yicha o'z huquqiy majburiyatlarini anglab yetish va bajarish uchun foydalanish qulay qulay bo'lgan va moslashuvchan asosni taqdim etish uchun ishlab chiqilgan.

Shu maqsadda ushbu rahbariy ko'rsatmalarda ko'rsatma beruvchi organlar uchun bir qator muhim savollar yoritiladi:

- 1) Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish o'zi nima?
- 2) Nima uchun ko'rsatma beruvchi organlar onlayn muhitda bolalarni himoya qilish haqida qayg'urishi kerak?
- 3) Qonunchilik, ijtimoiy-siyosiy sharoitlar va taraqqiyot nuqtayi nazaridan mamlakatimdagi vaziyat qanday?
- 4) Ko'rsatma beruvchi organlar o'z mamlakatlaridagi onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha samarali va izchil siyosatni ko'rib chiqish va shakllantirishni qanday boshlashlari kerak?

Bunda ushbu rahbariy ko'rsatmalar mavjud modellar, mexanizmlar va resurslar asosida aniq misollarni ko'rib chiqish va butun dunyo bo'ylab ilg'or tajribalar haqida tushunchaga ega bo'lish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.2 Qo'llash sohasi

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish choralari qo'llash sohasi bolaga onlayn muhitda yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zararni, jumladan, bolalar xavfsizligi va tinchligiga tahdid soladigan keng ko'lamli omillarni qamrab oladi. Bu murakkab muammo bo'lib, unga turli tomonlardan, shu jumladan, qonunchilik, boshqaruv, ta'lim, siyosat va jamiyat nuqtayi nazaridan yondashish zarur.

Bundan tashqari, onlayn muhitda bolani himoya qilish raqamli muhitda bolalar raqamli muhitda duch keladigan har bir mamlakatdagi umumiy hamda o'ziga xos xavflar, tahdidlar va zararli ta'sirlarni tushunishga asoslanishi kerak. Bu aniq ta'riflar va aralashuvning aniq parametrlarini belgilashni talab qiladi, ular jinoyat tarkibiga kiruvchi va noqonuniy bo'lmasa-da, lekin bolaning tinchligiga tahdid soladigan harakatlar o'rtasidagi farqni o'z ichiga oladi.

Shu maqsadda rahbariy ko'rsatmalarda raqamli muhitda bolalar duch keladigan mavjud tahdidlar va zararlarni haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shu bilan birga texnologiyalarning jadal rivojlanishi va shunga bog'liq yuzaga keladigan yangi tahdidlar va zarar manbalarining paydo bo'lishi bilan siyosatni ishlab chiqishning an'anaviy muddatlari va usullari samarasiz bo'lib qolmoqda. Raqamli asrda ko'rsatma beruvchi organlar mavjud muammolarni hal qilish va iloji boricha kelajakdagi muammolarni oldindan ko'rish uchun hamma uchun ochiq bo'lgan va moslashtirilgan huquqiy va siyosat asoslarini yaratishi kerak. Buni amalga oshirish har bir manfaatdor tomonlar, jumladan, AKT tarmog'i, ilmiy hamjamiyat, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik va bolalarning o'zlari bilan hamkorlikni talab qiladi. Bu jarayon onlayn muhitda bolalarni himoya qilishning umumiy tamoyillarini hisobga olgan holda qo'llab-quvvatlanishi mumkin.

⁵ The term policy-makers refers here to all stakeholders that are responsible for developing and implementing policy, particularly those within government.

1.3 Umumiy tamoyillar

Quyida keltirilgan o'n bitta umumiy tamoyillar birgalikda onlayn muhitda bolalarni himoya qilishning istiqbolli va yaxlit milliy strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Ushbu tamoyillarni taqdim etish tartibi ularning muhimlik darajasi bilan emas, balki mantiqiyliги bilan izohlanadi.

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish milliy strategiyasi:

1. hukumat, tarmoq va jamiyatning rolini hisobga olgan holda yaxlit qarashga asoslanishi;
2. umumiy raqamli muhitni har tomonlama tushunish va tahlil qilishdan kelib chiqib muayyan mamlakatning milliy sharoitlari va ustuvor vazifalarini hisobga olgan holda ifodalanishi kerak;
3. BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida, shuningdek, boshqa asosiy xalqaro konvensiya va normalarda belgilab qo'yilganidek, bolalarning asosiy huquqlariga mos kelishi va bu huquqlarga rioya etilishini ta'minlashi kerak;
4. bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishga oid qonunlar va bolalar xavfsizliga siyosatiga, jumladan, amaldagi o'xshash va tegishli ichki qonunlar va strategiyalarga muvofiq bo'lishi va ularning bajarilishini ta'minlashi kerak;
5. himoya qilishni ta'minlash uchun e'tibordan chetda qoldirish mumkin bo'lmagan bolalarning fuqarolik huquqlari va erkinliklariga rioya qilinishini kafolatlashi kerak;
6. barcha tegishli manfaatdor tomonlarning, shu jumladan bolalarning, ularning ehtiyojlari va majburiyatlarini hisobga olgan holda, aholining kam sonli e'tibordan chetda qolgan guruhlarining ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak;
7. iqtisodiy va ijtimoiy farovonlikka erishishga qaratilgan umumiy xarakterdagi hukumat dasturlariga mos keladigan hamda barqaror rivojlanish va ijtimoiy integratsiyaga erishishda AKTning maksimal hissasini ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqilishi kerak;
8. tegishli mamlakatning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadlarga erishish uchun eng maqbul siyosat vositalaridan foydalanishi;
9. tegishli rollar va majburiyatlarni belgilash hamda yetarli darajada inson va moliyaviy resurslarni taqsimlash uchun mas'ul bo'lgan hukumatning eng yuqori darajasida belgilanadi;
10. bolalar, ota-onalar/vasiylar va manfaatdor tomonlar uchun ular ishonch bildira oladigan raqamli muhitni yaratishga yordam berish;
11. bolalarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, onlayn muhitda bolalar o'zlarini himoya qilishlari uchun ularni raqamli savodxonlikni o'rgatish va vakolat berish uchun manfaatdor tomonlarning sa'y-harakatlari yo'naltirish.

1.4 Ushbu rahbariy ko'rsatmalardan foydalanish

Ushbu rahbariy ko'rsatmalarda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha tegishli tadqiqotlar, mavjud modellar va materiallar ko'rib chiqiladi hamda milliy strategiyani ishlab chiqish uchun aniq ko'rsatmalar beriladi.

- 2-bo'limda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish to'g'risida kirish axboroti berilgan va so'nggi tadqiqotlar, jumladan, yangi paydo bo'lyotgan texnologiyalar, bolalar uchun asosiy tahdidlar va zararli ta'sirlar bilan bog'liq jihatlar bo'yicha ma'lumotlar beriladi.
- 3-bo'limda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish milliy strategiyasini tayyorlashga tegishli, shu jumladan tegishli manfaatdor tomonlar, onlayn muhitda tahdidlar va zararli ta'sirlarga javob berishning mavjud misollari va milliy strategiyani qabul qilishning afzalliklari yoritilgan.
- 4-bo'limda amalga oshirish mexanizmlari va tartibi bo'yicha tavsiyalar beriladi.
- 5-bo'limda onlayn muhitda bolalarni himoya qilish milliy strategiyasini ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak bo'lgan asosiy jihatlar ro'yxati keltirilgan.
- 6-bo'limda foydali ma'lumot materiallari keltirilgan.

2 Kirish

2019-yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi internetdan foydalangan. Foydalanuvchilarning eng ko'p sonli guruhi – bu 44 yoshdan kichik foydalanuvchilar bo'lib, bunda 16 yoshdan 24 yoshgacha va 35 yoshdan 44 yoshgacha bo'lgan foydalanuvchilarning bir xil faolligi qayd etilgan. Butun dunyoda internetdan har uchinchi bola foydalanadi (0-18 yosh)⁶. Rivojlanayotgan mamlakatlarda internetdan asosan bolalar va yoshlar foydalanishadi⁷ va prognozlariga ko'ra kelgusi besh yil ichida ularning soni ikki baravar ko'payadi. Yangi avlod Internet dan bolaligidan foydalanadi va aksariyat foydalanuvchilar ayniqsa global Janubiy mamlakatlarda mobil aloqa texnologiyalari yordamida tarmoqqa ulanishadi⁸.

Internetdan foydalana olish bolalar huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, qizlar, nogiron bolalar, mayda millatlar va boshqa zaif guruhlardan chiqqan bolalarning foydalana olish imkoniyatlarini cheklovchi jiddiy mintaqaviy, milliy, gender va boshqa nomutanosibliklar kuzatilmoqda. Raqamli gender tafovutiga kelsak, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Amerika Qo'shma Shtatlaridan tashqari dunyoning barcha mintaqalarida, Internet foydalanuvchilari orasida ayollarga qaraganda erkaklar ancha ko'pdir. Ko'pgina mamlakatlarda qiz bolalarning internetdan foydalanish imkoniyatlari o'g'il bolalarga qaraganda teng emas, agar ular teng huquqli bo'lsalar, qiz bolalarning internetdan foydalanishi nazorat qilinadi va cheklanadi va ular internetga kirishlari orqali o'z xavfsizligini xavf ostiga qo'yishlari mumkin⁹. Raqamli bilimlarga yetarlicha ega bo'lmagan yoki mayda millat tillarida so'zlashadigan bolalar va yoshlar Internetda tegishli kontentni oson emasligi va qishloq joylarda yashaydigan, raqamli bilimlari kamroq bo'lgan bolalar Internetda ko'proq vaqt o'tkazishadi (ayniqsa o'yin o'ynab) va ota-onalari tomonidan kam yordam va nazorat qilinadi¹⁰.

Shunga qaramay, raqamli texnologiyalar bizga berayotgan imtiyoz va imkoniyatlar qanchalik ulkan ekanini tushunmasdan turib, xavf-xatarlar va tahdidlar haqida gapirib bo'lmaydi. Internet va raqamli texnologiyalar bizning hayot tarzimizni o'zgartirmoqda va muloqot qilish, o'yin o'ynash, musiqa tinglash va turli madaniy, ma'rifiy, mahoratni oshiruvchi keng ko'lamli mashg'ulotlar bilan shug'ullanish uchun ko'plab yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Internet sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan, shuningdek, yoshlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, ammo ularning jamiyatlarida tabii sifatida qaralishi mumkin bo'lgan mavzular bo'yicha kerakli ma'lumotlardan foydalanish imkonini beradi.

Bolalar va yoshlar ko'pincha Internet taqdim etayotgan yangi imkoniyatlarni o'zlashtirish va unumli foydalanishda birinchi safda turishlari sababli, ular o'zlarining xavfsizligi va tinchligiga tahdid soluvchi turli hodisalarga duch kelishmoqda; jamiyat bu muammodan xabardor bo'lishi va unga qarshi kurashishi kerak. Onlayn muhitda bolalar va yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni ochiq muhokama qilish juda muhimdir. Bunday muhokama bolalar va yoshlarga xavf-xatarni anglashga, ularga duch kelgan taqdirda zararli ta'sirning oldini olishga yoki uni bartaraf etishga, Internet taqdim etishi mumkin bo'lgan afzalliklar va imkoniyatlardan foydalanishga o'rgatish imkonini beradi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida yoshlar onlayn muhitda duch kelishi mumkin bo'lgan ba'zi xavflardan

⁶ OECD, "New Technologies and 21st Century Children: Recent Trends and Outcomes," OECD Education Working Paper No. 179 (Directorate for Education and Skills, OECD), accessed January 27, 2020,

<https://www.oecd.org/officialdocuments/publicdisplaydocumentpdf/?cote=EDU/WKP%282018%2915&docLanguage=En>.

⁷ Ofcom, "Children and Parents: Media Use and Attitudes Report 2018" (Ofcom), accessed January 17, 2020, https://www.ofcom.org.uk/__data/assets/pdf_file/0024/134907/children-and-parents-media-use-and-attitudes-2018.pdf.

⁸ ITU, "Measuring the Information Society Report," accessed January 16, 2020, https://www.itu.int/dms_pub/itu-d/opb/ind/D-IND-ICTOI-2018-SUM-PDF-E.pdf.

⁹ "Young Adolescents and Digital Media: Uses, Risks and Opportunities in Low-and Middle-Income Countries," GAGE, accessed January 29, 2020, <https://www.gage.odi.org/publication/digital-media-risks-opportunities/>.

¹⁰ Livingstone, S., Kardefelt Winther, D., and Hussein, M. (2019). *Global Kids Online Comparative Report, Innocenti Research Report*. UNICEF Office of Research - Innocenti, Florence, <https://www.unicef-irc.org/publications/1059-global-kids-online-comparative-report.html>. This can have unexpected results, for example, research undertaken by HABLATAM in five Latin American countries has shown that in vulnerable communities, children may be using dating platforms, videogames, and social networks to perform money transactions for illegal purposes. Contactados al Sur network, "Hablatam," Hablatam Project 2020, accessed February 6, 2020, <https://hablatam.net/>.

xabardorlar¹¹². Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, masalan, bolalar va yoshlarning aksariyati kiberta'qib (kiberhujum)ni internetda hazil yoki masxara qilishdan ajrata oladi. Ular kiberta'qib ommaviy tusga ega ekanligini va zarar yetkazishga qaratilganligini tushunishadi, ammo onlayn muhitda bola uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlar va xavf-xatarlar o'rtasidagi balansni topish murakkab masalaligicha bo'lib qolmoqda¹³.

XTlga a'zo-davlatlar uchun onlayn muhitda bolalar va yoshlarni himoya qilish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda; bunda bu masalani hal qilish hamda bolalar va yoshlarning onlayn muhitdagi imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha sa'y-harakatlari o'rtasidagi balansni topish kerak¹⁴ hamda ularning hamda aholi keng qatlamlarining axborotdan foydalanishiga, so'z erkinligi huquqidan foydalanish, fikrlarini ifodalash imkoniyatlarini cheklamaydigan tarzda himoya qilinishi kerak.

Bolalar va yoshlar duch keladigan xavf-xatarlarga qarshi kurashish uchun, shu jumladan, bolalar va kattalar o'rtasidagi raqamli bo'shliq tufayli, ota-onalar, o'qituvchilar va vasiylarning bolalarga kerakli ko'rsatmalarni berish qobiliyatini cheklaydigan nostandart yechimlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash va ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu bilan birga bolalar va yoshlar ulg'ayib, voyaga yetgan, ota-ona va jamiyatning faol a'zolariga aylanan ekan, bu ularga ushbu raqamli uzilishni qisqartirish uchun noyob potensial imkoniyat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, internetga bo'lgan ishonchni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega bo'lishi va davlat siyosatining markazida bo'lishi kerak. Hukumatlar va jamiyat, bolalar va yoshlarning nuqtayi nazarini tushunish hamda xavf-xatarlar va imkoniyatlar to'g'risida jamoatchilik muhokamasini boshlash uchun ish olib borishi kerak. Bolalar va yoshlarga onlayn muhitdagi xavf-xatarlarni boshqarishda yordam berish samarali bo'lishi mumkin, ammo hukumatlar, shuningdek, onlayn muhitda zarar yetkazilayotganlar uchun tegishli yordam xizmatlari ishini ta'minlashlari, shuningdek, bolalarni ushbu xizmatlarga qanday murojaat qilishlari mumkinligi to'g'risida xabardor qilishlari kerak.

Ba'zi mamlakatlar raqamli savodxonlik muammosini hal qilish va onlayn muhitda bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun zarur resurslarni ajratish uchun qo'llaridan kelgancha harakat qilmoqdalar. Biroq bolalarning o'zlari ota-onalar, o'qituvchilar, texnologik kompaniyalar va hukumatlar onlayn muhitda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun yechimlarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynashini aytishadi. Shuningdek, XTlga a'zo-davlatlar onlayn muhitda bilim almashinuvini kuchaytirish va bolalarni ko'proq himoya qilishni ta'minlash maqsadida sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirish kabi choralarni qo'llab-quvvatlash muhimligini ta'kidladilar⁹.

Bolalar va yoshlar tobora murakkablashib borayotgan raqamli muhitda harakat qilishlari kerak, mashinaviy o'qitish uchun sun'iy intellektni joriy etish esa, katta hajmli ma'lumotlarni tahlil qilish, robotlashtirish, virtual va to'ldirilgan reallik, buyumlar interneti bolalarning ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro munosabatlari tajribasini butunlay o'zgartiradi. Shu sababli hozirgi kunda va kelajakda bolalar, ota-onalar va jamiyatlarni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalar kiritish va siyosat ishlab chiqish talab qilinadi.

2.1 Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish o'zi nima?

Onlayn texnologiyalar sababli bolalar va yoshlar muloqot qilish, yangi ko'nikmalarni o'rganish, ijodkorlik va yaxshi jamiyat yaratishga hissa qo'shish uchun ko'plab imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Shu bilan birga ushbu texnologiyalar konfidensiallik, noqonuniy kontent, shilqimlik, kiberta'qib, shaxsiy axborotni suiiste'mol qilish yoki shahvoniy maqsadda gruming va hatto bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq yangi xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar raqamli savodxonlikni o'zlashtirish jarayonida bolalar va yoshlar duch kelishi mumkin bo'lgan barcha tahdidlarga va zararli ta'sirlarga javob berishda yaxlit yondashuvni taklif etadi. Ularda barcha tegishli manfaatdor tomonlar bolalar va yoshlar Internet taqdim etayotgan imkoniyatlardan foydalanishda ularning raqamli texnologiyalarga chidamliligi, tinchligi va himoyalanganligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi e'tirof etiladi.

Bolalar va yoshlarni himoya qilish umumiy mas'uliyat hisoblanadi, shu sababli barcha manfaatdor

¹¹ Since 2016, ITU undertakes consultations within COP with children and adult stakeholders on relevant issues such as cyberbullying, digital literacy and children's activities online.

¹² ITU, Youth Consultation, <https://www.itu.int/en/council/cwg-cop/Pages/meetings.aspx>.

¹³ UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)."

¹⁴ ITU, "Celebrating 10 Years of Child Online Protection", ITU News, February 6, 2018, <https://news.itu.int/celebrating-10-years-child-online-protection/>.

tomonlar hamma uchun barqaror kelajakka erishishga o'z hissasini qo'shishlari kerak. Buning uchun ko'rsatma beruvchi organlar, tarmoq vakillari, ota-onalar, vasiylar, o'qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bolalar va yoshlarning onlayn muhitda hamda real hayotda o'z salohiyatlarini amalga oshirishlariga yordam berishlari kerak.

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish tushunchasi umumiy belgilangan ta'rifga ega emas, ammo u xavfsiz, tegishli yoshga mo'ljallangan, ochiq hamda bolalar va yoshlarning keng ishtirokiga asoslangan raqamli makonlarni yaratishga yaxlit yondashuvni nazarda tutadi:

- tahdid mavjud bo'lganda unga javob berish, qo'llab-quvvatlash va o'ziga-o'zi yordam berish;
- zararli ta'sirning oldini olish;
- himoya qilish va bolalarga raqamli fuqaro bo'lish imkoniyatini berish o'rtasidagi dinamik muvozanat;
- bolalarning hamda jamiyatning ham huquq va majburiyatlarini amalga oshirish.

Bundan tashqari, texnologiya va jamiyatning jadal rivojlanishi va Internet munozara jamoalari tufayli onlayn muhitda bolalarni himoya qilish samarali bo'lishi uchun tezkor va moslashuvchan yondashuv zarur. Ushbu rahbariy ko'rsatmalarda bolalar va yoshlarning onlayn muhitda duch keladigan asosiy xavf-xatarlarini, shu jumladan zararli va noqonuniy tarkibni, shilqimlik, kiberta'qib, shaxsiy ma'lumotlarni suiiste'mol qilish yoki jinsiy maqsadlarda gruming qilish, bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar va ularning jinsiy ekspluatatsiyasi batafsil ko'rib chiqiladi, ammo texnik innovatsiyalar rivojlanib borishi bilan har doimgidek mintaqaga qarab farqlanadigan yangi muammolar paydo bo'ladi. Shu bilan birga yangi muammolar bilan butun dunyo hamjamiyati doirasida birgalikda kurashish yaxshiroq, chunki bu muammolar yangi yechimlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

2.2 Bolalar raqamli dunyoda

Internet bizning turmush tarzimizni o'zgartirdi. U bolalar va yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, jismoniy va raqamli dunyoni ajratilgan holda idrok etishni imkonsiz qildi. Bugungi kunda Internetdan foydalanuvchilarning uchdan bir qismini bolalar va yoshlar tashkil etadi va YUNICEFning hisob-kitoblariga ko'ra, yoshlarning 71 foizi allaqachon internetdan foydalana oladi.

Internetdan foydalana olishning keng tarqalishi odamlarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Onlayn dunyo bolalar va yoshlarga noqulay vaziyat yoki nogironlik bilan bog'liq cheklolarni yengish imkonini beradi, hamda o'yin-kulgi, ta'lim olish, ishtirok etish va munosabatlarni o'rnatishning yangi formatlarini taqdim etadi. Bugungi kunda raqamli platformalar faoliyatning har xil turlari uchun foydalaniladi va ko'pincha multimedia tusiga ega.

Ushbu texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish, ulardan foydalanish va ushbu muhitda harakat qilish qobiliyati yoshlarning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, shuning uchun ular bu texnologiyalardan erta yoshdan boshlab foydalaniladilar. Ko'rsatma beruvchi organlar ko'p hollarda bolalar va yoshlar belgilangan yosh darajasiga yetgunga qadar turli platformalar va xizmatlardan foydalanishni boshlashlarini tushunishlari kerak, shuning uchun ta'lim berishni erta yoshdan boshlash kerak.

Bolalar va yoshlar ushbu muammoni muhokama qilishda ishtirok etishni xohlashadi; raqamli avlod vakillari sifatida ular boshqalar bilan bo'lishlari mumkin bo'lgan qimmatli tajriba va bilimga ega. Ko'rsatma beruvchi organlar va amaliyotchi-mutaxassislar bolalar va yoshlar huquqlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida onlayn muhit masalalari bo'yicha ular bilan doimiy muloqotda bo'lishlari kerak. **Ошибка! Закладка не определена.**

Internetdan foydalana olish

2019-yilda dunyo aholisining yarmidan ko'pi (53,6%) internetdan foydalanishgan: foydalanuvchilar soni taxminan 4,1 milliardni tashkil etgan. Butun dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etgan¹⁵. Ba'zi daromadi kam bo'lgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich ikkiga birni, daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda esa bu nisbat beshdan birga to'g'ri keladi. YUNICEF ma'lumotlariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab yoshlarning 71 foizi internetdan foydalanish

¹⁵ Livingstone, S., Carr, J., and Byrne, J. (2015) *One in three: The task for global internet governance in addressing children's rights*. Global Commission on Internet Governance: Paper Series. London: CIGI and Chatham House, <https://www.cigionline.org/publications/one-three-internet-governance-and-childrens-rights>.

huquqiga ega¹⁶. Shu tariqa, internetda bolalar va yoshlarning bo'lishi sezilarli, doimiy va o'zgarmas bo'lib qoladi¹⁷. Internet turli xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maqsadlarda foydalanilmoqda, oilaviy, iste'mol mahsulotiga yoki xizmatiga aylanmoqda, oilalar, bolalar va yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda.

2017-yildagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turli mintaqalardagi bolalar va yoshlarning internetdan foydalana olishi ko'p jihatdan daromad darajasiga bog'liq. Umuman olganda, daromad yuqori bo'lgan mamlakatlarga qaraganda, daromadi kam bo'lgan mamlakatlarda internetdan foydalanuvchi bolalar soni kamroqdir. Aksariyat mamlakatlarda bolalar va yoshlar ish kunlariga qaraganda dam olish kunlarida internetda ko'proq vaqt o'tkazadilar, mamlakatga bog'liq holda eng ko'p o'smirlar (15-17 yosh) - o'rtacha 2,5 dan 5,3 soatgacha bo'lgan vaqtni internetda o'tkazadilar.

Internetdan foydalanish

Internetga kirish uchun bolalar va yoshlar ko'pincha mobil telefondan, ikkinchi va uchinchi o'rinlarda ish stolidagi kompyuter va noutbuklardan foydalanadilar. Bolalar va o'smirlar hafta davomida internetda kuniga o'rtacha ikki soat, dam olish kunlari esa bunga taxminan ikki barobar ko'proq vaqt sarflaydilar. Ba'zi bolalar va o'smirlar esa uzluksiz foydalanadilar. Biroq hali ham uyda Internetga kirish imkoniga ega bo'lmagan bolalar va yoshlar soni ham talaygina.

Amalda Internetdan foydalanadigan bolalar va yoshlarning aksariyati bir nechta qurilmalar yordamida tarmoqqa ulanadilar: haftada kamida bir marta Internetdan foydalanadigan bolalar va yoshlar uchta turli xil qurilmalardan foydalanishlari mumkin. Kattaroq yoshdagi bolalar, shuningdek, nisbatan boy mamlakatlardagi bolalar ko'proq qurilmalardan foydalanishadi, o'rganib chiqilgan barcha mamlakatlarda o'g'il bolalar qiz bolalarga qaraganda ko'proq qurilmalardan foydalanadilar.

Qiz bolalar va o'g'il bolalar orasida eng keng tarqalgan mashg'ulot - videoroliklarni tomosha qilish. Internetdan foydalanuvchi bolalar va yoshlarning to'rt dan uch qismidan ko'prog'i yolg'iz yoki oila a'zolari bilan kamida bir marta internetda video tomosha qilishlarini aytishadi. Ko'pgina bolalar va yoshlarni ijtimoiy faol foydalanuvchilar toifasiga kiritish mumkin, chunki ular bir vaqtning o'zida Facebook, Twitter, TikTok va Instagram kabi bir nechta platformalardan foydalanishadi.

Bolalar va yoshlar siyosatda ishtirok etish uchun internetdan foydalanadilar va o'z fikrlarini bildirish uchun blog yuritadilar.

Onlayn o'yinlarda ishtirok etishning umumiy darajasi mamlakatlarga qarab farq qiladi va taxminan bolalar va yoshlar uchun Internetdan foydalanish imkoniyati darajasiga to'g'ri keladi, bunda internetdan foydalanuvchi bolalar va yoshlarning 10-30 foizi har hafta onlayn rejimda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadilar.

Ta'limga keladigan bo'lsak, barcha yoshdagi ko'plab bolalar va yoshlar uy vazifalarini bajarish, qoldirilgan darslariga yetib olish yoki sog'lig'i haqida onlayn ma'lumot olish uchun har hafta internetdan foydalanadilar. Katta yoshdagi bolalar yosh bolalarga qaraganda ma'lumot izlashga ko'proq qiziqadilar.

2.3 Texnologiyalarning bolalarning raqamli tajribasiga ta'siri

Internet va raqamli texnologiyalar bolalar va yoshlar uchun ham imkoniyatlar hamda xavf-xatarlar manbai bo'lishi mumkin. Masalan, bolalar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda, ular uchun tadqiqot qilish, ta'lim olish, muloqot qilish va asosiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar bolalar tomonidan xavfsiz muhitda o'zligini o'rganishga imkon beradigan platformalar sifatida qaraladi. Konfidensiallik va obro'-e'tibor bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lish yoshlar uchun katta ahamiyatga ega.

“Men Internetga qo'ygan barcha narsalarimiz u yerda abadiy qolishi va kelajakda hayotimizga ta'sir qilishi mumkinligini bilaman” (14 yoshli o'g'il bola, Chili).

Ammo maslahat jarayoni shuni ko'rsatdiki, aksariyat bolalar o'n uch yoshga¹⁸ to'lgunga qadar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi va yoshni tekshirish xizmatlari odatda zaif yoki umuman yo'q, shuning uchun bolalar duch keladigan xavf-xatarlar ko'payib borishi mumkin. Garchi bolalar shaxsiy hayoti

¹⁶ Broadband Commission, “Child Online Safety: Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online (2019),” *Broadband Commission for Sustainable Development*, October 2019, 84, https://broadbandcommission.org/Documents/working-groups/ChildOnlineSafety_Report.pdf.

¹⁷ Livingstone, Carr, and Byrne, “One in Three: Internet Governance and Children's Rights.”

¹⁸ Conectados al Sur network, “Hablatam”; UNICEF, “Global Kids Online Comparative Report (2019).”

haqida qayg'urishga, raqamli ko'nikmalarni egallashga hamda internetdan samarali foydalanuvchi fuqaro bo'lishga intilishsa ham, ular o'z do'stlari va tanishlariga nisbatan shaxsiy hayot haqida o'ylashadi va begonalar va uchinchi shaxslardan ko'ra "Do'stlarim nimani ko'rishadi?" deb ko'proq tashvishlanadilar. Bularning barchasi bolalarning o'ziga xos qiziquvchanligi va ularning katta xavf-xatarga duch kelishi bilan birga, ularni gruming, ekspluatatsiya qilish, ta'qib qilish yoki boshqa turdagi zararli kontent yoki aloqalar oldida zaifroq bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Mobil ilovalar orqali fotosuratlar va videolar bilan almashishning keng tarqalganligi, xususan, bolalar tomonidan oqimli kontent platformalaridan foydalanishi ham ular shaxsiy hayotining daxlsizligi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar yuzasidan xavotirga sabab bo'ladi. Ba'zi bolalar o'zlari, do'stlari va aka-ukalari yoki opa-singillarining shahvoniy xarakterdagi fotosuratlarini suratga olishadi va ular bilan Internetda bo'lishishadi. Ba'zilar, ayniqsa katta yoshdagi bolalar uchun bu shahvoniylikning tabiiy ifodasi va shahvoniy o'ziga xoslikni izlashning namoyon etilishi bo'lishi mumkin, ammo boshqa hollarda, bu ayniqsa yosh bolalarga tegishli, gap kattalar yoki boshqa bola tomonidan majburlash to'g'risida ketmoqda. Har qanday holatda bunday kontent ko'plab mamlakatlarda noqonuniy hisoblanadi, bu bolaning ta'qib qilinishiga olib kelishi yoki bolani keyinchalik ekspluatatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkin.

Shunga o'xshash tarzda, onlayn o'yinlar bolalarga o'zlarining asosiy huquqlarini, shu jumladan o'ynash, aloqa o'rnatish, do'stlar bilan vaqt o'tkazish, yangi do'stlar orttirish va muhim ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Aksariyat hollarda bu ijobiy tajriba bo'lishi mumkin. Biroq mas'uliyatli kattalar nazoratsiz va yordamisiz onlayn o'yin platformalaridan foydalanadigan bolalar o'yin tartibsizliklari, moliyaviy firibgarliklar, bolalar shaxsiy ma'lumotlarini to'plash va monetizatsiya qilish, kiberta'qib, haqoratli so'zlar, zo'ravonlik va nomaqbul xatti-harakatlar yoki kontent¹⁹, shuningdek, real, kompyuterda yaratilgan yoki virtual haqiqat bilan bog'liq bo'lgan haqiqiy fotosuratlar va bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar yoki ularni shahvoniy ekspluatatsiya qilish norma sifatida tasvirlanadigan videolar yordamida xavf-xatarlarga duch kelishi mumkinligini ko'rsatadigan dalillar ortib bormoqda.

Bundan tashqari, texnologiyalarning rivojlanishi buyumlar internetining paydo bo'lishiga olib keldi, bu ko'payib borayotgan turli xil qurilmalarning bir-biriga ulanishi, ularning o'zaro ta'siri va Internetdan foydalangan holda tarmoqqa ulanishni ko'zda tutadi. Bunga predmetlarga sun'iy intellekt asosida ishlaydigan o'yinchoqlar, radioenagalar va qurilmalarini o'z ichiga oladi, ular shaxsiy hayot daxlsizligi va nomaqbul kontaktlar nuqtayi nazaridan xavf keltirib chiqarishi mumkin.

2.4 Onlayn muhitda bolalar duch keladigan asosiy tahdidlar

Kattalar va bolalar onlayn muhitda turli xil xavf va tahdidlarga duch kelishadi. Biroq bolalar aholining eng zaif guruhi hisoblanadi. Bundan tashqari, bolalarning ayrim toifalari, ayniqsa, nogiron bolalar²⁰ yoki tranzit jarayonida bo'lgan bolalar boshqa bolalar guruhlariga qaraganda ko'proq himoyasizdir. Ko'rsatma beruvchi organlar barcha bolalar xavfsiz raqamli muhitda rivojlanishi va o'qib o'rganishlari uchun zarur bo'lgan hamma narsani qilishlari kerak. Bolalarning himoyasiz ekanligi va ularni ekspluatatsiyaning barcha shakllaridan himoya qilish kerakligi haqidagi fikr BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida bayon etilgan.

Raqamli muhitning ba'zi sohalarda bolalar uchun juda katta imkoniyatlarni taqdim etadi, bu esa ayni vaqtda bolaga jiddiy zarar yetkazishi va uning tinchligini buzishi mumkin bo'lgan xavflarni kuchaytirishi mumkin. Bolalar va kattalarga nisbatan Internetdan, masalan, shaxsiy hayotga aralashish, noto'g'ri axborot tarqatish yoki undan ham yomoni, pornografiyaga kira olish uchun foydalanish mumkin degan xavotirlar mavjud.

Shu munosabat bilan, bolalar duch keladigan xavf va zararni farqlash muhimdir. Ba'zi ko'rsatkichlarga ko'ra xavfli deb hisoblanishi mumkin bo'lgan barcha mashg'ulotlar xavfli emas va barcha xavflar ham bolalar uchun zararli bo'lmaydi - masalan, har doim ham zarar keltirmaydigan seksting orqali yoshlar jinsiy hayot va munosabatlardagi tajribasini oshirish uchun foydalanishlari mumkin.

¹⁹ UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)." (UNICEF, 2019)

²⁰ Lundy et al., "TWO CLICKS FORWARD AND ONE CLICK BACK," Report on children with disabilities in the digital environment (Council of Europe, October 2019), <https://rm.coe.int/two-clicks-forward-and-one-click-back-report-on-children-with-disabili/168098bd0f>.

2-rasm: Onlayn muhitda bolalar duch keladigan tahdidlarning tasnifi²¹

	Kontent Bola istemolchi sifatida (ommaviy ishlab chiqarish)	Bog'lanish Bola ishtirokchi sifatida (kattalar tomonidan boshlangan harakatlar)	Xulq Bola aktyor sifatida (qonunbuzar/jabrlanuvchi)
Agressiv xarakter	Shafqatsizlik/zo'ravonlik sahnalari	Taqib qilish	Tengdoshlarni gruming qilish, dushmanlik harakati
Jinsiy xarakter	Pornografik materiallar	Notanishlar bilan uchrashganda gruming, jinsiy zo'ravonlik qilish	Jinsiy taqib qilish, seksting
Qiyimatli xarakter	Irqchilik/nafrat sohadigan kontent	Mafkuraviy e'tiqod	Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan potentsial zararli kontent
Tijoriy xarakter	Reklama, yashirin marketing	Shaxsiy ma'lumotlardan foydalanish, shu jumladan noto'g'ri foydalanish	Qumor o'yinlari, mualliflik huquqining buzilishi

2-rasmda bolalarning onlayn muhitda duch keladigan xavf-xatarlarini tasniflovchi jadval keltirilgan. Uchta ustunda quyidagi sarlavhalar mavjud: 1) kontent (bola iste'molchi sifatida (ommaviy ishlab chiqarish)); 2) bog'lanish (bola ishtirokchi sifatida (kattalar tomonidan boshlangan harakatlar)); 3) xulq (bola aktyor (qonunbuzar / jabrlanuvchi) sifatida). To'rtta quyidagi sarlavhalar mavjud: "Agressiv xarakter", "Jinsiy xarakter", "Qiyimatli xarakter", "Tijoriy xarakter". Satrlar mazmuni: "Agressiv xarakter" - 1) shafqatsizlik / zo'ravonlik sahnalari; 2) taqib qilish; 3) tengdoshlarni gruming qilish, dushmanlik xatti-harakatlari; "Jinsiy xarakter" - 1) pornografik materiallar; 2) notanish odamlar bilan uchrashganda gruming, jinsiy zo'ravonlik qilish; 3) jinsiy taqib qilish, seksting; "Qiyimatli xarakter" - 1) irqchilik/nafrat kontenti; 2) mafkuraviy e'tiqod; 3) foydalanuvchi tomonidan yaratilgan potentsial zararli kontent; «Tijorat xarakter - 1) reklama, yashirin marketing; 2) shaxsiy malumotlardan foydalanish, shu jumladan noto'g'ri foydalanish, 3) qimor o'yinlari, mualliflik huquqining buzilishi.

Manba: EU Kids Online (Livingstone, Haddon, Görzig, and Ólafsson (2011)

Raqamli davrning kelishi bilan bolalarni himoya qilish bilan bog'liq yangi muammolar yuzaga keldi. Bolalar onlayn muhitda o'zlarini himoyalangan his qilishlari va u taqdim etadigan ko'plab imtiyozlardan foydalanishlari kerak.

Ko'rsatma beruvchi organlar bolalar xavfsiz sharoitda rivojlanishi va ta'lim olishi uchun tegishli qonunlar qabul qilinishini, kafolatlar berilishini va himoya vositalarni ishlab chiqishni ta'minlashi kerak. Bolalar tahdidlarni bilishlari hamda onlayn muhitda xatti-harakatlarining oqibatlarini to'liq tushunishlari uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lishlari juda muhimdir.

Internetda bolalar tashkilotlar, kattalar va tengdoshlari tomonidan ko'plab tahdidlarga duch kelishlari mumkin.

Kontent va manipulyatsiya

- Nomaqbul yoki jinoy kontentga duch kelib bolalar o'ziga-o'zi zarar yetkazish, buzg'unchi va zo'ravon xatti-harakatlar kabi haddan ortiq holatlarga yetib kelishlari mumkin. Bunday kontent ta'siri bolalarning radikallashtiruviga, shuningdek, ularning irqchilik yoki kamsituvchi g'oyalarga qiziqishining ortishiga olib kelishi mumkin. Ko'plab bolalar veb-saytlarda belgilangan yosh

²¹ Livingstone, S., Haddon, L., Görzig, A., and Ólafsson, K. (2011). *Risks and safety on the internet: The perspective of European children. Full findings*. LSE, London: EU Kids Online, <http://eprints.lse.ac.uk/33731/>.

cheklovlariga rioya qilmasliklari ma'lum.

- Bolalarning noto'g'ri yoki to'liq bo'lmagan axborotni olishlari ularga atrofdagi dunyo haqida to'liq tasavvurni shakllantirishga imkon bermaydi. Foydalanuvchilarning xatti-harakatiga qarab kontentni shaxsiylashtirish tendensiyasi bolalarning turli xil kontentlardan foydalanish va ularga rivojlanish imkoniyatini bermaydigan "axborot pufagi"ning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.
- Manipulyatsiya maqsadida algoritmik filtrlangan kontentning ta'siri bolaning rivojlanishiga, uning qarashlari, qadriyatlari va odatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalarni "aks-sado kameralari" yoki "axborot pufagi"da izolyatsiya qilish ularning turli xil fikrlar va g'oyalar bilan tanishishlariga to'sqinlik qiladi.

Kattalar yoki tengdoshlar bilan muloqotlar

Bolalar o'z tengdoshlari yoki tengdoshlari bilan muloqotga kirishganda turli xil tahdidlarga duch kelishlari mumkin.

- Onlayn muhitda ta'qib qilish oflayn muhitga qaraganda kengroq va tezroq tarqalishi mumkin. Ta'qib har qanday vaqtda - kechayu kunduz, avval xavfsiz deb hisoblangan "bo'shliq" chegaralarini buzgan holda amalga oshirilishi va anonim bo'lishi mumkin.
- Real hayotda jabrlangan bolalarning onlayn muhitda ham jabrlanish ehtimoli ko'proq bo'lishi mumkin. Shu tariqa onlayn muhitda nogiron bolalar ko'proq xavf-xatarlarga duch keladi, chunki tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalar ko'pincha turli xil tajovuzlarning qurboniga aylanishadi hamda ko'p hollarda jinsiy qurbonlikni boshdan kechirishadi. Qurbonlik bolada bor bo'lgan va taxmin qilingan nogironligi yoki nogironligi bilan bog'liq jihatlari, masalan, o'zini tutishi yoki nutqi, ular foydalanadigan qurilmalar yoki xizmatlariga asoslangan bulling, ta'qib qilish, izolyatsiya va kamsitishni o'z ichiga olishi mumkin.
- Tuhmat va obro'ga putur yetkazish: tasvirlar va videolarni tahrir qilinishi va milliardlab odamlarga tarqatilishi mumkin. Asossiz shafqatsiz sharhlar ko'p yillar davomida har kim tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.
- Bolalar yon atrofdagi yoki dunyoning narigi chekkasidagi dilozorlar tomonidan Internet orqali nishonga olinishi, gruming va zo'ravonlikka duchor bo'lishi mumkin, ko'pincha ular o'zlarini bo'lmagan odam deb da'vo qilishadi. Bu turli xil shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan radikalashuv va bolalardan o'zlarining shahvoniy mazmundagi kontentlarini yuborishga majbur qilish.
- To'lovchining ruxsati yoki ruxsatisiz bosim, aldash yoki majburlash natijasida xaridlarni amalga oshirish.
- Keraksiz reklama bilan bog'liq holda ma'lumotlarni sotish va ushbu ma'lumotlar roziligiga bog'liq savollar tug'iladi.

Bolaning potensial oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan xulq-atvori

- Onlayn muhitdagi ta'qib yoqimsiz yoki halokatli bo'lishi mumkin, chunki u ommabop bo'lib juda keng miqyosda tarqaladi, elektron vositalar orqali tarqatiladigan kontent esa har qanday vaqtda yana diqqat markaziga tushishi mumkin, natijada esa ta'qib qurboni bo'lgan odam noxush voqeani unutishi qiyin bo'lishi mumkin; bunday kontentdan obro'sizlantiruvchi vizual tasvirlar yoki haqoratli so'zlar bo'lishi mumkin; bunday kontentdan sutkasiga 24 soat foydalanish mumkin; elektron aloqa vositalari yordamidagi ta'qiblar sutkasiga 24 soat, haftada 7 kun sodir bo'lishi mumkin, hatto jabrlanuvchining shaxsiy hayotiga, hatto o'zlarini "xavfsiz" his qiladigan joylarda masalan uyda ham tajovuz qilishlari mumkin; shaxsiy axborot manipulyatsiya qilinishi, vizual tasvirlar o'zgartirilishi va keyin boshqa odamlarga yetkazilishi mumkin. Bundan tashqari, ta'qib anonim tarzda amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, shu jumladan, jismoniy zo'ravonlik va/yoki shahvoniy suiiste'mollik xavfi bo'lganda internetda tanishuvdan keyin real hayotdagi uchrashuvlar jismoniy zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin.
- Plagiat va kontentni ruxsatsiz yuklash jarayonida, shu jumladan nomaqbul fotosuratlarini ruxsatsiz olish va Internetga yuklash orqali o'zining yoki boshqa odamlarning huquqlariga rioya qilmaslik.
- Boshqa odamlarning mualliflik huquqini buzish, masalan, Internetdan yuklab olish uchun pul to'lanishi kerak bo'lgan musiqa, filmlar yoki teledasturlarni yuklab olish orqali, bu o'g'irlik qurboniga zarar keltirishi mumkin.
- Salomatlik, ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy rivojlanish va umumiy farovonlik uchun muhim

bo'lgan ijtimoiy tadbirlar va/yoki ochiq havodagi mashg'ulotlarga zarar yetkazadigan Internet va/yoki onlayn o'yinlardan mukkasidan ketib yoki ortig'idan ko'p foydalanish.

- Biror kishiga zarar yetkazish, shilqimlik qilish yoki ta'qib qilishga urinishlar, shu jumladan jinoyatchi o'zini boshqa shaxsga, ko'pincha boshqa bola kabi ko'rsatadi.
- O'smirlar orasida "seksting" (mobil telefonlar yordamida shahvoniy xarakterdagi tasvirlar yoki xabarlarini yuborish) kabi hodisa tobora keng tarqalmoqda. Odatda, odamlar bunday tasvirlar va xabarlarini munosabatlarda bo'lgan sheriklariga yoki potensial sheriklariga yuboradilar, ammo ba'zida esa ulardan yanada kengroq auditoriya boxabar bo'ladi. O'smirlar bunday xatti-harakatlarning oqibatlarini va olib kelishi mumkin bo'lgan xavflarni yetarli darajada tushunishlari ehtimoli kam.

2.5 Onlayn muhitda bolalarga yetkaziladigan zararining asosiy manbalari

Oldingi bo'limda bolalar onlayn muhitda duch kelishi mumkin bo'lgan tahdidlar haqida gap ketdi. Bu bo'limda esa ushbu tahdidlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar yoritiladi.

Zarar manbalari

YUNICEFning Internetdan foydalanish bo'yicha tadqiqotlariga ko'ra, xavflar va zarar manbalariga quyidagi toifalar kiradi:

- O'ziga zarar yetkazish:
 - o'z joniga qasd qilish kontenti
 - kamsitish
- Nomaqbul materiallar ta'siri:
 - ekstremistik/zo'ravonlik kontentining ta'siri
 - yashirin marketing
 - onlayn qimor o'yinlari
- Ushbu mavzu bo'yicha so'rovda qatnashgan bolalarning taxminan 20 foizi o'tgan yil davomida odamlar o'zlariga jismoniy shikast yetkazayotgani yoki og'riq yetkazayotganliklari haqida veb-saytlar hamda tarmoqdagi munozaralarni ko'rganliklarini aytishdi.
- Radikallashuv:
 - mafkuraviy ishontirish
 - tajovuzkor so'zlar
- Bolalar ko'proq tajovuzkor so'zlar yoki tarmoqdagi shahvoniy xarakterdagi kontentdan xafa bo'lishgani, onlayn muhitda yoki real dunyoda ularga noto'g'ri munosabatda bo'lishgani yoki avval internet orqali tanishgan odam bilan yuzma-yuz uchrashishgani haqida xabar berishgan.
- Shahvoniy suiiste'molliklar va jinsiy ekspluatatsiya:
 - o'z qo'li bilan yaratilgan kontent
 - shahvoniy maqsaddagi gruming
 - bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq materiallar (CSAM)
 - odam savdosi
 - sayohat va turizmga bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish

2017-yilda o'tkazilgan Daniya, Vengriya va Buyuk Britaniyadagi bolalar ahvolini o'rganish natijalari, 6 foiz bolalarning ular ruxsatisiz tarqatilgan behayo fotosuratlarini borligini ko'rsatdi.

2019-yilda Internetni Kuzatish Jamg'armasi (IWF) bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik sahnalari tasvirlangan tasvirlar va videomateriallarni o'z ichiga olgan 132 000 dan ortiq veb-sahifalarni aniqladi. Har bir veb-sahifada ushbu suiiste'mollikning bittadan mingtagacha bo'lgan tasvirlari bo'lishi mumkin. **Ошибка! Закладка не определена.Ошибка! Закладка не определена.**

Onlayn muhitdagi zo'ravonlik bilan bog'liq xavf-xatarlar, masalan, roziliksiz yalang'och fotosuratlarini tarqatish va kiberta'qib, teng bo'lmagan gender dinamikasi bilan tavsiflanadi, bunda qizlar odatda shahvoniy xatti-harakatlarga nisbatan gender bosimidan aziyat chekishadi, zarar yetkazish bilan birga

keladigan salbiy oqibatlarini his etadilar.

- Shaxsiy ma'lumotlarning buzilishi va ulardan noqonuniy foydalanish:
 - xakerlik
 - firibgarlik va o'g'irlik

Ko'p odamlar firibgarlik va xakerlik bilan tanish, ammo internetda bolaning shaxsiy hayotiga bostirib kirishga boshqa turdagi qoidabuzarlik sifatida qaraladi. Kattalar ko'pincha yoshlarga nisbatan noto'g'ri harakat qiladilar, ularning mobil telefonlari tarkibini sinchkovlik bilan o'rganib chiqadilar va ularning tarmoqdagi faoliyatini kuzatadilar; masalan, Braziliyadagi bolalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, turli yoshdagi o'g'il bolalar ham, qiz bolalar ham ota-onalar tomonidan qiz bolalarning internetdan foydalanishini ko'proq nazorat qiladilar deb hisoblaydilar. Ushbu tushunchalar qiz bolalar ba'zi hollarda o'zlari yashayotgan ijtimoiy tuzilmalar tufayli, xususan, ularning xavfsizligi nuqtayi nazaridan onlayn va real dunyodagi o'zaro munosabatlar o'rtasidagi chegara tobora yemirilib borayotgan sharoitlarda ko'proq himoyasiz bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

- Kiberbulling, ta'qib qilish va shilqimlik: tengdoshlarning dushmanlik va zo'ravonlik faoliyati.

Chatlar va ijtimoiy tarmoq saytlari anonim foydalanuvchilar, shu jumladan yoshlar tajovuzkor yoki haqoratli muloqotga kirishganda zo'ravonlik va ta'qib qilish imkoniyatini berishi mumkin. Yevropaning yettita davlati - Belgiya, Daniya, Irlandiya, Italiya, Portugaliya, Ruminiya va Buyuk Britaniyada – Livingston, Maskeroni, Olafsson va Xeddon²² 2010-yilda bolalarning o'rtacha 8 foizi kiberta'qibga uchraganligi hamda 2014-yilda bolalarning 12 foizi kiberta'qib qurbonlari bo'lganligini aniqladi.

Shuni ta'kidlash joizki, eng zaif guruhlardagi bolalar kiberta'qib qurbonlari bo'lishi ehtimoli ko'proq.

Diqqat markazida: tengsizlikning kuchayishi

2017-yilda Afrika mintaqasidagi bolalarning taxminan 60 foizi internetga kirish imkoniga ega bo'lmagan, Yevropada esa bu ko'rsatkich 4 foizni tashkil etgan. Dunyoning barcha mintaqalarida internetdan foydalanuvchi erkaklarning soni ayollar sonidan ko'proq hamda qizlarning internetdan foydalanishi ko'pincha nazorat qilinadi va cheklovlar qo'yiladi. Keng polosali aloqa dunyoning ulanmagan qismlariga kengayganligi sababli ushbu tengsizlikning sezilarli darajada ko'payishi kutilmoqda²³.

Kompyuterlardan ko'ra mobil telefonlardan foydalanadigan bolalar onlayn muhitda yaxshi tajribaga ega bo'lmassliklari mumkin. Mayda millat tillarida so'zlashuvchi bolalar ko'pincha internetda kerakli kontentni topa olmaydilar, qishloq joylardagi bolalar esa parol yoki mablag'lar o'g'irlanishiga ko'proq duch kelishadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, butun dunyo bo'ylab ko'plab o'smirlar onlayn hayotda ishtirok etishlari uchun muhim to'siqlarni yengib o'tishga majbur. Ularning aksariyati uchun internetga kirish muammolari - yomon aloqa, ulanish tariflari va qurilmalarning yuqori narxi, shuningdek tegishli uskunalarining yetishmasligi asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda hamyonbop keng polosali ulanishning keng tarqalishi bilan bolalar uchun xavf va tahdidlarni minimallashtirish, shuningdek ularga raqamli dunyoning barcha afzalliklaridan foydalanish imkoniyatini berish choralarini ko'rish zarurati tug'iladi.

Diqqat markazida: Bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq materiallar (CSAM)

Muammoning ko'lami

Internet CSAMni ishlab chiqarish, tarqatish va undan foydalanish qulayligining ko'lami va xususiyatini o'zgartirdi. 2018-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida joylashgan texnologik kompaniyalar butun dunyoda bolalarning shahvoniy suiiste'mollikka uchragan deb taxmin qilingan 45 milliondan ortiq bema'lol foydalanish mumkin bo'lgan onlayn tasvirlar va videolar mavjudligi haqida xabar qildi. Bu global tarmoq bo'lib, uni to'xtatishga qaratilgan sa'y-harakatlarga qaramay, bu suiiste'mollikning ko'lami va og'irligi ortib bormoqda.

²² Livingstone, S., Mascheroni, G., Ólafsson, K., and Haddon, L., (2014) *Children's online risks and opportunities: comparative findings from EU Kids Online and Net Children Go Mobile*. London: London School of Economics and Political Science, www.eukidsonline.net and <http://www.netchildrengomobile.eu/>.

²³ Broadband Commission, "Child Online Safety: Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online (2019)."

Tarixiy jihatdan, real dunyoda jinoyatchilar uchun CSAMni qidirish katta xavf va materiallardan foydalanish bilan bog'liq katta xarajatlarni o'z ichiga olgan. Internet yordamida jinoyatchilar ushbu materiallardan nisbatan endi osonlik bilan foydalanishlari va tobora xavfli harakat qilishlari mumkin. Videokameralar yanada ixcham bo'lib, ular hayotimizning har bir jabhasiga tobora ko'proq kirib bormoqda, bu esa CSAMni ishlab chiqarish va kontaktsiz suiiste'mollikdan kontent olish jarayonini har qachongidan ham osonlashtiradi.

Bu yashirin va noqonuniy faoliyatning aniq ko'lami yoki shaklini aniqlash imkoni yo'q. Biroq hozirda muomalada bo'lgan noqonuniy tasvirlar soni millionlab bo'lishi mumkin. Suratga olingan barcha bolalarning tasvirlari ko'paytirilgan. 2018-yilda IWF 2013-yilda qutqarilgan bolaning tasvirlari qanchalik tez-tez paydo bo'lishini kuzatdi. Uch oy ichida IWF tahlilchilari tasvirlarni 347-marta – ya'ni haftasiga 25-marta qayd qilishdi.

Ishlarning hozirgi holati

Har safar zo'ravonlikka uchragan bolaning surati internetda paydo bo'lganda yoki jinoyatchi tomonidan yuklanganda, bu bola yana qayta ekspluatatsiya qilinadi. Jabrlanuvchilar ushbu tasvirlarning butun umri davomida mavjudligi va tarqalishda davom etishi bilan yashashga majbur.

Bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik elementlari tasvirlangan material yoki shunga o'xshash materiallar joylashtirilgan veb-sahifa topilishi bilanoq, kontentni imkon qadar tezroq olib tashlash yoki bloklash muhimdir. Internetning global tizimi bu vazifani murakkablashtiradi: jinoyatchilar materialni bir mamlakatda ishlab chiqarishi va uchinchi davlatdagi iste'molchilar uchun boshqa mamlakatda joylashtirishi mumkin. Keng qamrovli xalqaro hamkorliksiz milliy orderlar yoki bildirishnomalarga muvofiq harakat qilish deyarli mumkin emas.

Raqamli dunyoda innovatsiyalar tezligi jinoyat faoliyat muhiti doimo o'zgarib turishini anglatadi. So'nggi paytlarda paydo bo'lgan asosiy tahdidlarga quyidagilar kiradi:

- Shifrlash darajasini oshirish g'araz niyatli shaxslarga yashirin kanallar orqali harakat qilish va materiallar bilan almashish imkonini beradi, shu bilan birga aniqlash va huquqni muhofaza qilish faoliyati murakkablashtirilgan.
- Bolalarni gruming qilishga bag'ishlangan forumlar Internetning yopiq burchaklarida mavjud, bunday faoliyatni normallashtiradi va rag'batlantiradi, ko'pincha ularga qo'shilish uchun "yangi kontent"ni yuklashni talab qiladi.
- Internetning tez tarqalishi foydalanuvchilarga keng qamrovli xavfsizlik strategiyasi yoki infratuzilmasi hali ishlab chiqilmagan/tatbiq etilmagan hududlarda tarmoqqa kirish imkonini beradi.
- Bolalar tobora yoshligidan qurilmalardan nazoratsiz foydalanmoqda, onlayn muhitda shahvoniy xatti-harakatlar normaga aylanmoqda. Shaxsan o'z qo'li bilan yaratilgan tasvirlarni suiiste'mol qilish holatlari yil sayin ortib bormoqda.

Diqqat markazida: Shaxsan o'z qo'li bilan yaratilgan kontent

Bolalar va o'smirlar obro'sizlantiruvchi tasvirlar yoki videolarni olishlari mumkin. Garchi bunday xatti-harakatning o'zi qonunga zid emas va normal, sog'lom jinsiy rivojlanish doirasida bo'lishi mumkin bo'lsa-da, har qanday shunga o'xshash kontent bolalarga zarar yetkazish uchun onlayn yoki real hayotda tarqatilishi yoki tovlamachilik uchun asos sifatida ishlatilishi mumkin. Ba'zi bolalar bosim yoki majburlash natijasida o'zlarining shahvoniy xarakterdagi tasvirlarini yuborishlari mumkin bo'lsa-da, boshqalari (xususan o'smirlar) shahvoniy kontentni osongina yaratishi mumkin. Bu ular ushbu tasvirlarni suiiste'mol qilish yoki ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanishga va/yoki tarqatishga rozi ekanliklarini yoki buning uchun javobgar ekanligini anglatmaydi.

Seksting "Shahvoniy xarakterdagi shaxsan o'z qo'li bilan yaratilgan tasvirlar"²⁴ yoki "shahvoniy xarakterdagi xabarlar yoki tasvirlar almashish" va "mobil telefonlar va/yoki Internet orqali yalang'och yoki yarim-yalang'och behayo tasvirlarni yaratish, almashish va tarqatish" deb ta'riflanadi²⁵. Seksting bu

²⁴ Karen Cooper et al., "Adolescents and Self-Taken Sexual Images: A Review of the Literature," *Computers in Human Behaviour* 55 (February 2016): 706–16, <https://doi.org/10.1016/j.chb.2015.10.003>.

²⁵ Jessica Ringrose et al., "A Qualitative Study of Children, Young People and 'Sexting': A Report Prepared for the NSPCC" (London, UK: National Society for the Prevention of Cruelty to Children, 2012), <http://doi.wiley.com/10.1046/j.1365-2206.1997.00037.x>.

shaxsan o'z qo'li bilan yaratilgan behayo shahvoniy mazmundagi kontentning ²⁶ bir shakli va amaliyot "kontekst, ma'no va niyat nuqtayi nazaridan juda xilma-xildir"²⁷.

Seksting, shubhasiz, bolalarning o'zlari tomonidan yaratilgan ochiq-oydin shahvoniy kontentning eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi va ko'pincha tajribadan zavq oladigan o'smirlarning roziligi bilan sodir bo'lsa-da, nomaqbul sekstingning ko'plab shakllari mavjud. Ushbu faoliyatning bola bilan aloqa o'rnatish, unga bosim o'tkazish yoki uni aldashga urinayotgan ma'lum bo'lgan yoki noma'lum shaxslardan nomaqbul ochiq fotosuratlar, videoyozuvlar yoki xabarlar bilan almashish yoki olish kabi rozilik elementi bo'lmagan jihatlari to'g'risida gap ketmoqda. Seksting shahvoniy xarakterdagi ta'qibning bir turi bo'lishi mumkin, bunda bolaga fotosuratni o'g'il bola do'sti/qiz bola do'sti yoki tengdoshiga yuborish uchun bosim o'tkaziladi, bular o'z navbatida ushbu fotosuratlarni bolaning rozilgisiz tengdoshlariga tarqatadilar.

Diqqat markazida: Kiberta'qib

Ta'qib hodisa sifatida internetdan ancha oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, onlayn muhitda sodir etilayotgan ta'qibning oshgan ko'lami va uzluksizligi qurbonlar uchun yomon va ko'pincha zararli tajribani yanada kuchaytirishi mumkin. Kiberta'qib kompyuterlar, mobil telefonlar va boshqa elektron qurilmalardan foydalanish orqali qasddan va takroriy yetkazilgan zarar sifatida tavsiflanadi. Bu ko'pincha maktabda yoki boshqa joylarda sodir bo'layotgan haqiqiy dunyo ta'qiblari bilan parallel ravishda sodir bo'ladi, u qo'shimcha irqiy, diniy yoki seksistik jihatlarga ega bo'lishi mumkin va onlayn muhitda yetkazilgan zararning davom etishini masalan, hisob qaydnomasiga (akkaunt)ni buzib kirish, fotosuratlar va videolarni tarmoqda tarqatish va haqoratli xabarlarining uzluksiz xarakteri va kontentning mavjudligini ifodalaydi. Odatda bu jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan ijtimoiy muammo bo'lib, kiberta'qib hodisasiga qarshi kurashish strategiyasi maktablar, oilalar va birinchi navbatda bolalarning o'zlarini qamrab oladigan yaxlit yondashuvni talab qiladi.

Diqqat markazida: onlayn muhitda gruming va jinsiy tovlamachilik

So'nggi yillarda kuzatilayotgan texnologiyalarning jadal rivojlanishi va Internet hamda raqamli aloqa vositalaridan foydalanishning kengayishi bilan internetda bolalarga qaratilgan jinoiy harakatlar sodir etish xavfi ortib bormoqda. Internetda bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilishning ushbu yangi shakllari orasida onlayn muhitda bolalarga nisbatan gruming va jinsiy tovlamachilikni ko'rsatish mumkin. Onlayn muhitda gruming keng ma'noda katta yoshdagi odamning bola (18 yoshgacha bo'lgan) bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish va shu bola bilan aloqa qilish yoki kontaktsiz jinsiy aloqada bo'lishini osonlashtirish uchun Internet yoki boshqa raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bolaga ta'sir o'tkazish jarayonini anglatadi. Gruming jarayonida buzg'unchi sirni saqlash va aniqlash hamda jazodan qochish uchun bolaning ko'rsatmalarni bajarishiga erishmoqchi bo'ladi²⁸. Tengdoshlar o'rtasida suiiste'mol qilish holatlari ham mavjudligini tan olish muhimdir.

Interpol ma'lumotlariga ko'ra, Internet juda ko'p potensial maqsadlarga ega bo'lganligi va grumerlar uchun bolaga o'zlarini jozibador ko'rinishda ko'rsatadigan imkoniyatlar bo'lganligi sababli grumingni osonlashtiradi. Onlayn muhitda bolalar jinsiy ekspluatatorlari to'sqinlik qiluvchi omillarni bartaraf etish va bolalarni jinsiy faoliyatga jalb qilish maqsadida manipulyatsiya, majburlash va yo'ldan og'dirish uchun foydalanadilar. Grumer zaif potensial jabrlanuvchini aniqlab, bolaning oilasidagi vaziyat haqida ma'lumot to'playdi va bolaga jinsiy ekspluatatsiya qilish maqsadida uyaltirish/qo'rqitish orqali bosim o'tkazadi. Grumerlar bolaning jinsiy faoliyatini tabiiy va normal holat deb ko'rsatish maqsadida kattalar pornografiyasi va bolalarga nisbatan zo'ravonlik va ularni ekspluatatsiya elementlaridan iborat kontentdan foydalanib, potensial qurbonlarning xatti-harakatlarini to'xtatuvchi omillarni yengib o'tishlari mumkin. Internet odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini o'zgartirdi va "do'st" tushunchasiga yangi ta'rif berdi. Grumer onlayn muhitda bola bilan juda oson va tez do'stlashishi mumkin, bu an'anaviy notanish odamlardan chiqadigan xavf to'g'risidagi an'anaviy ta'lim xabarlarini qayta ko'rib chiqishga majbur qiladi.

²⁶ UNODC, "Study on the Effects of New Information Technologies on the Abuse and Exploitation of Children" (Vienna: UN, 2015), https://www.unodc.org/documents/Cybercrime/Study_on_the_Effects.pdf.^[3] UNODC, Study on the Effects of New Information Technologies on the Abuse and Exploitation of Children, p.22.

²⁷ Cooper et al., "Adolescents and Self-Taken Sexual Images."

²⁸ International Centre for Missing & Exploited Children, "Online Grooming of Children for Sexual Purposes: Model Legislation & Global Review," 1st Edition (International Centre for Missing & Exploited Children, 2017), https://www.icmec.org/wp-content/uploads/2017/09/Online-Grooming-of-Children_FINAL_9-18-17.pdf.

Onlayn gruming birinchi marta 2007-yildagi xalqaro huquqiy hujjatda - **Yevropa Kengashining Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'molliklardan himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi** (Lansarot konvensiyasi)da rasman tan olingan. 23-moddada "shahvoniy maqsadlarda bolalarga nisbatan shilqimlik qilish" uchun jinoiy javobgarlik ko'zda tutilgan bo'lib, bu shahvoniy xarakterdagi jinoyat sodir etish maqsadida bola bilan uchrashishni qasddan taklifi borligini, so'ngra "bunday uchrashuvni o'tkazishga qaratilgan amaliy harakatlar"ni o'z ichiga oladi. Gruming holatlarining ko'pida bolalar onlayn muhitda shahvoniy suiiste'molliklar va jinsiy ekspluatatsiyaga duch keladi - Lansarot konvensiyasi va ko'plab milliy qonunlarda nazarda tutilgan "uchrashuv" to'liq virtual bo'lsada, bolaga real dunyoda uchrashganidek zarar yetkazadi. Gruming uchun jinoiy javobgarlik "jinsiy zo'rvonlik shaxsiy uchrashuv natijasi emas, balki onlayn muhitda sodir etilgan holatlarga" ham taalluqli bo'lishi juda muhimdir²⁹.

Jinsiy tovlamachilik³⁰ onlayn muhitda grumingning bir qismi sifatida yoki mustaqil jinoyat sifatida bo'lishi mumkin. Jinsiy tovlamachilik onlayn muhitda grumingdan alohida bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ba'zi hollarda onlayn muhitda gruming jinsiy tovlamachilikka olib kelishi mumkin³¹. Jinsiy tovlamachilik onlayn muhitda gruming kontekstida sodir bo'lishi mumkin, sabiba grumer bolani gruming qilish jarayonida unga tahdid qilishi, qo'rqitishi va o'zining shahvoniy xarakterdagi tasvirlarini (o'zi tomonidan yaratilgan kontent) yuborishga majburlash orqali manipulyatsiya qiladi va unga ta'sir o'tkazadi³². Agar jabrlanuvchi so'ralgan shahvoniy xizmatlar, qo'shimcha jinsiy tasvirlar, pullar yoki boshqa xizmatlarni taqdim etmasa, jabrlanuvchining tasvirlari bolani kamsitish, xavotir olish yoki bolani qo'shimcha shahvoniy kontentni yaratishga majburlash maqsadida internetga joylashtirilishi mumkin³³.

Jinsiy tovlamachilik jabrlanuvchilarga o'xshash hissiy va psixologik oqibatlar uchun "jinsiy xarakterdagi virtual jinsiy zo'rvonlik" deb tasniflanadi³⁴. Ba'zi hollarda, zo'rvonlik shunchalik jarohat yetkazishi mumkinki, jabrlanuvchilar suiiste'molliklardan qutulish uchun o'zlariga zarar yetkazishga yoki o'z joniga qasd qilishga urinishgan.

Yevropolning ta'kidlashicha, bolalarga tegishli jinsiy tovlamachilik ko'lamini baholash uchun axborot yig'ish juda murakkab masala va bu ko'lam juda past baholanishi mumkin³⁵. Bundan tashqari, onlayn muhitda gruming va jinsiy tovlamachilik uchun umumiy atamalar va ta'riflarning yo'qligi aniq ma'lumotlarni yig'ish va butun dunyoda muammolarning asl ko'lamini tushunishga to'sqinlik qiladi.

2.6 Zaif holatda bo'lgan bolalar

Bolalar va yoshlar turli sabablarga ko'ra zaif holatda bo'lishi mumkin. 2019-yilda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, "zaif holatdagi bolalarning raqamli muhitdagi hayoti kamdan-kam hollarda "real

²⁹ Lanzarote Committee, Committee of the Parties to the Council of Europe Convention on the protection of children against sexual exploitation and sexual abuse, *Solicitation of children for sexual purposes through information and communication technologies (grooming), Opinion on Article 23 of the Lanzarote Convention and its explanatory note*, Jun. 17, 2015, at <https://edoc.coe.int/en/children-s-rights/7064-lanzarote-committee-opinion-on-article-23-of-the-lanzarote-convention-and-its-explanatory-note.html> (last visited Nov. 6, 2019).

³⁰ National Center for Missing and Exploited Children (NCMEC), *Sextortion*, at <http://www.missingkids.com/theissues/onlineexploitation/sextortion> (last visited Nov. 6, 2019).

³¹ Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse, Interagency Working Group in Sexual Exploitation of Children, Luxembourg, Jan. 28, 2016, D.4iii, 27-28, at <http://luxembourgguidelines.org/english-version>.

³² Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse, Interagency Working Group in Sexual Exploitation of Children, Luxembourg, Jan. 28, 2016, D.4iii, 27-28, at <http://luxembourgguidelines.org/english-version>.

³³ Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse, Interagency Working Group in Sexual Exploitation of Children, Luxembourg, Jan. 28, 2016, D.4iii, 27-28, at <http://luxembourgguidelines.org/english-version>.

³⁴ Benjamin Wittes et al., "Sextortion: Cybersecurity, Teenagers, and Remote Sexual Assault" (Brookings Institution, May 11, 2016), <https://www.brookings.edu/wp-content/uploads/2016/05/sextortion1-1.pdf>.

³⁵ Europol, "Online Sexual Coercion and Extortion as a Form of Crime Affecting Children: Law Enforcement Perspective" (European Cybercrime Centre, May 2017), https://www.europol.europa.eu/sites/default/files/documents/online_sexual_coercion_and_extortion_a_s_a_form_of_crime_affecting_children.pdf.

hayot“ qiyinchiliklari kelib chiqadigan darajada ehtiyotkorlik bilan munosabat bilan kuzatilmaydi”. Bundan tashqari, hisobotda aytilishicha, “eng yaxshi holatda, ular [bolalar va yoshlar] maxsus yordamga muhtoj bo‘lishiga qaramay boshqa barcha bolalar va yoshlar kabi onlayn muhitda xavfsizlik bo‘yicha bir xil umumiy maslahatlarni olishadi”.

Bu yerda zaif holatdagi bolalarning uchta o‘ziga xos toifasi (migrant bolalar, autizm spektri buzilgan bolalar va nogiron bolalar) ko‘rib chiqiladi, ammo ularning soni ancha ko‘p.

Migrant bolalar

Migrant bolalar va yoshlar ko‘pincha bir mamlakatga ma‘lum ijtimoiy-madaniy tajriba va umidlar bilan keladilar (yoki u yerda allaqachon yashaydilar). Garchi texnologiyalarga odatda tarmoq va jamoatchilik ishtirokini ta‘minlovchi omil sifatida qaralsa ham, onlayn xavf va imkoniyatlar darajasi sharoitga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Bundan tashqari, empirik yo‘l bilan olingan ma‘lumotlar va amaliy tadqiqotlar umuman raqamli vositalarning muhim rolini ko‘rsatadi:

- Bu oriyentatsiya maqsadlarida (yangi mamlakatga ko‘chib o‘tishda) muhim ahamiyatga ega.
- Bu qabul qiluvchi mamlakatning jamiyati/madaniyatini o‘zlashtirish va tanishish uchun eng muhim vositadir.
- Ijtimoiy tarmoqlar oila va tengdoshlar bilan aloqada bo‘lish, shuningdek umumiy xarakterdagi ma‘lumotlarga foydalanishda asosiy vazifani bajarishi mumkin.

Ko‘plab ijobiy tomonlar bilan bir qatorda, raqamli vositalar migrantlar uchun ham qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Infratuzilma: migrant bolalar va yoshlar internetdan xavfsiz va konfidensial foydalanishlari uchun xavfsiz onlayn makonni yaratish haqida o‘ylash muhimdir.
- Resurslar: migrantlar pullarining katta qismini oldindan to‘langan telefon kartalariga sarflaydilar.
- Integratsiyalash: Texnologiyadan foydalanish bilan bir qatorda - migrant bolalar va yoshlar ham yaxshi raqamli ta‘lim zarur.

Autizm spektri buzilgan bolalar (ASB)

Autizm spektri DSM-5 xulq-atvor diagnostikasi tasnifining ikkita asosiy sohasini qamrab oladi:

- cheklangan va takrorlanuvchi xatti-harakatlar (“bir xillik ehtiyoji”);
- aloqa va muloqot qilishdagi qiyinchiliklar;
- aqliy zaiflik, til va shunga o‘xshash muammolar bilan birgalikda tez-tez uchraydigan holatlar.

Texnologiyalar va Internet bolalar va yoshlar uchun o‘rganish, muloqot qilish va o‘ynashda cheksiz imkoniyatlarni taqdim etadi. Biroq imtiyozlar bilan bir qatorda, ASD bilan kasallangan bolalar va yoshlarga ko‘proq ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan ko‘plab xavflar mavjud:

- Internet autizm bilan kasallangan bolalar va yoshlarga real hayotda bo‘lmagan ijtimoiylashuv imkoniyatlari va alohida qiziqishlari amalga oshirilishini berishi mumkin.
- Ijtimoiy xarakterdagi muammolar, masalan, boshqa odamlarning niyatlarini tushunishdagi qiyinchiliklar, bu guruh vakillarining yomon niyatli “do‘stlar” oldida zaif bo‘lishiga olib kelishi mumkin.
- Onlayn muhitda yuzaga keladigan muammolar ko‘pincha autizmning asosiy xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqadi: aniq va o‘ziga xos rahbariy ko‘rsatmalar ushbu shaxslarning onlayn muhitga moslashishiga yordam berishi mumkin, ammo ularning asosiy muammolari saqlanib qoladi.

Nogiron bolalar

Nogironligi bo‘lgan bolalar onlayn muhitda nogironligi bo‘lmagan bolalar kabi bir xil xavf-xatarlarga duch kelishadi, bundan tashqari ular nogironligi bilan bog‘liq o‘ziga xos xavflarga ham duch kelishlari mumkin. Nogiron bolalar ko‘pincha o‘z jamoalarida ishtirok etishlari uchun marginallashuv, tamg‘alash va to‘siqlarga (jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy, shuningdek, boshqalarning munosabati bilan bog‘liq) duch kelishadi. Bunday tajriba nogiron bolalarning onlayn muhitda ijtimoiy muloqot qilish va do‘stlar qidirishiga sabab bo‘lishi mumkin, bu esa ijobiy natija berishi, o‘z qadr-qimmatini oshirishi va qo‘llab-quvvatlash tarmoqlari yaratilishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, bu bolalar va yoshlarga nisbatan gruming, onlayn muhitda shahvoniy xatti-harakatlarga majburlash va/yoki shahvoniy shilqimlik kabi

harakatlar xavfini oshirishi mumkin. Tadqiqotlarga ko'ra, real dunyoda qiyinchiliklarga duch kelgan, shuningdek, psixologik muammolar bo'lgan bolalar va yoshlar uchun bunday noxush hodisalarning yuqori darajadagi xavfiga duch keladilar³⁶.

Umuman olganda, real dunyoda qurbon bo'lgan bolalar onlayn muhitda qurbon bo'lishlari mumkin. Bu shuni anglatadiki, nogiron bolalar internetga ko'proq ehtiyoj sezgilar ham ular onlayn muhitda ko'proq xavf ostida bo'lishadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogiron bolalar har qanday turdagi suiiste'molliklar³⁷, xususan, jinsiy qurbonlik qurbonlari bo'lish ehtimoli ko'proq³⁸. Qurbonlik ta'qib qilish, shilqimlik, chetlatish va bolada bor bo'lgan yoki taxmin qilingan nogironligiga yoki nogironlik bilan bog'liq jihatlarga, masalan, uning xatti-harakati yoki nutqiga, u foydalanadigan qurilmalar yoki xizmatlarga asoslangan kamsitishni o'z ichiga oladi.

Nogiron bolalarga nisbatan gruming, onlayn muhitda shahvoniy xatti-harakatlarga undash va/yoki jinsiy shilqimliklar kabi huquqbuzarliklarni sodir etganlar shaxslar nafaqat bolalarni, balki nogiron bolalarni ham nishonga olishlari mumkin. Bunday buzg'unchilarga "devoti" deb ataladigan odamlar – nogironlar (odatda oyoq-qo'li amputatsiya qilinganlar yoki harakatni osonlashtiradigan vositalar bilan harakatlanadigan shaxslar)ga nisbatan shahvoniy istakni his qilayotgan nogiron bo'lmagan shaxslar kiradi, ularning ba'zilarini o'zlarini nogiron qilib ko'rsatadilar³⁹. Bunday odamlar nogiron bolalar va yoshlarning foto va videolarini yuklash va/yoki ularni maxsus yaratiladigan forumlar va ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali tarqatishlari mumkin. Forumlar va ijtimoiy tarmoqlarda xabardor qilish mexanizmlari ko'pincha bunday harakatlarning oldini olish imkoniyatlarini ta'minlamaydi.

"Sharenting" (ingl. "sharenting" -ota-onalar tomonidan o'z farzandlarining ma'lumotlari va tasvirlarini Internetga joylashtirish) bolaning shaxsiy hayotga daxlsizlik huquqini buzishi, ta'qibga, noqulay vaziyatlar yuzaga kelishiga olib kelishi yoki kelajak hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin degan xavotirlar mavjud⁴⁰. Nogiron bolalarning ota-onalari ba'zida bunday axborot bilan yordam yoki maslahat olish maqsadida bo'lishishadi va bu nogiron bolalar salbiy oqibatlarining yanada yuqori xavfiga duch kelishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi nogiron bolalar onlayn platformalardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin yoki hatto dizayn (masalan, matn hajmini kattalashtirishga imkon bermaydigan ilovalar)dan foydalanish imkoni bo'lmaganda, maxsus imkoniyatlar bo'lmaganda (masalan, ekranni o'qish uchun dasturiy ta'minot yoki moslashtirilgan kompyuter boshqaruvi) yoki yordamga muhtojligi sababli onlayn muhitdan chetlashtirilishi mumkin (masalan, uskunadan foydalanishni o'rgatish, ijtimoiy o'zaro munosabatlarda yo'naltirishga yordam berish)⁴¹.

Shartnoma tuzish yoki shartlarni imzolash xavfiga kelsak, nogiron bolalar ba'zan kattalar ham tushuna olmaydigan yuridik shartlarni qabul qilish xavfi yuqori.

2.7 Bolalarning onlayn muhitdagi xavflarni idrok etishi

Bolalar butun dunyo bo'ylab zo'ravonlikka duch kelish, nomaqbul kontent, tovarlar va xizmatlardan foydalanish; mahsulotlardan haddan tashqari faol foydalanish bilan bog'liq xavotirlar; ma'lumotlarni

³⁶ Andrew Schrock et al., "Solicitation, Harassment, and Problematic Content," *Berkman Center for Internet & Society, Harvard University*, December 2008, 87, https://cyber.harvard.edu/sites/cyber.law.harvard.edu/files/ISTTF-LitReviewDraft_0.pdf.

³⁷ UNICEF, "State of the World's Children Report: Children with Disabilities," 2013, https://www.unicef.org/publications/files/SOWC2013_Exec_Summary_ENG_Lo_Res_24_Apr_2013.pdf.

³⁸ Katrin Mueller-Johnson, Manuel P. Eisner, and Ingrid Obsuth, "Sexual Victimization of Youth with a Physical Disability: An Examination of Prevalence Rates, and Risk and Protective Factors," *Journal of Interpersonal Violence* 29, no. 17 (November 2014): 3180–3206, <https://doi.org/10.1177/0886260514534529>.

³⁹ Richard L. Bruno, "Devotees, Pretenders and Wannabes: Two Cases of Factitious Disability Disorder," *Sexual and Disability* 15, no. 4 (1997): 18, <https://link.springer.com/content/pdf/10.1023/A:1024769330761.pdf>.

⁴⁰ UNICEF, "Child Privacy in the Age of Web 2.0 and 3.0: Challenges and Opportunities for Policy," Innocenti Discussion Paper 2017-03 (UNICEF, Office of Research-Innocenti), 2022-yil 16-yanvarda kiritilgan: https://www.unicef-irc.org/publications/pdf/Child_privacy_challenges_opportunities.pdf.

⁴¹ Ushbu huquqlar bo'yicha ko'rsatmalar kirish imkoniyati to'g'risida 9-moddada va so'z erkinligi va nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiya ma'lumotlariga kirish to'g'risida 21-moddada keltirilgan.

himoya qilish va shaxsiy hayot daxlsizligi masalalari kabi xavflarga e'tibor beradilar⁴².

O'smirlar raqamli texnologiyalar bilan o'zaro aloqalari bilan bog'liq bir qator muammolar haqida xabar berishadi. Bularga onlayn muhitda keng muhokama qilinadigan xavfsizlik muammolari kiradi, masalan, tarmoqdagi notanish odamlar bilan muloqot qilish, nomaqbul kontentga kirish yoki zararli dasturlar yoki viruslarga duch kelish qo'rquvi kabi keng tarqalgan onlayn xavfsizlik masalalari kiradi, ayni damda boshqa muammolar ularning texnologiyalardan foydalanish ishonchligi bilan bog'liq: ota-onalar bolalarning Internetdagi "shaxsiy" hayotiga aralashuvi; ularning raqamli savodxonlik qobiliyatlari⁴³.

EU Kids Onlinet tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pornografiya va zo'rvonlikni o'z ichiga olgan kontent Yevropada onlayn muhitdagi bolalarning eng asosiy muammosi hisoblanadi. Umuman olganda, o'g'il bolalarni ko'proq zo'rvonlik tashvishga soladi, qiz bolalar esa aloqalar bilan bog'liq xavflardan ko'proq tashvishlanadilar⁴⁴. "Faol foydalanish, xavfning yuqori darajasi" bo'lgan mamlakatlardagi bolalar orasida xavf xavotirlari yuqori hisoblanadi.

Lotin Amerikasida bolalar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlar shuni ko'rsatdiki, shaxsiy hayot daxlsizligini yo'qotish, zo'rvonlik va shilqimlik qilish xavotirga soladigan asosiy muammolar ekan⁴⁵. Bolalar o'zlari tanimaydigan odamlar ular bilan bog'langani haqida xabar berishadi – onlayn o'yinlarda bu ayniqsa dolzarb. Bunday vaziyatlarda asosiy strategiya notanish odamga javob bermaslik va/yoki aloqani blokirovka qilish. Qizlar ilk yoshligidanoq ijtimoiy tarmoqlarda shilqimliklarga duch kelishadi. Ular foydalanuvchilarni bloklash va konfidensiallik sozlamalarini o'zgartirish orqali ushbu zo'rvonlik shakllarini mustaqil ravishda o'z yo'lini topishga muvaffaq bo'lishadi. Shilqimliklar ba'zan ispan tilini bilmaydigan, lekin ularga tasvirlarni yuborishga, ularni do'stlari qatoriga qo'shish va ularning xabarlariga sharh qoldirishni so'raydigan foydalanuvchilardan keladi. Ba'zi o'g'il bolalar ham bunday so'rovlarni olganliklari haqida xabar berishadi.

Dunyoning ko'p joylarida bolalar internetda duch keladigan ba'zi xavflarni yaxshi tushunadilar⁴⁶. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aksariyat bolalar kiberta'qibni onlayn muhitda hazil va masxara qilishdan ajrata oladilar, ular kiberta'qib ijtimoiy o'lchovgaga ega ekanligi va zarar yetkazishga qaratilgan⁴⁷.

⁴² Amanda Third et al., "Children's Rights in the Digital Age" (Melbourne: Oung and Well Cooperative Research Centre, September 2014), http://www.uws.edu.au/__data/assets/pdf_file/0003/753447/Childrens-rights-in-the-digital-age.pdf.

⁴³ Amanda Third et al., "Young and Online: Children's Perspectives on Life in the Digital Age," The State of the World's Children 2017 Companion Report (Sydney: Western Sydney University, 2017). The report summarized the views of 490 children aged 10–18, from 26 different countries speaking 24 official languages.

⁴⁴ Livingstone, S. (2014) *EU Kids Online: Findings, methods, recommendations*. LSE, London: EU Kids Online, <https://lisedesignunit.com/EUKidsOnline/>.

⁴⁵ Contactados al Sur network, "Hablatam."

⁴⁶ 2016-yildan beri XTI bolalar va kattalar manfaatdor tomonlari bilan kiberbulling, raqamli savodxonlik va bolalarning onlayn faoliyati kabi masalalarni qamrab oluvchi COP bo'yicha maslahatlashuvlarni o'tkazib kelmoqda.

⁴⁷ UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)."

3 Onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha milliy strategiyasini tayyorlash

Bolalar va yoshlarning onlayn muhitdagi xavfsizligini ta'minlashga ko'maklashish uchun onlayn muhitda bolani himoya qilish milliy strategiyasini ishlab chiqishda milliy hukumatlar va ko'rsatma beruvchi organlar ilg'or tajribalarni aniqlashlari va asosiy manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishlari kerak.

Quyidagi bo'limlarda odatdagi ishtirokchilar va manfaatdor tomonlar, shuningdek, ularning onlayn muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha potensial roli va mumkin bo'lgan majburiyatlari tavsifi keltirilgan.

3.1 Ishtirokchilar va manfaatdor tomonlar

Ko'rsatma beruvchi organlar ushbu tuzilmalar va manfaatdor tomonlarning har birini o'z vakolatlari doirasida vakillik qilish uchun tegishli shaxslar, guruhlar va tashkilotlarni aniqlashlari mumkin. Onlayn muhitda bolani himoya qilish strategiyalari doirasida milliy darajadagi faoliyatni muvofiqlashtirish va tashkil etish uchun kundalik, rejalashtirilgan va potensial tadbirlarni baholash muhim hisoblanadi.

Bolalar va yoshlar

Butun dunyoda bolalar va yoshlar yangi texnologiyalarga juda oson moslasha olishlari va ulardan foydalana olishlarini ko'rsatdilar. Internetning maktablar uchun ahamiyati ortib bormoqda va u bolalar o'ynashi, ishlashi va muloqot qilishi mumkin bo'lgan joyga aylanib bormoqda.

“ChildFund” alyansining so'nggi hisobotiga ko'ra, so'rovda qatnashgan bolalarning atigi 18,1 foizi, ko'rsatma beruvchi organlar ularni himoya qilish uchun harakat qiladi, deb hisoblashadi. Ko'rsatma beruvchi organlar bu borada bolalar bilan o'zaro muloqotda bo'lishlari, ularni tinglash huquqini e'tirof etishlari muhim (BHKning 12-moddasi).

Bolalarni himoya qilish uchun ko'rsatma beruvchi organlar barcha huquqiy hujjatlarda “bola” tushunchasining ta'rifini standartlashtirishlari kerak. Bola deganda 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs tushunilishi kerak. Bu BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasining (BMT BHK) 1-moddasiga to'g'ri keladi, unda “bola deganda 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs tushuniladi”. Kompaniyalarga 18 yoshga to'lmagan, ammo ma'lumotlarni qayta ishlashga ruxsat berish uchun yuridik jihatdan yetarli yoshga to'lgan har qanday shaxsga kattalar sifatida munosabatda bo'lishiga yo'l qo'yilmaslik kerak. Bunday ta'rif bolaning rivojlanish bosqichlari to'g'risida hech qanday dalil bilan tasdiqlanmagan. Bu bolalar huquqlariga putur yetkazadi va ularning xavfsizligiga tahdid soladi.

Shu bilan birga ko'pchilik bolalar texnologiyadan ishonch bilan foydalanayotgandek ko'rinsada, ko'pchilik internetda o'zini xavfsiz⁴⁸ his qilmaydi va Internetga nisbatan bir qancha xavotirlari mavjud⁴⁹.

Bolalar va yoshlarning dunyoda mavjud bo'lish tajribasining yetishmasligi ularni turli xil xavf-xatarlarga duchor qilishi mumkin. Ular yordam va himoya so'rash huquqiga ega. Shuni ham yodda tutish kerakki, barcha bolalar va yoshlar ham Internet yoki yangi texnologiyalardan bir xil darajada foydalanmaydi. Jismoniy yoki boshqa nogironligi sababli alohida ehtiyojlarga ega bo'lgan ba'zi bolalar onlayn muhitda zaif bo'lishlari mumkin va qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishadi.

Sharhlar doimiy ravishda kattalarning bolalar va yoshlar tarmoqda nima qilayotganlari to'g'risidagi fikri va aslida u yerda nima sodir bo'layotgani umuman mos kelmasligi mumkinligini ko'rsatadi⁵⁰. So'rovda qatnashgan bolalarning yarmi o'z mamlakatidagi kattalar bolalarni qiziqtirgan masalalar bo'yicha ularning fikrini e'tiborga olmasliklarini aytishgan. Shu sababli ushbu sohadagi siyosatni ishlab chiqish uchun milliy darajada qanday choralar ko'rilishidan qat'i nazar, barcha bolalar va yoshlarning fikrlarini eshitilishiga imkon beradigan tegishli mexanizmlarni topish va ularning texnologiyalardan foydalanish bo'yicha aniq tajribalarini hisobga olish muhimdir.

Ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar

Ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar bolalar bilan eng ko'p vaqtni o'tkazadilar. Ular onlayn muhitni

⁴⁸ ChildFund Alliance, “VIOLENCE AGAINST CHILDREN AS EXPLAINED BY CHILDREN,” Save Voices Big Dreams, 2019, https://childfundalliance.org/zdocs/a9357061-749f-4ebf-a1e9-b1aee81cb216/SVBD-THE_REPORT-digital.pdf.

⁴⁹ Council of Europe, “It's Our World: Children's Views on How to Protect Their Rights in the Digital World,” Report on child consultations (Council of Europe, Children's Right Division, October 2017), <https://rm.coe.int/it-s-our-world-children-s-views-on-how-to-protect-their-rights-in-the-/1680765dff>.

⁵⁰ ChildFund Alliance, “Violence against children as explained by children.”

tushunish va bolalarni himoya qilish va o'zlarini qanday himoya qilishni o'rgatish uchun raqamli savodxonlik bo'yicha ta'lim olgan bo'lishlari kerak.

Ta'lim muassasalari maktabda, uyda yoki qanday joy bo'lishidan qat'i nazar Internetdan foydalanayotgan bolalarga, internetda qanday qilib xavfsiz bo'lishni o'rgatish uchun alohida javobgardir, ko'rsatma beruvchi organlar esa milliy o'quv dasturlariga raqamli savodxonlik masalalarini eng ilk yoshdan (3 yoshdan 18 yoshgacha) kiritishlari kerak. Bu bolalarga o'zlarini himoya qilish, o'z huquqlarini bilish va demak internetdan bilim olishga yordam beradigan vosita sifatida foydalanish imkoniyatini beradi⁵¹.

Ko'rsatma beruvchi organlar shuni yodda tutishlari kerakki, ota-onalar va vasiylar deyarli har doim o'z farzandlari uchun birinchi, oxirgi va eng yaxshi mudofaa va qo'llab-quvvatlash liniyasi bo'lib qoladilar. Biroq Internet haqida gap ketganda, ular o'zlarini biroz ishonchsiz his qilishlari mumkin. Shunga qaramay, maktablar yangi texnologiyalar yaratayotgan xavf va ko'plab imkoniyatlardan xabardor bo'lishlari uchun ota-onalar hamda vasiylar bilan bog'lanishning muhim aloqa kanali bo'lib qolishi mumkin. Biroq maktab ota-onalar va vasiylar uchun yagona xabardor qilish kanali bo'lmasligi kerak. Ota-onalar va vasiylar bilan aloqaga chiqish imkoniyatini maksimal darajada oshirish uchun ko'plab turli xil kanallardan foydalanish muhimdir. Tarmoq kompaniyalari bu yerda o'z foydalanuvchilari yoki mijozlarini qo'llab-quvvatlash orqali muhim o'rin egallaydi. Ota-onalar va vasiylar o'z farzandlarining onlayn muhitdagi faoliyatini va undan foydalanishi, bola bilan o'zini to'g'ri tutishi va texnologiyalardan foydalanishi haqida suhbatlashishlari hamda bolaning onlayn muhitda nima qilayotganini tushunishlari mumkin, shunda oilaviy suhbat onlayn muhit va real dunyo tajribasini o'zida birlashtiradi.

Ota-onalar va vasiylar o'z farzandlariga qurilmalardan qanday foydalanish va Internetda o'zini to'g'ri tutish bo'yicha ham yaxshi o'rnatish bo'lishlari kerak.

Ko'rsatma beruvchi organlar ota-onalar va vasiylar o'z farzandlarini onlayn muhitda himoya qilish bo'yicha ularning fikrlari, tajribasi va tushunchalarini berishi uchun maslahatlashishlari kerakligi to'g'risida esda tutishlari kerak.

Va nihoyat, ko'rsatma beruvchi organlar boshqa davlat muassasalari bilan birgalikda jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini ishlab chiqishlari mumkin, shu jumladan ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar uchun. Jamoat kutubxonalari, tibbiyot markazlari, hatto savdo markazlari va boshqa yirik chakana savdo markazlari elektron xavfsizlik va raqamli ko'nikmalar to'g'risidagi axborot taqdimotini o'tkazish uchun qulay joylarni taqdim etishi mumkin. Ushbu vazifani amalga oshirishda hukumatlar berilayotgan maslahatlarning betarafligini ta'minlashi, har qanday shaxsiy manfaatlardan xoli bo'lishini ta'minlashi, shuningdek raqamli makon doirasida keng ko'lamliligi masalalarni qamrab olishi kerak

Tarmoq kompaniyalari

Tarmoq kompaniyalari ekotizimning asosiy manfaatdor tomonlaridan biri hisoblanadi, chunki ular huquqiy bazani rivojlantirish uchun ko'rsatma beruvchi organlar e'tiborga olishlari va tushunishlari kerak bo'lgan texnologik bilimlarga ega. Shu tariqa aslida, ko'rsatma beruvchi organlar onlayn muhitda bolani himoya qilish to'g'risidagi qonunlarni ishlab chiqish jarayoniga tarmoq kompaniyalarini jalb qiladilar.

Bundan tashqari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda tarmoq kompaniyalarini loyihalash bosqichida xavfsizlikni ta'minlash vazifalarini hisobga olishga asoslangan yondashuvlarni joriy qilishga undash muhimdir. Shubhasiz, yangi texnologik mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqaradigan yoki taqdim etadigan kompaniyalar o'z foydalanuvchilariga ular qanday ishlashini va ulardan qanday qilib xavfsiz va to'g'ri foydalanishni tushunishga yordam berishlari kerak.

Tarmoq kompaniyalari, shuningdek, bolalar va ularning ota-onalari yoki vasiylari, shuningdek, butun jamiyat uchun xavfsizlik bo'yicha va onlayn muhitda harakatlar dasturi haqida xabardorlikni oshirishga yordam berish uchun asosiy mas'uliyatga ega. Ushbu ishda ishtirok etish orqali tarmoqning manfaatdor tomonlari boshqa manfaatdor tomonlarning tashvishlariga sabab bo'layotgan muammolar, shuningdek, oxirgi foydalanuvchilar duch keladigan xavf va zararlarni haqida ko'proq bilib oladilar. Bunday bilimlarga ega bo'lib **tarmoq kompaniyalari** mavjud mahsulot va xizmatlarni tuzatishi va ishlab chiqish bosqichida xavflarni aniqlashlari mumkin.

Sun'iy intellekt sohasidagi so'nggi yutuqlar tarmoq kompaniyalari uchun foydalanuvchini identifikatsiyalash va bolalarni onlayn muhitda konstruktiv xatti-harakatlar uchun qulay muhit bilan

⁵¹ UNICEF, "Policy Guide on Children and Digital Connectivity" (Policy Lab, Data, Research and Policy, United Nations Children's Fund, June 2018), <https://www.unicef.org/esa/media/3141/file/PolicyLab-Guide-DigitalConnectivity-Nov.6.18-lowres.pdf>.

ta'minlash uchun yanada ishonchli nazorat va muvozanat tizimini yaratish imkoniyatini shakllantiradi. Bu yutuqlar ham bolalar uchun yangi xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Bir qator mamlakatlarda Internet o'zini o'zi boshqarish yoki birgalikda tartibga solish paradigmasi doirasida boshqariladi. Shunga qaramay ba'zi mamlakatlar normativ-huquqiy bazani, shu jumladan platformalardan yoki xizmatlardan bolalarga zarar yetkazilishini aniqlash, bloklash va/yoki yo'q qilish, shuningdek shikoyat mexanizmlarini taqdim etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompaniyalarning majburiyatlarini ko'rib chiqishmoqda yoki joriy qildilar.

Akademik hamjamiyat va nodavlat tashkilotlari

Universitetlar va akademik hamjamiyatida internetning ijtimoiy va texnik ta'siriga professional ravishda qiziqqan va bu sohada juda keng bilimga ega bo'lgan bir qator olimlar va tadqiqotchilar bo'lishi mumkin. Ular milliy hukumatlar va ko'rsatma beruvchi organlarga aniq faktlar va yaxshi dalillarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishda yordam berish nuqtayi nazaridan juda qimmatli resurs hisoblanadi. Shuningdek, ular, ba'zida juda qisqa muddatli va foyda olishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan biznes manfaatlariga qarshi intellektual muvozanat vazifasini bajarishi mumkin.

Xuddi shunday tarzda, nodavlat tashkilotlari (NDT) hamjamiyatida bolalar, ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilarga onlayn muhitda xavfsizlik kun tartibini targ'ib qilishda va umuman olganda, jamoat manfaatlarini himoya qilishda yordam berish yoki xizmatlar ko'rsatishda bebaho resurs bo'lishi mumkin bo'lgan ekspert bilimlari va axborotning bir qator tashuvchilari mavjud.

Huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari

Bunday ajoyib texnologiya jinoiy va g'ayriijtimoiy unsurlar e'tiborini o'ziga tortgani juda achinarli. Internet CSAM va tarmoqdagi boshqa zarar manbalari hajmi sezilarli darajada oshirdi. Shahvoniy yirtqichlar bolalar bilan birinchi aloqa o'rnatish uchun internetdan foydalanadilar, ularni onlayn muhitda ham, real dunyoda ham juda zararli aloqada bo'lish shakllariga tortadilar. Quvg'in qilish va ta'qibning boshqa shakllari bolalar hayotiga katta zarar yetkazishi mumkin va Internet buni amalga oshirishning yangi yo'lini taqdim etdi.

Shu sabablarga ko'ra, huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari bolalar va yoshlar uchun Internetni xavfsizroq qilishga yordam beradigan har qanday umumiy strategiya bilan to'liq shug'ullanishi muhimdir. Huquq-tartibot organlarining xodimlari bolalar va yoshlarga qarshi Internet bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tergov olib borish uchun tegishli tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Ular kompyuter yoki tarmoqdan olingan ma'lumotlarni kam vaqt ichida ajratib olish va talqin qilishlari uchun tegishli darajadagi texnik bilimlarga va kriminalistika vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

Bundan tashqari, huquq-tartibot organlari bolalar va yoshlarga yoki jamiyatning har qanday fuqarolariga onlayn muhitda bola yoki o'smirning xavfsizligi bilan bog'liq har qanday baxsiz hodisalar yoki tashvishlar haqida xabar berishga imkon beradigan aniq mexanizmlarni shakllantirishi juda muhimdir. Masalan, ko'plab mamlakatlarda CSAM to'g'risidagi xabarlar uzatishni osonlashtirish uchun "qaynoq liniyalar" tashkil etilgan va boshqa turdagi muammolar, masalan, ta'qib to'g'risidagi xabarlar uzatilishini osonlashtirish uchun shunga o'xshash maxsus mexanizmlar mavjud. Ko'rsatma beruvchi organlar Internet Ishonch Telefonlari Xalqaro Assotsiatsiyasi (INHOPE) bilan hamkorlik qilib, ularga CSAM to'g'risidagi hisobotlarni baholash va qayta ishlashlarini qo'llab-quvvatlashlari va INHOPE yordamidan butun dunyo bo'ylab "qaynoq liniya" yo'q bo'lgan tashkilotlarga ushbu "qaynoq liniya"ni o'rnatishda yordam berishlari kerak. Ko'rsatma beruvchi organlar huquq-tartibot organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida ochiq aloqa o'rnatuvchi kanallar bo'lishini ta'minlashi kerak. Huquq-tartibot organlari milliy chegaralarda qo'lga kiritilgan CSAM uchun asosiy manba hisoblanadi. Mahalliy qurbonlarni aniqlash mumkinmi yoki yo'qligini aniqlash uchun ushbu materiallarni o'rganish jarayonini tashkil qilish kerak. Agar buning iloji bo'lmasa, ICSE ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun materiallar Interpolga yuborilishi kerak. Bu global miqyosdagi tahdid bo'lganligi sababli, ko'rsatma beruvchi organlar butun dunyo bo'ylab huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasida xalqaro hamkorlikni ta'minlashlari kerak. Bu rasmiy jarayonlar vaqtini qisqartiradi va agentlarga tezroq harakat qilish imkonini beradi.

Ijtimoiy xizmatlar

Bolalar yoki yoshlar onlayn muhitda zararli ta'sirlarni boshdan kechirgan yoki suiiste'molliklarga duch kelgan joyda, masalan, agar ularning nomaqbul yoki noqonuniy tasvirlari tarmoqqa joylashtirilgan bo'lsa, ular ixtisoslashtirilgan va uzoq muddatli yordam yoki maslahatga muhtoj bo'lishi mumkin. Shuningdek, huquqbuzarlar, xususan, onlayn muhit yoki real hayotda zo'ravonlik qurboni bo'lishi mumkin bo'lgan voyaga yetmagan huquqbuzarlar uchun keng qamrovli psixologik yordam va tiklash usullariga ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Ijtimoiy xizmatlarda ishlaydigan mutaxassislar bunday yordamni ko'rsatish uchun

tegishli tarzda o'qitilishi kerak. Qo'llab-quvvatlash onlayn rejimda va oddiy usullarda taqdim etilishi kerak.

Sog'liqni saqlash xizmatlari

Bolaga nisbatan har qanday zo'ravonlik holatidan keyin zarur bo'lgan tibbiy xizmat milliy darajada tibbiy xizmat ko'rsatish asosiy rejasiga kiritilishi kerak. Tibbiyot muassasalari zo'ravonlik holatlari to'g'risida majburiy tartibda xabar berishlari kerak. Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari bu borada bolalarga yordam berish imkoniyatiga ega bo'lishlari uchun yetarli darajada jihozlangan va xabardor bo'lishlari kerak. Sog'liqni saqlash xizmatlari bolalarning ruhiy salomatligi va tinchligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Hukumat muassasalari

Onlayn muhitda bolalarni himoya qilish siyosati bir qator hukumat vazirliklarining ixtiyorida bo'ladi va har qanday milliy strategiya va harakatlar rejasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun barcha vazirliklarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ichki ishlar vazirligi;
- sog'liqni saqlash vazirligi;
- ta'lim vazirligi;
- adliya vazirligi;
- raqamli rivojlanish/axborot vazirligi;
- nazorat qiluvchi organlar.

Nazorat qiluvchi organlar hukumat muassasalari bilan hamkorlikda nazorat va hisobga olish vazifalarini amalga oshirish uchun eng yaxshi imkoniyatlarga ega. Bu yerga ommaviy axborot vositalari va ma'lumotlarni muhofaza qilishni tartibga soluvchi organlar kirishi mumkin.

Keng polosali, mobil va Wi-Fi tarmoqlari operatorlari

Operatorlar o'z tarmog'idagi noqonuniy kontentni aniqlashi, bloklashi va u haqda xabar berishi, shuningdek, oilalar va ota-onalar farzandlarining Internetdan foydalanishini boshqarish usulini tanlash uchun vositalar, xizmatlar va konfiguratsiyalarni taqdim etishi mumkin. Xizmatlarni yetkazib beruvchilar fuqarolik erkinliklari va shaxsiy hayot daxlsizligiga rioya qilinishini teng darajada teng darajada ta'minlashi muhim.

Bola huquqlari

Bolalar huquqlarini himoya qiluvchi mustaqil tashkilotlar internetda bolalarni himoya qilishda hal qiluvchi o'rin egallashlari mumkin. Ularning vakolatlari turlicha bo'lishiga qaramay, bunday muassasalar odatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- bola huquqlarini himoya qilishga qonunchilik, siyosat va huquqni qo'llashning ta'sirini nazorat qilish;
- inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy darajada amalga oshirishga ko'maklashish;
- bola huquqlarining buzilish holatlarini tekshirish;
- sudlarda bola huquqlari sohasidagi ekspert bilimlarini taqdim etish;
- bolalarning inson huquqlariga taalluqli masalalar bo'yicha fikrlari tinglanishini, shu jumladan tegishli qonunlar va siyosatlar ishlab chiqilishini ta'minlash;
- jamoatchilikning bola huquqlarini tushunishi va xabardorligini oshirish; va
- inson huquqlari sohasida mutaxassislarni tayyorlash va o'qitish bo'yicha tashabbus ko'rsatish.

Bolalar bilan to'g'ridan-to'g'ri maslahatlashish muhim hisoblanadi, chunki bu ularning BMT BHKning 12-moddasida ko'rsatilgan huquqidir. Bolalar uchun mustaqil inson huquqlarini himoya qilish muassasalarining maslahat, tergov, axborot va ta'lim funksiyalari onlayn muhitdagi zararlarning oldini olish va ularga qarshi harakat qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli bunday muassasalar onlayn muhitda bolalarni himoya qilishni tartibga soluvchi huquqiy, me'yoriy va siyosiy asoslarni mustahkamlashga, jumladan, bolalar bilan bevosita maslahatlashishga qaratilgan keng qamrovli, huquqqa asoslangan yondashuvni ishlab chiqishda faol ishtirok etishlari kerak, chunki bu ularning BMT BHKning 12-moddasida ko'rsatilgan huquqidir.

So'nggi paytlarda, shuningdek, onlayn muhitda bolalar huquqlarini qo'llab-quvvatlash, jumladan, ularni

zo'rvonlik yoki zarar manbalaridan himoya qilish bo'yicha muayyan vakolatga ega bo'lgan davlat muassasalarini tashkil etilganligi yoki ularni yaratish imkoniyatlari ko'rib chiqilganligi misollari ham mavjud. Bunday muassasalar mavjud bo'lgan joyda ular milliy darajada onlayn muhitda bolalarning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan sa'y-harakatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak.

3.2 Onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha mavjud javob choralarini

Butun dunyo bo'ylab bolalar hayotida AKTning ortib borayotgan ahamiyati va jamiyatimizning eng kichik a'zolariga xos bo'lgan xavf-xatarlarni hisobga olgan holda milliy va xalqaro miqyosda harakat qilish uchun bir qator tashabbuslar ishlab chiqilgan.

Milliy modellar

Milliy miqyosda bolani onlayn muhitda himoya qilishning keng qamrovli asoslarini qamrab oluvchi bir nechta qonunchilik tashabbuslarini ajratib ko'rsatish kerak. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Audiovizual media-xizmatlar to'g'risidagi direktiva (AVMSD) (2018-yilda ko'rib chiqilgan, Yevropa Ittifoqi);
- Ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglament (GDPR) (2018, Yevropa Ittifoqi).

A'zo-davlatlarning tarmoqdagi bolalarning xavfsizligi va tinchligiga tahdidlarga javob tariqasida normativ-huquqiy va institutsional hujjatlarida innovatsion yechimlar mavjud. Onlayn muhitda bolalar duch keladigan CSAM, kiberta'qib va boshqa zarar manbalariga qarshi harakat qilish yagona usuli yo'q, ammo shuni ta'kidlash kerakki, so'nggi bir necha yil ichida yangi yondashuvlar sinab ko'rilgan.

Yoshni hisobga olgan holda loyihalashtirish kodeksi (2019-yil, Buyuk Britaniya)

2019-yil boshida Axborot komissarining boshqarmasi onlayn muhitda bolalarni himoya qilishni yanada kuchaytirish uchun o'zining "Yoshni hisobga olgan holda loyihalashtirish kodeksi" bo'yicha takliflarni e'lon qildi. Taklif etilayotgan kodeks BMT BHKda belgilanganidek, bolaning qiziqishlariga qaratilgan bo'lib, tarmoq kompaniyalaridan kutilayotgan bir qator natijalar bayon qilinadi. Bularga yoshni tekshirish bo'yicha ishonchli choralar, bolalar uchun joylashgan joyni aniqlash standart xizmatini o'chirib qo'yish, kompaniyalar tomonidan bolalar shaxsiy ma'lumotlarining minimal hajmini yig'ish va saqlash, mahsulotlarning puxta o'ylangan xavfsizligi, foydalanish imkoniyati va tushuntirishlarning yoshga mosligi kiradi.

Zarar keltiruvchi raqamli aloqa to'g'risidagi qonun (2017-yilda ko'rib chiqilgan, Yangi Zelandiya)

2015-yilgi qonunda AKTni suiiste'mol qilish uchun jinoiy javobgarlik kiritilgan; asosiy e'tibor kiberta'qibdan tortib qasos olish maqsadida pornografik mazmundagi materiallarni tarqatishgacha bo'lgan turli xil yetkaziladigan zarar turlariga e'tibor qaratilgan. Qonun zarar keltiruvchi raqamli muloqotni cheklash, oldini olish va kamaytirishga qaratilgan bo'lib, boshqa birovga jiddiy emotsional iztiroblar yetkazish maqsadida raqamli xabarni joylashtirishni taqiqlaydi hamda 10 ta muloqot tamoyilini belgilaydi. Bu foydalanuvchilarga, agar ushbu tamoyillar buziladigan bo'lsa, mustaqil tashkilotga shikoyat qilish yoki agar masala hal etilmasa, muallif yoki xabar yuborgan tuzilmaga nisbatan qonuniy choralar ko'rish huquqini beradi.

Elektron xavfsizlik bo'yicha komissariat (2015-yil, Avstraliya)

Elektron xavfsizlik bo'yicha komissariat (eSafety) - bu onlayn muhitda xavfsizlikka ixtisoslashgan dunyodagi birinchi hukumat muassasasi hisoblanadi. 2015-yilda ta'sis etilgan ushbu muassasa barcha Avstraliya fuqarolarini xavfsizligi va ularning imkoniyatlarini kengaytiradigan tarmoq tajribaga ega bo'lishini ta'minlash uchun onlayn muhitda xavfsizlikni boshqarish, muvofiqlashtirish, o'qitish va maslahat berish bo'yicha qonuniy mustahkamlangan funksiyalarga ega. eSafety zararining katta manbalariga, jumladan, bolalarga nisbatan jiddiy kiberta'qib, tasvirlar va taqiqlangan kontentdan foydalanib shafqatsiz muomala qilishga doir tegishli tadqiqotlarni o'tkazadi. Ushbu muassasa tekshiruv o'tkazish va bunday zararga oid shikoyatlar yoki xabarlarni ko'rib chiqish uchun choralar ko'rish huquqi, jumladan, ba'zi hollarda materiallarni olib tashlash uchun jismoniy shaxslarga va onlayn xizmatlarga xabarnoma yuborish vakolatiga ega. O'zining tekshiruv vakolatlari bilan bir qatorda, eSafety ijtimoiy, madaniy va texnologik tashabbuslar va harakatlarga asoslangan kompleks yondashuvni qo'llaydi. Uning profilaktika qilish va himoya qilish bo'yicha sa'y-harakatlari va faol yondashuvi onlayn muhitda xavfsizlik masalasini har tomonlama hal qilishni ta'minlaydi.

Xalqaro modellar

Xalqaro va transmilliy darajada turli manfaatdor tomonlar tomonidan tavsiyalar va standartlar chiqilgan.

Ushbu rahbariy ko'rsatmalar quyida keltirilgan harakatlar doirasida bajarilgan ishlar natijalariga asoslanadi:

[Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga tegishli Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga Qo'shimcha bayonnomani](#) amalga oshirish bo'yicha rahbariy ko'rsatmalar.

Raqamli muhitda bola huquqlarini hurmat qilish, himoya qilish va amalga oshirish bo'yicha Yevropa Kengashining rahbariy ko'rsatmalari⁵².

Rahbariy ko'rsatmalar Yevropa Kengashining barcha a'zo-davlatlari uchun mo'ljallangan bo'lib, raqamli muhitda bolalar huquqlarining to'liq spektriga maksimal darajada rioya qilishga kompleks strategik yondashuvni qabul qilish bo'yicha a'zo-davlatlar va boshqa manfaatdor tomonlarga yordam berish uchun mo'ljallangan. Ko'rib chiqilayotgan ko'plab mavzular orasida - shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, bolalarning ehtiyojlari va rivojlanayotgan qobiliyatlariga moslashtirilgan kontentni taqdim etish, ishonch telefonlari va "qaynoq liniyalar", zaiflik va moslashish hamda kompaniyalarning roli va mas'uliyati mavjud. Bundan tashqari, rahbariy ko'rsatmalar davlatlarni bolalar bilan milliy siyosatdagi raqamli muhitdagi o'zgarishlarni to'g'ri aks ettirish, shu jumladan qaror qabul qilish jarayonida o'zaro aloqada bo'lishga chaqiradi. Hozirgi vaqtda rahbariy ko'rsatmalar 19 tilda mavjud. Ularga hujjatning bolalar uchun moslashtirilgan versiyasi, shuningdek, ushbu rahbariy ko'rsatmalarni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilaydigan Ko'rsatma beruvchi organlar uchun qo'llanma ilova qilinadi.

Yevropa kengashi - Lansarot konvensiyasi

Yevropa Kengashining bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'mollikdan himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi ([Lansarot konvensiyasi](#)) davlatlardan bolalarga nisbatan jinsiy zo'rvonlikka qarshi kurashish uchun quyidagi elementlardan iborat yondashuv asosida kompleks choralar ko'rishni talab qiladi: oldini olish, himoya qilish, jinoyat javobgarlikka tortish hamda milliy va xalqaro hamkorlikni rag'batlantirish. Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'mollikdan himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya ishtirokchilari qo'mitasi ("Lansarote qo'mitasi") bir qator hujjatlarni qabul qilib, Konvensiyaning raqamli muhitga nisbatan ta'sirini aniqladi. Bularga quyidagilar kiradi: Bolalar tomonidan yaratilgan, yuborilgan va qabul qilingan tasvirlar va/yoki bolalar ishtirokidagi odobsiz yoki ochiq shahvoniy videomateriallar to'g'risidagi fikr (2019-yil 6-iyun); Lansarot Konvensiyasining AKTdan foydalanish orqali soddalashtirilgan, bolalarga nisbatan jinsiy jinoyatlarga nisbatan qo'llanilishini izohlovchi fikr (2017-yil 12-may); Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasini yoki Lansarot Konvensiyasiga muvofiq shunday deb tan olingan boshqa har qanday jinoyatlarni targ'ib qiluvchi materiallar yoki tasvirlarning reklamasini o'z ichiga olgan veb-manzillar to'g'risidagi deklaratsiya (2016-yil 16-iyun); va [Lansarot konvensiyasining 23-moddasi bo'yicha fikr](#) – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda shahvoniy maqsadlarda bolalar grumingi. Lansarot qo'mitasi Konvensiya qoidalarining amalga oshirilishini monitoring qiladi: uning [ikkinchi tematik monitoring bosqichi](#) AKT yordamida bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo'rvonlikdan himoya qilishga qaratilgan: 2020-yilda monitoring bosqichi haqida hisobot chop etiladi. 2019-yil holatiga ko'ra Konvensiyaga 46 ta davlat qo'shildi, shu jumladan Tunis – Yevropa Kengashiga a'zo bo'lmagan birinchi davlat.

Yevropa Kengashining boshqa rahbariy prinsiplari

Yevropa Kengashining boshqa standartlari va vositalari barcha manfaatdor tomonlar uchun mo'ljallangan keng qamrovli doiralarni yaratish uchun umumiy qoidalar to'plamini ishlab chiqishga yordam beradi. Yevropa Kengashining [Kiberjinoyatchilik to'g'risidagi konvensiyasi](#) tarkibida bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollikka tegishli materiallar bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga qarshi kurashish uchun majburiyatlar mavjud: hozirda bu 64 ta ishtirokchi davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Xususan, Yevropa Kengashi bolalar va ularning yaqinlariga raqamli muhitda xavfsiz harakat qilish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratadi. Bunga ta'lim vositalari, jumladan, to'liq qayta ko'rib chiqilgan Internetda savodxonlik masalalari bo'yicha qo'llanma (2017), "Raqamli fuqarolikni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma" (2019) va ota-onalar uchun mo'ljallangan ko'rsatmalar (Raqamli asrda ota-onalar - Ota-onalar uchun onlayn muhitda bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'mollikdan himoya qilish bo'yicha qo'llanma) yordam beradi (2017); "Raqamli fuqarolik... va sizning farzandingiz" - har bir ota-ona bilishi va qilishi kerak bo'lganlar (2019). Nihoyat, Yevropa Kengashi bolalar bilan raqamli muhitda ularning huquqlari - "Bu bizning dunyomiz: Raqamli muhitda bolalarning o'z huquqlarini qanday himoya qilish haqidagi qarashlari" (2017) hamda nogiron bolalarning

⁵² Council of Europe (2020), The Digital Environment., <https://www.coe.int/en/web/children/the-digital-environment>. The Council of Europe Guidelines to respect, protect and fulfil the rights of the child in the digital environment is the first such set of standards adopted by an intergovernmental body (CM/Rec, 2018).

raqamli muhitdagi tajribasiga bag'ishlangan -“ Ikki marta oldinga va bir marta orqaga bosish: raqamli muhitda nogiron bolalar to'g'risida hisobot” bo'yicha maslahat tadqiqotlarini o'tkazdilar (2019).

Onlayn muhitda bolaning xavfsizligi to'g'risida hisobot

Onlayn muhitda bolalar xavfsizligi: onlayn muhitda zo'ravonlik, shafqatsiz muomalada bo'lish va ekspluatatsiya qilish xavfini minimallashtirish, shuningdek Onlayn muhitda bola xavfsizligining umumjahon deklaratsiyasi⁵³.

Onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha IHTT tavsiyalari (2012 / 2019-2020-yillarda qayta ko'rib chiqilgan). Bundan tashqari, onlayn muhitda bolani himoya qilish strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradigan boshqa milliy va xalqaro tashabbuslarni, shuningdek, milliy sa'y-harakatlarni ta'kidlash kerak, masalan:

Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi elementlaridan iborat tasvirlarning xalqaro ma'lumotlar bazasi

Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi elementlaridan iborat tasvirlarning xalqaro ma'lumotlar bazasi (ICSE MB) Interpol tomonidan yuritiladi va ixtisoslashgan tergovchilarga butun dunyo bo'ylab hamkasblari bilan ma'lumotlarni almashish imkonini beruvchi kuchli axborotni olish va tergov vositasi hisoblanadi. Interpolning xavfsiz global politsiya aloqa tizimi (I-247 nomi bilan tanilgan) orqali kiradigan ICSE MB ma'lumotlar bazasi qurbonlar, jinoyatchilar va joylar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida tasvirlarni taqqoslash uchun murakkab dasturiy ta'minotdan foydalanadi. ICSE MB a'zo-davlatlardagi sertifikatlangan foydalanuvchilarga real vaqt rejimida mavjud elementlarni o'rganish, yangi ma'lumotlarni yuklab olish, materiallarni saralash, tahlil qilish va bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi holatlarini tekshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha butun dunyo bo'ylab boshqa mutaxassislar bilan bog'lanish ma'lumotlar bazasiga kirish imkonini beradi.

WePROTECT global alyansi

WePROTECT Global Alyansi (WPGA) butun dunyo bo'ylab onlayn muhitda bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasiga (OSCE) qarshi kurashish usullarini o'zgartirish uchun zarur bo'lgan ta'sir, tajriba va resurslarni birlashtiradigan global harakatdir. Bu hukumat tuzilmalari, global texnologik kompaniyalar va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining ittifoqidir. Uning ko'ptaraflamalik xususiyati bu sohada o'ziga xosdir. WePROTECT global alyansining maqsadi ko'proq qurbonlarni aniqlash va himoya qilish, ko'proq jinoyatchilarni ushlab va onlayn muhitda bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasini to'xtatishdir.

WePROTECT global alyansi bir qator tarkibiy qismlarni, xususan, milliy harakat qilish choralarini va global strategik javob modellarini o'z ichiga oladi. Batafsil ma'lumotlarni 3-qo'shimchada keltirilgan.

2020-yil onlayn muhitdagi bolaning xavfsizlik indeksi

DQ instituti tomonidan ishlab chiqilgan 2020-yil onlayn muhitdagi bolaning xavfsizlik indeksi (COSI) real vaqt rejimida ishlaydigan dunyodagi birinchi tahliliy platforma bo'lib, mamlakatlarga bolalarning xavfsizlik holatini onlayn kuzatishga yordam beradi.

COSI asosini tashkil etuvchi COSI oltita jihatga asoslangan. Birinchi va ikkinchi jihatlar – kiberxavflar va raqamli muhitdan tartibli foydalanish - raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish bilan bog'liq. Uchinchi va to'rtinchi jihatlar - raqamli kompetensiya va rahbariy ko'rsatmalar hamda ta'lim berish – huquqlar va imkoniyatlarni kengaytirish bilan bog'liq. Oxirgi ikkita jihat infratuzilma bilan bog'liq bo'lib, ular ijtimoiy infratuzilma va bog'lanishlarni o'rnatish jihatlarini hisoblanadi.

3.3 Onlayn muhitda zarar manbalariga javoban harakat qilishga misollar

4-qo'shimchada onlayn muhitda zarar manbalariga javoban harakat qilishga bir qator misollar keltirilgan. Ushbu misollar ta'lim, qonunchilik va internetdagi zararni aniqlashni o'z ichiga oladi.

3.4 Onlayn muhitda bolani himoya qilish milliy strategiyasining afzalliklari

Qonunchilikni uyg'unlashtirish

Barcha mamlakatlarning AKTdan jinoiy yoki boshqa maqsadlarda noqonuniy foydalanishga qarshi tegishli qonun hujjatlarini qabul qilishi global kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun juda muhimdir. Tahdidlar

⁵³ Broadband Commission for Sustainable Development (2019), The State of Broadband 2019: Broadband as a Foundation for Sustainable Development, https://www.itu.int/dms_pub/itu-s/opb/pol/S-POL-BROADBAND.20-2019-PDF-E.pdf.

dunyoning istalgan nuqtasida paydo bo'lishi mumkinligi sababli, muammolar xalqaro miqyosda bo'lib, xalqaro hamkorlikni, umumiy tezkor va protsessual qoidalarni tekshirishga yordam berishni talab qiladi. Shu sababli mamlakatlar kiberjinoatchilikka qarshi kurashish, bolalarni himoya qilish va xalqaro hamkorlikni soddalashtirish bo'yicha o'z qonunchiligini uyg'unlashtirishi muhim ahamiyatga ega⁵⁴.

Tegishli milliy qonunchilikni, kiberjinoatchilikka qarshi qonunchilikni ishlab chiqish va ushbu yondashuv doirasida xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha har qanday milliy strategiyaning muvaffaqiyati yo'lidagi asosiy qadamdir. Bu, birinchi navbatda, kompyuter firibgarligi, noqonuniy foydalana olish, ma'lumotlarga aralashish, mualliflik huquqining buzilishi, CSAM kabi xatti-harakatlarni jinoiy javobgarlikka tortish uchun zarur bo'lgan jinoiy Qonunchilik qoidalarini qabul qilishni, shuningdek bolalarni asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortishning oldini olishni talab qiladi. Jinoyat kodeksida real hayotda sodir etilgan shunga o'xshash harakatlarga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar mavjudligi ularni Internetda sodir etilgan harakatlarga ham qo'llash mumkinligini anglatmaydi. Shu bois yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni aniqlash uchun amaldagi milliy qonunchilikni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Keyingi qadam - mamlakatlarga kiberjinoatchilikka qarshi uyg'unlashtirilgan qonunlar va protsessual normalarni ishlab chiqishga yordam beradigan qonunchilik shakli va tahliliy materiallarni aniqlash va belgilashdan iborat. Bunday amaliy vositalardan mamlakatlar kiberjinoatchilikka qarshi qonunchilikni va unga bog'liq qonunlarni ishlab chiqishda foydalanishlari mumkin. XTI ushbu yo'nalishda A'zo-davlatlar va tegishli manfaatdor tomonlar bilan birga ish olib boradi va global miqyosda kiberjinoatchilikka qarshi kurashish qonunchiligini kelishtirish jarayoniga katta hissa qo'shmoqda.

Texnologik innovatsiyalarning jadal sur'atlarini hisobga olgan holda, tartibga solish mavjud tizimining eskirganligi va qonunchilik normalarni ishlab chiqish jarayonining sekinlashuvi muammolarining potensial yechimi sifatida o'zini-o'zi tartibga solish va birgalikda tartibga solish tushunchalari ilgari surildi. Shu bilan birga, samarali bo'lish uchun tartibga soluvchi organlar/ko'rsatma beruvchi organlar onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha aniq maqsad va muammolarni aniq belgilashlari, o'zini-o'zi tartibga solish va birgalikda tartibga solish samaradorligini baholash uchun aniq ko'rib chiqish jarayoni va metodologiyasini amalga oshirishlari kerak va agar o'zini-o'zi tartibga solish va birgalikda tartibga solish jarayonida aniqlangan muammolarni hal qila olmagan holda ushbu muammolarni hal qilish uchun qonunchilikni ishlab chiqish rasmiy jarayonini boshlaydi. Bundan tashqari, o'zini-o'zi tartibga solishning muvaffaqiyatli choralari asta-sekin huquqiy kafolatga aylanishi va ayrim o'zini-o'zi tartibga solish tashabbuslarining orqaga qaytarilishi yoki to'xtatilishining oldini olish uchun qonunchilik jarayoni doirasida rasmiy qonunchilikka aylantirilishi mumkin.

Muvofiqlashtirish

Ehtimol ish ko'radigan va manfaatdor tomonlar o'rtasida onlayn muhitda bolani himoya qilishga qaratilgan bir qator mashg'ulotlar va harakatlar allaqachon mavjud, ammo ular vaqti-vaqti bilan sodir bo'ladigan xususiyatga ega. Onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqishda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni hisobga olish uchun bunday faoliyat haqida tasavvurga ega bo'lish muhimdir. Bunday strategiya mavjud va yangi faoliyatning yangi turlarini tashkil etish orqali harakatlarni muvofiqlashtiradi va yo'naltiradi.

⁵⁴ Broadband Commission for Sustainable Development (2019)

4 Prinsiplar va amalga oshirishga oid tavsiyalar

Hukumatlar raqamli muhitda bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha ko'rinishlariga qarshi kurashishlari kerak. Biroq raqamli muhitda bolalarni himoya qilish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar o'z fikrini ifodalash erkinligi, axborotdan foydalana olish huquqi yoki uyushmalar erkinligi huquqi kabi boshqa huquqlarning amalga oshirilishini asossiz ravishda cheklamasligi kerak. Bolalarning onlayn muhitdagi xavflarga duch kelishidan qo'rqib, ularning tabiiy qiziquvchanligi va innovatsiyalarga qobiliyatini cheklash o'rniga, yangilik bolalarning zukkoligidan foydalanish va raqamli muhit imkoniyatlarini o'rganishda ularning moslashuvchanligini oshirish juda muhimdir.

Ko'p hollarda bolalarga nisbatan zo'rvonlik harakatlari boshqa bolalar tomonidan sodir etiladi. Bunday vaziyatlarda hukumatlar, iloji boricha, bolalarni jinoiy javobgarlikka tortishning oldini olish bilan birga, yetkazilgan zararni bartaraf etuvchi tiklash yondashuvlarini qo'llashlari kerak. Hukumatlar zo'rvonlikning oldini olish va unga qarshi kurashishda AKTdan foydalanishga masalan, bolalarga axborotdan foydalana olish, zararli materiallarni bloklash va zo'rvonlik hodisalari sodir bo'lganda xabar berish imkonini beradigan texnologiyalar va resurslarni ishlab chiqishda yordam berishi kerak⁵⁵.

Onlayn muhitdagi bolalarning xavfsizligi bilan bog'liq global vaziyatni hal qilish uchun hukumatlar tegishli tashkilotlar o'rtasidagi aloqani yaxshilashga ko'maklashish va bolalarga onlayn muhitda yetkazilgan zararni bartaraf etish uchun ochiq hamkorlik qilishi kerak.

4.1 Asosiy tavsiyalar

4.1.1 Huquqiy baza

Hukumatlar raqamli muhitda bola huquqlarini to'liq amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'zlarining huquqiy bazasini qayta ko'rib chiqishlari va kerak bo'lganda yangilashlari kerak. Keng qamrovli huquqiy baza profilaktika choralariga; ya'ni raqamli muhitda bolalarga nisbatan zo'rvonlikning barcha shakllarini taqiqlash; bola huquqlarining buzilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun samarali javob berish, tiklash va qayta integratsiya vositalarini taqdim etish; bolalar manfaatlarini hisobga olgan holda maslahatlar berish hamda muammolar va shikoyatlar to'g'risida xabar berish mexanizmlarini yaratish; shuningdek jazosizlikka qarshi kurashish uchun javobgarlik mexanizmlariga tegishli bo'lishi kerak⁵⁶.

Imkoni bo'lsa, qonunchilik texnologik jihatdan neytral bo'lishi kerak, shunda uning qo'llanilishi kelajakdagi texnologik ishlanmalar nuqtayi nazaridan pasaymaydi⁵⁷.

Qonunchilik choralarini samarali amalga oshirish hukumat tuzilmalaridan qo'shimcha qadamlarni, shu jumladan xabardorlik va ijtimoiy safarbarlik tashabbuslarini, bolalar bilan va ularning manfaatlari yo'lida ishlaydigan mutaxassislarini o'qitish va salohiyatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarni talab qiladi.

Tegishli qonunchilikni ishlab chiqishda bolalar bir xil turdagi guruh emasligini ham hisobga olish kerak. Turli yoshdagi bolalar, shuningdek, alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalar raqamli muhitda yoki undan foydalanishda ko'proq zarar ko'rishi mumkin bo'lgan bolalar uchun turli xil javob choralarini talab qilinishi mumkin.

Hukumatlar kompaniyalar va boshqa uchinchi tomonlarga o'z faoliyatining barcha jabhalarida, mamlakat hududida hamda xalqaro miqyosda bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga yordam beradigan aniq va oldindan taxmin qilinadigan me'yoriy-huquqiy bazani yaratishi kerak⁵⁸.

Ko'rsatma beruvchi organlar tomonidan huquqiy doiralarning qamrab olinganligini tadqiq qilishda quyida keltirilgan jihatlarni hisobga olish kerak:

⁵⁵ Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children, *Annual Report of the Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children to the Human Rights Council, A/HRC/31/20* (January 2016), para. 103 and 104.

⁵⁶ Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children, *Releasing children's potential and minimizing risks: ICTs, the Internet and Violence against Children, 2014* (New York: United Nations), p. 55.

⁵⁷ Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children, *Releasing children's potential and minimizing risks: ICTs, the Internet and Violence against Children, 2014* (New York: United Nations), p. 64.

⁵⁸ UN Committee on the Rights of the Child, *General Comment No. 16*, para. 53.

- gruming yoki bolalarni nomaqbul jinsiy aloqaga yoki jinsiy faoliyatga jalb qilish, tovlamachilik yoki majburlashning boshqa shakllari;
- tarqatish niyatidan qat'i nazar, CSAMga egalik qilish, ishlab chiqarish va tarqatishni ta'minlash;
- onlayn muhitda shilqimlik qilish, ta'qib qilish, haqoratlar yoki nafrat so'zlari;
- onlayn muhitda terroristik materiallar;
- kiberxavfsizlik;
- real hayotda noqonuniy bo'lgan narsa onlayn muhitda ham xuddi shunday noqonuniy ekanligini aks ettirish.

4.1.2 Siyosiy va institutsional asos

Raqamli muhitda bola huquqlarini amalga oshirish kafolati hukumatlardan bolalarning AKTdan foydalanish afzalliklarini maksimal darajada oshirish va ular bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish o'rtasidagi muvozanatni saqlashni talab qiladi. Bunga onlayn muhitda bolalarni himoya qilish choralari keng polosali tarmoqni rivojlantirish bo'yicha milliy rejalariga⁵⁹ kiritish va bolalarni onlayn himoya qilish bo'yicha alohida ko'p tomonlama strategiyani ishlab chiqish orqali erishish mumkin. Bunday kun tartibi bolalar huquqlari yoki bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha mavjud bo'lgan har qanday siyosiy tamoyillar bilan to'liq birlashtirilgan bo'lishi kerak, shuningdek, barcha xavf-xatarlar va bolalar uchun potensial zarar manbalari uchun aniq asosni taklif qilish orqali bolalarni himoya qilish milliy siyosatini to'ldirishi kerak, bu esa barcha uchun xavfsiz, imkoniyatlarni kengaytiruvchi raqamli muhitni yaratishga qaratilgan⁶⁰.

Hukumatlar bolalar huquqlari va raqamli ommaviy axborot vositalari va AKT bilan bog'liq barcha faoliyatni tarmoqlararo, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada muvofiqlashtirish uchun aniq mandat va yetarli vakolatlar ega bo'lgan milliy muvofiqlashtirish tuzilmasini yaratishi kerak. Hukumatlar o'z maqsadlariga erishish uchun aniq vaqt mezonlarini ko'rsatishlari va bajarilgan ishlarni baholash hamda monitoring qilish jarayonini tashkil etishlari, shuningdek, ushbu tuzilmaning samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan inson, texnik va moliyaviy resurslar ajratilishini ta'minlashi kerak⁶¹. Hukumatlar bolalar manfaati uchun milliy raqamli kun tartibini ishlab chiqish, amalga oshirish va monitoring qilish uchun ko'p tomonlama platforma yaratishi kerak. Bunday platforma aholining eng muhim guruhlarini vakillarini jumladan: bolalar va yoshlar; ota-onalar/vasiylar uyushmalari; tegishli hukumat muassasalari; ta'lim, adliya, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sektori; milliy huquqni himoya qilish muassasalari va tegishli tartibga solish organlari; fuqarolik jamiyati; tarmoq kompaniyalari; ilmiy doiralar; va tegishli mutaxassislar uyushmalarini o'z ichiga olishi kerak.

4.1.3 Normativ baza

Hukumat tuzilmalari, huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish uchun kerakli, tegishli va oqilona choralarni ko'rmagan bo'lsalar yoki bunday korxonalar bilan hamkorlik qilsalar yoki ular tomonidan sodir etilgan qonunbuzarliklarni e'tiborsiz qoldirsalar, kompaniyalar harakatlarining bevosita yoki bilvosita natijasi bo'lgan bolalar huquqlarining buzilishi uchun javobgardir⁶².

Inson huquqlari jihatidan tadbirkorlik faoliyatining rahbariy prinsiplari kompaniyalar tomonidan qonuniy, foydalanish va oldindan aytish mumkin bo'lgan, adolatli, huquqlarga mos, shaffof, muloqot va ishtirok etishga asoslangan hamda uzluksiz o'qitish manbai bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy himoya va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarini taqdim etishni o'z ichiga oladi.

Kompaniyalar tomonidan yaratilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari moslashuvchan va o'z vaqtida muqobil yechimlarni taqdim etishi mumkin va ulardan u yoki bu kompaniyaning xatti-harakati bilan bog'liq muammolarni hal qilishda foydalanish bolaning manfaatlarini hisobga olish imkonini berishi

⁵⁹ The State of the Broadband 2019, Recommendation 5.6, page 78. https://www.itu.int/dms_pub/itu-s/opb/pol/S-POL-BROADBAND.20-2019-PDF-E.pdf.

⁶⁰ For model provisions on child protection for national broadband plans see chapter 10 of the Child Online Safety Report.

⁶¹ Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children, *Annual Report of the Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children* (December 2014) A/HRC/28/55 and *Releasing children's potential and minimizing risks: ICTs, the Internet and Violence against Children*, 2014 (New York: United Nations), para. 88.

⁶² UN Committee on the Rights of the Child, *General Comment No. 16*, para. 28.

mumkin. Barcha holatlarda sudlarga murojaat qilish yoki ma'muriy himoya vositalari va boshqa protseduralarni sud tomonidan qayta ko'rib chiqish ta'minlanishi kerak⁶³. Foydalanuvchilar o'z muammolari haqida xabar berishlari uchun bolalar uchun xavfsiz, ularning yoshiga mos keladigan xizmatlarni yaratish mexanizmlarini ko'rib chiqish kerak.

Shikoyatlarni ko'rib chiqishning ichki mexanizmlari mavjudligiga qaramay, hukumatlar AKT va tegishli sohalardagi kompaniyalarning javobgarligini oshirish uchun bolalar huquqlarining buzilishini tekshirish va tegishli zararni qoplash uchun monitoring mexanizmlarini yaratish, shuningdek, bolalar huquqlari va AKT bilan bog'liq standartlarni ishlab chiqish uchun tartibga soluvchi organlarning javobgarligini kuchaytirish kerak⁶⁴. Bu ayniqsa muhim hisoblanadi, chunki fuqarolik da'vosi va boshqa sud himoyasi kabi harakatlardan aziyat chekayotgan kompaniyalarning ixtiyorida bo'lgan boshqa vositalar ko'pincha murakkab va qimmatga tushadi⁶⁵.

BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi ushbu sohadagi milliy huquqni himoya qilish muassasalarining potensial rolini ta'kidlab, ular tarmoq tuzilmalari tomonidan huquqbuzarliklar to'g'risidagi shikoyatlarni qabul qilish va tekshirish, shuningdek, ushbu masalalar bo'yicha vositachilik qilish roli; keng ko'lamli suiiste'molliklar bo'yicha davlat tekshiruvlarini o'tkazish; Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga rioya etilishini ta'minlash maqsadida qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqishni belgilab berdi. Qo'mita, zarurat tug'ilganda, "Davlatlar bolalar huquqlari va tadbirkorlik manfaatlariga mos kelishi uchun milliy huquqni himoya qilish muassasalarining qonunchilik mandatini kengaytirishi kerak", deb ta'kidladi. Shikoyatlarni ko'rib chiqishning har qanday mexanizmi bolalarning manfaatlarini hisobga olishi, jabrlanganlarning shaxsiy hayoti va himoyasini ta'minlashi, shuningdek, jabrlangan bolalar manfaati uchun monitoring qilish, kuzatish va tekshirish faoliyatini o'z ichiga olishi muhim hisoblanadi.

Milliy huquqni himoya qilish muassasalar yoki boshqa tartibga soluvchi organ bolalarga samarali huquqiy himoya vositalarini taqdim etishi mumkin bo'lgan sohaga misol sifatida kiberta'qib holatlarini ko'rish mumkin. Kontent xavfli va zararli bo'lishiga qaramay, u ko'pincha milliy qonunchilik tomonidan ko'rib chiqilmaydi va kontentni joylashtiradigan tuzilma tomonidan olib tashlanishiga aniq asos yo'qligi holatlarida huquqiy himoya va shikoyatlarni ko'rib chiqishning ichki mexanizmlari ba'zan samarasiz bo'lib qoladi. Davlat organiga kiberta'qib holatlari yuzasidan shikoyatlarni qabul qilish va tegishli materiallarni olib tashlash uchun kontentni joylashtiruvchi tuzilmalarga murojaat qilish vakolati bolalarni himoya qilishning muhim elementi bo'ladi⁶⁶. Bunday choraning afzalliklari kiberta'qib kontekstida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan javoban harakat qilishning tezkorligidan, shuningdek, kiberta'qib bilan bog'liq materiallarni olib tashlash muammosini hal qilish uchun aniq huquqiy asosni yaratishdan iborat bo'ladi.

Raqamli muhitni tartibga solish yondashuvini ishlab chiqishda hukumatlar bunday tartibga solishning barcha inson huquqlarini, shu jumladan o'zini ifodalash erkinligidan foydalanishga ta'sirini ham hisobga olishlari kerak⁶⁷.

Hukumatlar korxonalariga bola huquqlari masalalarini tekshirish majburiyatini yuklashlari kerak. Bu tadbirkorlik korxonalarining bolalar huquqlariga, shu jumladan ularning tadbirkorlik aloqalari va global faoliyatiga ta'sirini aniqlash, oldini olish va kamaytirish ishlarini ta'minlaydi⁶⁸.

Bundan tashqari, hukumatlar qo'shimcha chora-tadbirlarni ko'rib chiqishlari kerak, masalan, faoliyati raqamli muhitda bolalar huquqlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarmoq tashkilotlari, moliyalashtirish yoki shartnomalarni tuzish huquqiga ega bo'lish uchun huquq buzilishining oldini olish va ularga javoban harakat qilish nuqtayi nazaridan eng yuqori darajadagi standartlarga mos kelishini ta'minlashi kerak.

⁶³ Report of the Special Representative of the Secretary-General on the issue of human rights and transnational corporations and other business enterprises, A/HRC/17/31 (2011), para. 71.

⁶⁴ UN Committee on the Rights of the Child, *Report of the 2014 Day of General Discussion*, para. 96.

⁶⁵ Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression, A/HRC/32/38 (2016), para. 71.

⁶⁶ Bertrand de Crombrugge, "Report of the Human Rights Council on Its Thirty-First Session" (UN Human Rights Council, 2016).

⁶⁷ Report of the Special Rapporteur on the promotion and protection of the right to freedom of opinion and expression, A/HRC/32/38 (2016), para. 45.

⁶⁸ UN Committee on the Rights of the Child, *General Comment No. 16*, para. 62.

4.2 Amaliy tusdagi tavsiyalar

Hukumatlar huquqlari buzilgan bolalar uchun samarali himoya vositalaridan foydalanishni, shu jumladan, zarur hollarda kompensatsiya to'lash yo'li bilan yetkazilgan zararni tezda va tegishli ravishda qoplashga yordam berishni ta'minlashi kerak. Hukumatlar, shuningdek, raqamli axborot vositalari va AKT bilan bog'liq buzilishlar qurboni bo'lgan bolalarni yetarli darajada qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish, xususan, jabrlangan bolalarning to'liq tuzalishi va reintegratsiyasini ta'minlash, shuningdek, ularning qayta qurbon bo'lishining oldini olish uchun kompleks qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil qilishi kerak⁶⁹.

Ishonch telefonlari kabi bolalarning manfaatlarini hisobga oluvchi maslahatlar berish, shikoyat qilish va shikoyatlarni ko'rib chiquvchi xavfsiz va foydalanish oson bo'lgan mexanizmlar qonun bilan ta'minlanishi va bolalarni himoya qilish milliy tizimining bir qismi bo'lishi kerak. Ushbu xizmatlar qandaydir tartibga soluvchi organlar bilan bog'langan bo'lishi muhim, bu esa bolaning muammoga duch kelgan paytda davlat muassasalari bilan o'zaro munosabatlarini tartibga solishga yordam beradi. Ishonch telefonlari, bolalarga tengdoshlari, ota-onalari, vasiylari yoki o'qituvchilari bilan muhokama qilish qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan jinsiy zo'ravonlik kabi o'ta nozik masalalar nuqtayi nazaridan juda qimmatlidir. Ishonch telefonlari bolani, masalan, yuridik yordam ko'rsatish xizmatlari, yetimxonalar, huquqni muhofaza qilish organlari yoki rehabilitatsiya xizmatlariga murojaat qilishni aytishlari uchun ham muhimdir⁷⁰.

Bundan tashqari, aniqlangan g'araz niyatli shaxslar statistikasini oshirish va sudlangan zo'ravonlarning huquqbuzarlikni qayta sodir etish xavfini kamaytirish uchun hukumatlar jinoyatchilarning xatti-harakatlarini tushunishlari va kuzatishlari kerak. Bolalarga nisbatan shahvoniy qiziqish bilan bog'liq his-tuyg'ular yoki fikrlarda bo'lgan potensial huquqbuzarlarga telefon yoki chat orqali bepul va anonim maslahat va yordam taklif qiladigan ishonch telefonlarini yaratish tavsiya etiladi. Huquqbuzarlarga o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishga yordam berish huquqbuzarlikni qayta sodir etish xavfini kamaytiradi.

Qonunchilik darajasida belgilangan shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari ham samarali huquqiy himoya qilish tizimining eng muhim qismi hisoblanadi.

Tartibga soluvchi organlari platformalar bolani himoya qilish bilan bog'liq masalalarni qanday hal etish va xabar qilishni baholash uchun mustaqil tadqiqotlar o'tkazishlari kerak. Tartibga soluvchi organlarga platformalarni mustaqil ravishda monitoring qilish imkonini beruvchi texnologiya mavjud. Aniqlikni ta'minlash uchun taqdim etiladigan hisobotlarni e'lon qilish uchun xizmatlarni yetkazib beruvchilarga yordam ko'rsatish kerak.

Davlat organlari xalqaro hamjamiyat va tarmoq kompaniyalari bilan birgalikda onlayn muhitda bola xavfsizligining barcha tegishli jihatlarini o'lchash uchun manfaatdor tomonlar foydalanishi mumkin bo'lgan universal ko'rsatkichlar to'plamini ishlab chiqishlari kerak.

4.2.1 Jinsiy ekspluatatsiya

Quyida bolalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan tahdidlarni, ya'ni bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq materiallarni, shaxsan o'z qo'li bilan yaratilgan kontentni, gruning va jinsiy tovlamachilikni hamda boshqa onlayn xavflarni ko'rib chiqishda ko'rsatma beruvchi organlar tomonidan e'tiborga olinishi kerak bo'lgan aniq fikrlar keltirilgan:

- CSAM materiallarini uzatish trafigini to'xtatish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar, masalan, milliy ishonch telefonini o'rnatish yoki [shikoyat yuborish uchun IWF portalidan](#) foydalanish va CSAM materiallarini o'z ichiga olgan yoki reklama qiluvchi onlayn kontentga kirishni bloklash.
- Mamlakatda aniqlangan barcha CSAM materiallarini kompaniyalardan kontentni olib tashlashni talab qilish huquqiga ega bo'lgan markazlashtirilgan milliy manbaga yo'naltirilishini kafolatlaydigan milliy tartib-tamoyillar mavjudligini ta'minlash.
- CSAM materiallariga bo'lgan talabni nazorat qilish strategiyalari, xususan bunday jinoyatlarni sodir etganlikda aybdor deb topilganlar uchun. Ushbu jinoyat qurbon bo'lmagan jinoyatlarga taalluqli emasligi to'g'risida xabardorlikni oshirish muhimdir: bolalar ko'rib chiqilayotgan materialni yaratish va butun dunyo bo'ylab CSAMni ko'rib chiqish va yuklab olish uchun foydalaniladi, ularning har biri u yerda tasvirlangan bolaning haqorat qilinishiga bevosita hissa qo'shmoqda, shuningdek ko'proq tasvirlarni yaratish uchun ko'plab bolalar sonidan foydalanishni rag'batlantirmoqda.

⁶⁹ UN Committee on the Rights of the Child, *Report of the 2014 Day of General Discussion*, para. 106.

⁷⁰ Special Representative of the Secretary-General on Violence against Children, *Releasing children's potential and minimizing risks*, p. 51 and p. 65.

- Bola CSAMni ishlab chiqarish yoki boshqa yo'l bilan shahvoniy suiiste'mollikka duchor bo'lishiga rozilik bera olmasligi haqida xabardorlikni oshirish. CSAMdan foydalanadiganlar foydalanuvchilarga yordam so'rab murojat qilishiga tavsiya qiling va shu bilan birga ular ishtirok etayotgan noqonuniy harakatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida xabardor qiling.
- CSAMga bo'lgan talabni nazorat qilish uchun boshqa strategiyalar. Masalan, ba'zi mamlakatlarda jazoga tortilgan jinsiy jinoyatchilar reyestri yuritiladi. Sudlar bunday jinoyatchilarga internetdan to'liq foydalanishni yoki internetning bolalar va yoshlar ko'p bo'ladigan joylaridan foydalanishni taqiqlovchi yuridik ko'rsatmalar beradi. Ushbu ko'rsatmalar bilan bog'liq muammo ularni qanday ijro etilishi bilan bog'liq. Biroq ba'zi mamlakatlarda ma'lum bo'lgan jinsiy jinoyatchilar ro'yxatini bloklash ro'yxatiga qo'shish masalasi ko'rib chiqilmoqda, bu ularga muayyan veb-saytlarga masalan, ko'plab bolalar va yoshlar tashrif buyurishi ma'lum bo'lgan veb-saytlarga kirishiga yoki ro'yxatdan o'tishiga to'sqinlik qiladi. Albatta, jinoyatchi boshqa nom yoki soxta login yordamida veb-saytda ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, bunday choralarning samaradorligi sezilarli darajada kamayadi, ammo bunday xatti-harakatni qonunga xilof deb hisoblash yana bitta qo'shimcha to'xtatuvchi vosita bo'lishi mumkin.
- Jabrlanganlarga uzoq muddatli kerakli yordam ko'rsatish. Bolalar yoki yoshlar Internet qurboniga aylangan hollarda, masalan, Internetda ularning qonunga xilof tasviri paydo bo'lsa, ular buni kim ko'rgan bo'lishi mumkinligi va bu ularga qanday ta'sir qilishi haqida juda xavotirda bo'lishadi. Bu bola yoki o'smirni zo'ravonlik yoki jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'mollik oldida zaif his qilishiga olib kelishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, bunday vaziyatga tushib qolgan bolalar va yoshlar uchun qo'llab-quvvatlash xizmatlari bilan bog'lana olish muhimdir. Bunday qo'llab-quvvatlash uzoq muddatli asosda talab qilinishi mumkin.
- Onlayn rejimda noqonuniy kontent, shubhali yoki qonunga xilof xatti-harakatlar to'g'risida xabar berish uchun oson tushuniladigan va tezkor vositalarni, masalan, [Virtual global maqsadli guruh va INHOPE](#) tomonidan yaratilgan tizimga o'xshash tizimni ta'minlaydigan mexanizimni yaratish va keng targ'ib qilishni ta'minlash. INTERPOL i24/7 tizimidan foydalanishni ham rag'batlantirish kerak.
- Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining internet tarmog'ida yoki kompyuterlardan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tegishli ravishda o'qitilgan bo'lishi, shuningdek, ularga tegishli raqamli ma'lumotlarni olish va talqin qilish imkonini beruvchi tegishli kriminalistika vositalaridan foydalanishlarini ta'minlash.
- Ushbu jinoyatlarni sodir etish uchun onlayn muhitda jinoyatchilar tomonidan qo'llaniladigan usullarni huquqni muhofaza qilish, prokuratura va adliya organlari xodimlariga o'qitish uchun investitsiyalar kiritish. Raqamli qurilmalardan kriminalistika dalillarini olish va talqin qilish uchun zarur bo'lgan uskunalarni sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish uchun ham investitsiyalar talab qilinadi. Bundan tashqari, boshqa mamlakatlardagi tegishli huquqni muhofaza qilish tashkilotlari va tergov organlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik va axborot almashinuvini yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi

4.2.2 Ta'lim

Strategiya doirasida bolalar xavf-xatarga duch kelmasdan, texnologiyalardan foydalanganda foyda olishlarini ta'minlash uchun ularning raqamli savodxonligini ta'minlash kerak. Bu bolalarga raqamli makonda o'zlarining xatti-harakatlarining yaxshi va yomon tomonlarini aniqlash va tushunishga yordam beradigan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bolalarga onlayn muhitda yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar namunasini ko'rsatish juda muhim, ammo bu yoshga mos keladigan hamda ko'nikma va malakalarga e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan yanada keng raqamli savodxonlik dasturining bir qismi sifatida amalga oshirilgan taqdirdagina samarali bo'ladi.

Onlayn muhitda xavfsizlikka o'qitish dasturi ijtimoiy va emotsional ta'lim prinsiplarini o'z ichiga olishi muhim, chunki ular talabalarga his-tuyg'ularni tushunish va boshqarishga yordam beradi va shuning uchun onlayn muhitda hamda real hayotda hurmatli va foydali munosabatlarga ega bo'lish imkonini beradi.

Internetdan foydalanadigan bolalarning xavfsizligini ta'minlashning eng yaxshi usullaridan biri bu ularga tegishli vositalar va bilimlar berishdir. Shu bilan bir qatorda, raqamli savodxonlikni maktab o'quv dasturlariga kiritish mumkin. Yana bir imkoniyat maktab o'quv dasturidan tashqari ta'lim resurslarini yaratishdir.

Bolalar bilan ishlaydiganlar onlayn muhitda bolalarga ularni himoya qilish bilan bog'liq muammolarga javoban ishonch bilan harakat qilish va ularni hal qilishga yordam berish, shuningdek, texnologiyalardan

muvaffaqiyatli foydalanish uchun bolalarning zarur raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash uchun tegishli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

4.2.3 Tarmoq kompaniyalari

Milliy va xalqaro tarmoq o'yinchilari onlayn muhitda bolaning xavfsizligi bilan bog'liq muammolar to'g'risida xabardorlikni oshirish va bolaning tinchligi uchun mas'ul bo'lgan barcha kattalarga, shu jumladan ota-onalar va vasiylar, maktablar, yoshlar tashkilotlari va hamjamiyatlarga yordam berish, bolalar xavfsizligini ta'minlash uchun ularga zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun harakat qilishlari kerak. Tarmoq kompaniyalarining o'z mahsulotlari, xizmatlari va platformalarini ishlab chiqishga yondashuvi xavfsizlikni oshirish prinsipiga asoslanishi kerak, xavfsizlikni ta'minlash esa asosiy maqsad deb tan olinishi kerak.

- Foydalanuvchilarga onlayn muhitda oila himoyasini yaxshiroq boshqarishga yordam berish uchun oilaning manfaatlarini hisobga olgan holda yoshga mos vositalarni taqdim etish.
- O'z foydalanuvchilariga muammolar va tashvish tug'diradigan masalalar to'g'risida xabar berishlari uchun yaroqli mexanizmlarni taqdim etish. Foydalanuvchilar ushbu xabarlariga amalga oshirilgan harakatlar agar kerak bo'lsa, qo'shimcha yordam olishlari mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan o'z vaqtida javob kutishlari kerak.
- Bundan tashqari, bolalarga nisbatan suiiste'mollikning har qanday shaklini (jinoiy faoliyat sifatida tasniflanadi) aniqlash va bartaraf etish uchun bolalarni ekspluatatsiya qilish to'g'risida oldindan xabar berish mexanizmini ta'minlash. Ushbu amaliyot shuni ko'rsatdiki, agar barcha manfaatdor tomonlar aniqlash, bloklash va xabar berishga hissa qo'shsa, Internet hamma uchun tinch va xavfsizroq bo'ladi. Tarmoq kompaniyalari o'z platformalaridan yomon niyatda foydalanishni oldini olish uchun [IWF xizmatlari](#) kabi barcha to'g'ri keladigan vositalardan foydalanishni ko'rib chiqishlari kerak.

Bolalar keraksiz xavf-xatarlarga duch kelmasliklari uchun ekotizimning barcha tegishli ishtirokchilari onlayn muhitda zarar yetkazish xavfi va imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari juda muhimdir.

Muammoning barcha tegishli aspektlarini o'lchash uchun onlayn muhitda bolalar xavfsizligining umumiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish kerak. Umumiy standartlar va ko'rsatkichlarga ega bo'lish mamlakatlardagi taraqqiyotni kuzatish, bolalarga nisbatan har qanday zo'ravonlikni yo'q qilishga qaratilgan loyihalar va chora-tadbirlarning muvaffaqiyatini aniqlash va onlayn muhitda bolaning xavfsizlik ekotizimining samaradorligini e'tirof etishning yagona yo'li hisoblanadi.

5 Onlayn muhitda bolani himoya qilish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish

5.1 Milliy darajada o'zini o'zi tekshirish uchun ro'yxat

Onlayn muhitda bolaning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan milliy strategiyani shakllantirish uchun ko'rsatma beruvchi organlar keng ko'lamlı chora-tadbirlarni ko'rib chiqishlari kerak. 1-jadvalda ko'rib chiqishni talab qiladigan asosiy sohalar keltirilgan.

1-jadval: Ko'rib chiqishni talab qiladigan asosiy sohalar

Ошибка! Закладка не определена.	#	Ko'rib chiqishni talab qiladigan asosiy sohalar	Qo'shimcha axborot
Huquqiy normalar	1	Huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa tashkilotlar uchun 18 yoshgacha bo'lgan shaxslarni onlayn muhitda Internetga ulangan barcha platformalarda himoya qilish imkonini beradigan barcha zarur qonuniy huquqlar mavjudligini ta'minlash uchun mavjud huquqiy normalarni qayta ko'rib chiqish.	Umuman olganda, real dunyoda bolaga qarshi sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday jinoyat, <i>kerakli o'zgarishlarni hisobga olgan holda</i> , internetda yoki boshqa har qanday elektron tarmoqda sodir etilishi mumkinligini aniq ko'rsatadigan qonunlar to'plami bo'lishi kerak. Bundan tashqari, faqat internetda mavjud bo'lgan ba'zi xatti-harakatlarning qonunga xilofligini aniqlash masalan, masofadan turib bolalarni jinsiy faoliyatni amalga oshirish va ko'rishga jalb qilish yoki real dunyoda shahvoniy maqsadlarda uchrashish uchun bolalarni "gruning"gi uchun yangi qonunlarni ishlab chiqish yoki mavjud qonunlarni qayta ko'rib chiqish kerak bo'lishi mumkin
	2	<i>Kerakli o'zgarishlarni hisobga olgan holda</i> , real hayotda qonunga xilof bo'lgan bolaga qarshi har qanday harakat onlayn muhitda qonunga xilof ekanligini va onlayn muhitda ma'lumotlar va maxfiylikni himoya qilish qoidalari bolalar uchun ham qo'llanilishini aniqlash.	Ushbu maqsadlarga qo'shimcha ravishda, odatda, kompyuterlardan jinoyiy maqsadlarda yomon niyatda foydalanishning qonunga xilofligi, xakerlik va boshqa zararli va nomaqbul kompyuter dasturlaridan foydalanishning qonunga xilofligini belgilaydigan va Internet jinoyatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan joy

			ekanligini aniqlaydigan qonunchilikni joriy etish talab etiladi.
Tartibga soluvchi normalar	3	<p>Tartibga solish siyosatini ishlab chiqishni ko'rib chiqish. Bu o'z-o'zini tartibga solish yoki birgalikda tartibga solish siyosatini, shuningdek, to'liq tartibga solish normasini o'z ichiga olishi mumkin.</p> <p>O'z-o'zini tartibga solish yoki birgalikda tartibga solish modeli barcha manfaatdor tomonlarni jalb qilish, muvofiqlashtirish yoki tashkil etish va ishtirok etishga ko'maklashish nuqtayi nazaridan, shuningdek texnologik o'zgarishlarga javoban tegishli harakatlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tezlikni oshirish nuqtayi nazaridan ham onlayn muhitda xavfsizlik bo'yicha adolatli amaliyot kodekslarini ishlab chiqish va nashr etish yoki asosiy umidlarni o'z ichiga olishi mumkin.</p> <p>Tartibga solish modeli manfaatdor tomonlarning taxminlari va majburiyatlarini aniqlashi va ularni huquqiy sohada mustahkamlashi mumkin. Siyosatga rioya etmaslik uchun jarimalar ham ko'rib chiqilishi mumkin.</p>	<p>Ushbu sohadagi qoidalarni ishlab chiqish uchun ba'zi mamlakatlar mustaqil yoki birgalikda tartibga solish modelini yaratdilar va bunday modellar yordamida, masalan, Internet tarmog'ini onlayn muhitda bolalar va yoshlarning xavfsizligini ta'minlash uchun eng yaxshi tarzda ishlashi mumkin bo'lgan chora-tadbirlardan foydalangan holda yo'naltirish uchun adolatli amaliyot kodekslari e'lon qilindi. Masalan, Yevropa Ittifoqi doirasida ham ijtimoiy tarmoq saytlari, ham mobil telefon tarmoqlari uchun ushbu tarmoqlar orqali bolalar va yoshlarga kontent va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq Yevropa Ittifoqi kodekslari e'lon qilindi. O'z-o'zini tartibga solish yoki birgalikda tartibga solish texnologik o'zgarishlarga tegishli javoblarni shakllantirish va joriy etish tezligini oshirishda samaraliroq bo'lishi mumkin.</p> <p>So'nggi paytlarda bir nechta mamlakatlar tartibga solish normalarini tayyorladilar va/yoki qabul qildilar. Bunday hollarda tartibga solish normalari o'z-o'zini tartibga solish yoki birgalikda tartibga solish modellari asosida ishlab chiqiladi va o'z foydalanuvchilarini yaxshiroq himoya qilish uchun manfaatdor tomonlarning, ayniqsa tarmoq provayderlarining talablari va</p>

			taxminlarini belgilaydi.
Qonunga xilof kontent haqida xabar	4	<p>Internetda topilgan turli xil qonunga xilof kontent haqida xabar berishning aniq usullarini taqdim etish mexanizmini yaratish va keng ommalashtirishni ta'minlash. Masalan, tezkor javob berish va qonunga xilof materiallarni olib tashlash yoki unga kirishni taqiqlash imkoniyatiga ega bo'lgan davlat ishonch telefoni.</p> <p>Tarmoq o'z tashkilotlariga tegishli barcha xizmatlarni o'z ichiga olgan holda, onlayn muhitda bolalarga nisbatan zo'ravonlikni aniqlash, bloklash va yo'q qilish mexanizmlariga ega bo'lishi kerak.</p>	<p>Onlayn xizmatlardan foydalanishda suiiste'mollik yoki onlayn muhitda nomaqbul yoki qonunga xilof xatti-harakatlar haqida xabar berish mexanizmlari, masalan, milliy ishonch telefoni orqali Internetda ham, boshqa ommaviy axborot vositalarida ham keng e'lon qilinishi va targ'ib qilinishi kerak. Agar milliy ishonch telefoni mavjud bo'lmasa, IWF yechim sifatida xabar berish portallaridan foydalanishni taklif qiladi.</p> <p>Suiiste'mollik haqida xabar berish mexanizmlariga havolalar har bir veb-saytning foydalanuvchilar tomonidan yaratilgan kontentni joylashtirish imkonini beruvchi tegishli bo'limlarida aniq ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, har qanday turdagi xavf-xatarlarga duch kelayotganini his qiladigan yoki internetdagi har qanday shubhali xatti-harakatlarni payqagan odamlar iloji boricha tezroq o'qitilishi va ushbu xabarga javob berishga tayyor bo'lgan tegishli huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berishlari uchun imkoniyat yaratilishi kerak. Virtual global maqsadli guruh-bu AQSH, Kanada, Avstraliya va Italiya fuqarolaridan qonunga xilof xatti-harakatlar yoki kontent to'g'risidagi da'volarni qabul qilish uchun 24/7 rejimida ishlaydigan mexanizmni ta'minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlari tashkilotidir; boshqa mamlakatlar ham tez orada qo'shilishi</p>

			<p>kutilmoqda. Qarang: www.witualglobaltaskforce.com.</p> <p>Shuningdek INHOPEga qar.</p>
Foydalanuvchilar ning ehtiyojlari haqida xabar	5	<p>Tarmoq vakillari foydalanuvchilarga o'zlarining ehtiyojlari va muammolari haqida xabar berish va shunga mos ravishda javob berish imkoniyatini berishlari kerak.</p>	<p>Provayderlarga o'z foydalanuvchilariga o'z xizmatlari bilan bog'liq muammolar va ehtiyojlari to'g'risida xabar berish imkoniyatini taqdim etishlari va aniq ko'rsatishlari kerak. Bu bolalar uchun qulay va oson bo'lishi kerak.</p>
Ishtirokchilar va manfaatdor tomonlar	6	<p>Onlayn muhitda bolani himoya qilishdan manfaatdor barcha tegishli tomonlarni jalb qilish, xususan:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Davlat tashkilotlari; • huquqni muhofaza qiluvchi organlar; • ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar; • Internet xizmat provayderlar (IP) va boshqa elektron xizmat provayderlari (EXP); • mobil aloqa tarmog'i provayderlari; • Wi-Fi dan foydalanish jamoat nuqtalarining yetkazib beruvchilari; • boshqa tegishli yuqori texnologiyali kompaniyalar; • o'qituvchilar tashkilotlari; • ota-onalar tashkilotlari; • bolalar va yoshlar; • Bolalarni himoya 	<p>Ayrim milliy hukumatlar Internetni bolalar va yoshlar uchun xavfsizroq joyga aylantirish bo'yicha milliy tashabbusni ishlab chiqish va amalga oshirish, muammolar va ularni amalda qanday hal qilish haqida xabardorlikni oshirishga e'tibor qaratish uchun barcha manfaatdor tomonlar va ishtirokchilarni birlashtirishni foydali deb topdi.</p> <p>Ushbu strategiyaning bir qismi sifatida ko'pchilik ommaviy va doimiy ravishda turli xil qurilmalar orqali Internetga ulanganligini tushunish muhim hisoblanadi. Keng polosali, mobil va Wi-Fi operatorlarini jalb qilish kerak. Bundan tashqari, ko'plab mamlakatlarda, ayniqsa, bolalar va yoshlar uchun Internetga kirishning muhim manbai jamoat kutubxonalari, telekommunikatsiya markazlari va Internet-kafelar tarmog'idir.</p>

		<p>qilish bo'yicha NDT va boshqa tegishli NDT</p> <ul style="list-style-type: none"> • akademik va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari; • Internet-kafelar va boshqa jamoat xizmatlaridan foydalanish provayderlari masalan, kutubxonalar, telekommunikatsiya markazlari, kompyuter klublari⁷¹, onlayn o'yin markazlari egalari. 	
Tadqiqot ishi	7	<p>Bolalarni onlayn himoya qilish faoliyatiga nisbatan ularning qarashlari, tajribalari, ehtiyojlarini va imkoniyatlarini aniqlash uchun milliy ishtirokchilar va manfaatdor tomonlar spektri bo'ylab tadqiqot o'tkazing. Javobgarlik sohasini, shuningdek, bolani onlayn muhitda himoya qilish uchun ko'rilgan yoki rejalashtirilgan chora-tadbirlar bilan birga mas'uliyat darajasini ham baholash kerak.</p>	
Ta'lim: raqamli savodxonlik va kompetentlik	8	<p>Yoshga mos keladigan va barcha bolalarni o'qitish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan har qanday milliy maktab dasturi doirasida raqamli savodxonlik materiallarini ishlab chiqish.</p>	<p>Maktablar va umuman ta'lim tizimi onlayn muhitda bolalarni himoya qilish milliy strategiyasida ta'limning asosi va raqamli savodxonlikning tarkibiy qismi bo'ladi.</p> <p>Har qanday milliy maktab o'quv dasturi bolalarni onlayn himoya qilish</p>

⁷¹ Kompyuter klubi (inglizcha "PC Bang") atamasi Koreya Respublikasida va ba'zi boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan bo'lib, mahalliy tarmoq orqali onlayn muhitdagi yoki xonadagi o'yinchilar o'rtasida kompyuterda o'yin o'ynashni osonlashtiradigan katta xonani tasvirlash uchun ishlatiladi.

		<p>jihatlarini o'z ichiga olishi va barcha yoshdagi bolalarni texnologiyadan mohirona va foydali foydalanish, shuningdek, oldi olinishi kerak bo'lgan tahdid va zararlardan xabardor bo'lish uchun yoshiga mos keladigan ko'nikmalar bilan qurollantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Onlayn muhitda ijobiy va konstruktiv xatti-harakatlar e'tirof etilishi va rag'batlantirishi kerak.</p> <p>Ko'pgina ta'lim va axborot kampaniyalarining bir qismi sifatida to'g'ri ohangni tanlash muhimdir. Qo'rqinchli xabarlardan qochish kerak va yangi texnologiyalarning ko'plab ijobiy va ko'ngilochar imkoniyatlariga e'tibor qaratish lozim. Internet bolalar va yoshlarga yangi olamlarni kashf qilish imkoniyatini beruvchi vosita sifatida katta imkoniyatlarga ega. Ularga onlayn xatti-harakatlarning ijobiy va mas'uliyatli shakllarini o'rgatish ta'lim va axborot dasturlarining asosiy vazifasidir.</p> <p>Bolalar bilan ishlaydiganlar, ayniqsa o'qituvchilar, bolalarga ushbu ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'rgatish uchun yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari va kerakli narsalarga ega bo'lishlari kerak. Ular onlayn muhitdagi tahdidlar va zararlarni nima ekanligini tushunishlari, shuningdek, haqoratli va zarar keltiradigan belgilarni bilib olishlari, ularga javob berishlari va bolalarni himoya qilish uchun o'z ehtiyojlari haqida xabardor qilishlari kerak.</p>
--	--	---

<p>Ta'lim resurslari</p>	<p>9</p>	<p>Barcha manfaatdor tomonlarning bilim va tajribasidan foydalanib va mahalliy madaniy normalar va qonunlarni aks ettiruvchi Internetdagi xavfsizlik xabarlari va materiallarini ishlab chiqish va ularning samarali taqsimlanishini va barcha asosiy maqsadli auditoriyalarga mos ravishda taqdim etilishini ta'minlash. Ogohlikni oshirishga qaratilgan xabarlarni tarqatishda ommaviy axborot vositalari yordamida ulanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish. Bolalar va yoshlar uchun internetning ijobiy va ta'sirchan tomonlarini ta'kidlaydigan va qo'rquv hissiga asoslangan xabarlardan qochishga imkon beradigan materiallarni ishlab chiqish. Onlayn muhitda ijobiy va mas'uliyatli xatti-harakatlarni targ'ib qilish. Ota-onalarga o'z farzandlarining onlayn muhitda xavfsizligini baholashga yordam berish uchun resurslarni ishlab chiqishni ko'rib chiqing va maqsadli ta'lim orqali xavflarni minimallashtirish va o'z oilasining imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishni o'rganish.</p>	<p>O'quv materiallarini ishlab chiqarishda shuni yodda tutish kerakki, texnologiya haqida kam ma'lumotga ega bo'lgan ko'plab odamlar undan foydalanishda o'zlarini noqulay his qilishadi. Shu sababli, xavfsizlik materiallari bosma shaklda ham, yangi foydalanuvchilar ommaviy axborot vositalaridan masalan, videodan foydalangan holda tayyorlanishini ta'minlash muhimdir. Ko'plab yirik Internet kompaniyalari bolalar va yoshlar uchun onlayn tahdidlar haqida juda ko'p ma'lumotlarni o'z ichiga olgan veb-saytlarni yaratmoqdalar. Biroq ko'pincha ushbu material faqat ingliz tilida yoki kam tillarda mavjud. Shu sababli, materiallar mahalliy darajada yaratilishi va milliy qonunlar va mahalliy madaniy normalarni aks ettirishi juda muhimdir. Bu har qanday Internet xavfsizligi kampaniyasi va har qanday o'quv materiallarini ishlab chiqish uchun muhim bo'ladi.</p>
---------------------------------	----------	---	--

<p>Bolani himoya qilish</p>	<p>10</p>	<p>Bolalar bilan ishlaydigan barcha tomonlarni (ijtimoiy himoya xizmatlari, sog'liqni saqlash xizmatlari, maktablar va b.) Internetda zo'rvonlik va zarar yetkazish holatlarini aniqlash, ularga javob berish va bunday hodisalar to'g'risida xabar berish majburiyatini yuklaydigan universal tizimli bolalarni himoya qilish mexanizmlari mavjudligini ta'minlash.</p>	<p>Bolalar bilan ishlaydigan barcha shaxslarga taalluqli bo'lgan bolalarni himoya qilishning universal tizimi bo'lishi kerak, unda ular bolalarga nisbatan zo'rvonlik yoki ularga zarar etkazish to'g'risida xabar berishlari shart, bu esa muammoli vaziyatni tekshirish va yechim topish imkonini beradi.</p>
<p>Milliy darajada xabardorlik</p>	<p>11</p>	<p>Onlayn muhitda bolani himoya qilish muammolariga umumiy e'tiborni jalb qilish maqsadida milliy xabardorlik kampaniyalarini tashkil etish. Kampaniyani rivojlantirish uchun Xavfsiz Internet kuni kabi global kampaniyalardan foydalanish foydali bo'lishi mumkin.</p>	<p>Ota-onalar, vasiylar va o'qituvchilar kabi mutaxassislar bolalar va yoshlarning onlayn xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu muammolar to'g'risida xabardorlikni ta'minlaydigan va ularga qarshi kurashish strategiyasini belgilaydigan qo'llab-quvvatlash dasturlari.</p> <p>Shuningdek, xabardorlikni oshirish maqsadida ma'lumotlarni tarqatish va kampaniyalarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining yordami ham ko'rib chiqilishi kerak.</p> <p>Xavfsiz Internet kuni kabi imkoniyatlar onlayn muhitda bolani himoya qilish mavzusini muhokama qilishni rag'batlantirish va ruhlantirishga yordam beradi. Ko'pgina mamlakatlar axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda universal xabar almashishni kuchaytirish maqsadida turli ishtirokchilar va manfaatdor tomonlarni jalb qilgan xavfsiz Internet</p>

			kuni kontekstida milliy xabardorlik kampaniyalarini muvaffaqiyatli tashkil etdilar.
Vositalar, xizmatlar va sozlamalar	12	<p>Qurilma sozlamalari, texnik vositalar (masalan, filtrlash dasturi) va bolalarni himoya qilish ilovalari qanday foydali rol o'ynashi mumkinligini ko'rib chiqish.</p> <p>Foydalanuvchilarni o'z qurilmalari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, operatsion tizimni muntazam yangilab turishga va tegishli dasturiy ta'minot va xavfsizlik dasturlaridan foydalanishga undash.</p>	<p>Nomaqbul kontentni aniqlashga yoki kiruvchi kontaktlarni bloklashga yordam beradigan bir qator xizmatlar mavjud. Ushbu bolalar xavfsizligi va filtrlash dasturlarining ba'zilari aslida bepul bo'lishi mumkin, chunki ular kompyuterning operatsion tizimining bir qismi yoki IXP yoki EXP to'plamining bir qismi sifatida taqdim etiladi. Agar qurilma internetga kirishga imkon bersa, ba'zi o'yin konsollari ishlab chiqaruvchilari ham shunga o'xshash vositalarni taqdim etadilar. Ushbu dasturlar mutlaqo ishonchli himoya kafolati emas, lekin ular, ayniqsa, oilalar uchun yaxshi qo'llab-quvvatlash darajada yordam berishi mumkin.</p> <p>Aksariyat qurilmalarda bolalarni himoya qilishga yordam beradigan, shuningdek, foydali va muvozanatli foydalanishga yordam beradigan sozlamalar mavjud. Shuningdek, ota-onalarga vaqtni belgilash, bolalar foydalanishi mumkin bo'lgan ilova va xizmatlarni tanlash hamda xaridlarni boshqarish orqali farzandlarining qurilmalarini boshqarish imkonini beruvchi mexanizmlar mavjud.</p> <p>So'nggi paytlarda foydalanuvchilar va ota-onalarga qurilmaning ishlash vaqtini va unga kirish va boshqarishni yaxshiroq kuzatish imkonini beruvchi hisobotlar tayyorlandi va sozlamalar</p>

			<p>ishlab chiqildi.</p> <p>Ushbu texnik vositalar Arsenalning bir qismi sifatida ishlatilishi kerak. Ota-onalar va/yoki vasiylarning ishtiroki juda muhimdir. Bolalar voyaga yetganida, ko'proq erkinlik hayotini xohlashadi va shuningdek, o'zlari kashf qilishni boshlash istagini his qilishadi. Bundan tashqari, sotuvchi va iste'molchi o'rtasida moliyaviy munosabatlar mavjud bo'lgan joyda, yoshni tekshirish usullari juda foydali bo'lishi mumkin, bu yosh cheklovlari bo'lgan tovarlar va xizmatlar sotuvchilari, shuningdek, faqat ma'lum bir yoshdan oshgan kitobxonlar uchun mo'ljallangan materiallarni nashr etuvchilarga yordam beradi. Moliyaviy munosabatlar mavjud bo'lmagan hollarda yoshni tekshirish texnologiyalaridan foydalanish muammoli bo'lishi mumkin yoki ko'plab mamlakatlarda yo'qligi sababli imkonsiz bo'lishi mumkin.</p>
--	--	--	---

5.2 Savollarga misollar

Milliy manfaatdor tomonlar va ishtirokchilar aniqlangandan so'ng, ularga quyidagi savollar ro'yxati yuborilishi va ularni to'ldirilishi va ularga javoblarni taqdim etislarini so'rash mumkin. Ularning javoblari siyosatni qamrab olish darajasini, kuchli tomonlarini va alohida e'tibor berilishi kerak bo'lgan milliy o'z-o'zini tekshirish nazorat ro'yxatidagi bo'limlarni aniqlashga yordam beradi.

- Onlayn muhitda bolalarning xavfsizligi va ularning huquqlari uchun qay darajada javobgarsiz?
- Onlayn muhitda xavfsizlik va bola huquqlari sizning mavjud siyosat va jarayonlaringizga qanday qo'shiladi?
- Onlayn muhitda xavfsizlik amaldagi Qonunchilik bilan qay darajada qamrab olingan?
- Onlayn muhitda xavfsizlik bo'yicha ustuvorliklaringiz qanday?
- Onlayn muhitda xavfsizlikni ta'minlash uchun qanday harakatlaringiz bor?
- Onlayn muhitdagi xavfsizlikni yaxshilash/takomillashtirish uchun boshqa agentliklar va tashkilotlar bilan qanday ishlaysiz?
- Bolalar / ota-onalar sizga onlayn muhitda xavfsizlik bilan bog'liq ehtiyojlar yoki muammolar haqida xabar berish imkoniyatiga egami?

- Onlayn dunyoda siz duch keladigan uchta asosiy muammoingiz nima?
- Onlayn dunyoda siz uchun ochiladigan eng yaxshi uchta imkoniyat nima?

Bundan tashqari, bolalar va ularning ota-onalari onlayn muhitda bolaning himoyasini qanday tasavvur qilishlarini va ularning tajribalari qanday ekanligini tushunish uchun tadqiqot o'tkazish foydali bo'ladi.

6 Ma'lumot materiallari

Onlayn muhitda bolani himoya qilish: asosiy hujjatlar va nashrlar

2020-yil

- ECPAT International, [Sexual Exploitation Of Children In The Middle East And North Africa](#), 2020
- DQ Institute, [2020 Child Online Safety Report](#), 2020
- EU Kids Online, [EU Kids Online 2020: Survey results from 19 countries](#), 2020

2019-yil

- Internet Watch Foundation (IWF), [Annual Report](#), 2019
- WeProtect Global Alliance, [Global Threat Assessment](#), 2019
- Broadband Commission / ITU, Child Online Safety. [Universal Declaration](#), 2019
- Broadband Commission / ITU, Child Safety Online: [Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online](#), 2019
- Global Kids Online, [Growing up in a connected world](#), 2019
- [Rethinking the Detection of Child Sexual Abuse Imagery on the Internet](#), in Proceedings of the 2019 World Wide Web Conference, May 13–17, 2019, San Francisco, USA, 2019
- UK Home Office, [Online Harms White Paper](#) (UK only), 2019
- PA Consulting, [A tangled web: rethinking the approach to online CSEA](#), 2019
- UK Information Commissioner Office, Consultation on Code of Practice to help protect children online (UK only), 2019
- Global Fund to End Violence against Children, [Disrupting Harm: evidence to understand online child sexual exploitation and abuse](#), 2019
- Global Partnership to End Violence against Children, Safe to Learn [Call for Action](#), Youth Manifesto, 2019
- UNESCO, [Behind the numbers: Ending school violence and bullying](#), 2019 (includes data on online hurtful behaviour and cyber-bullying)
- United Nations Human Rights, [children's rights in relation to the digital environment](#), 2019
- Australian eSafety Commissioner, [Safety by Design Overview](#), 2019
- UNICEF, [Why businesses should invest in digital child safety brief](#), 2019
- U.S. Department of State, [Trafficking in Persons report](#), 2019

2018-yil

- WeProtect Global Alliance, [Global Threat Assessment](#), 2018
- Child Dignity on the Digital World, Technical Working Group Report, 2018 Council of Europe, [Recommendation CM/Rec\(2018\)7 of the Committee of Ministers to member States on Guidelines to respect, protect and fulfil the rights of the child in the digital environment](#), 2018
- Global Fund to End Violence against Children, [Two years of supporting solutions: results from the Fund's investments](#), 2018
- WeProtect Global Alliance, [Country examples of Model of National Response capabilities and implementation](#), 2018
- INTERPOL and ECPAT International, [Towards a Global Indicator on Unidentified Victims in](#)

[Child Sexual Exploitation Material](#), 2018

- [EUROPOL, Internet Organized Crime Threat Assessment \(IOCTA\)](#), 2018
- [NetClean, Report about Child Sexual Abuse Cybercrime](#), 2018
- [International Centre for Missing & Exploited Children \(ICMEC\), Child Sexual Abuse Material: Model Legislation & Global Review](#), 9th Edition, 2018
- [International Centre for Missing & Exploited Children \(ICMEC\), Studies in Child Protection: Sexual Extortion and Non-Consensual Pornography](#), 2018
- [International Association of Internet Hotlines, INHOPE Report](#), 2018
- [Internet Watch Foundation \(IWF\), Annual Report](#), 2018
- [Thorn, Production and Active Trading of Child Sexual Exploitation Images](#), 2018
- [ITU, Global Cybersecurity Index](#), 2018
- [CSA Centre of Expertise, Interventions for perpetrators of online child sexual exploitation - a scoping review and gap analysis](#), 2018
- [NatCen, Behaviour and Characteristics of Perpetrators of Online-facilitated CSEA - a rapid evidence assessment](#), 2018
- [UNICEF, Policy guide on children and digital connectivity](#), 2018

2017-yil

- [The National Center for Missing & Exploited Children \(NCMEC\), The online enticement of children: an in-depth analysis of CyberTipline Reports](#), 2017
- [5Rights Foundation, Digital Childhood, development milestones in digital environment](#), 2017
- [Childnet, DeShame Report](#), 2017
- [Canadian Centre for Child Protection, Survivors' survey](#), 2017
- [Internet Watch Foundation \(IWF\), Annual Report](#), 2017
- [International Centre for Missing & Exploited Children \(ICMEC\), Annual Report](#), 2017
- [International Centre for Missing & Exploited Children \(ICMEC\), Online Grooming of Children for Sexual Purposes: Model Legislation & Global Review](#), 2017
- [Thorn, Sextortion online survey with 2,097 victims of sextortion ages 13 to 25](#), 2017
- [UNICEF, Children in a Digital World](#), 2017
- [Western Sydney University, Young and Online: Children's Perspectives on Life in Digital Age](#), 2017
- [ECPAT International, Sexual Exploitation of Children in South East Asia](#), 2017

2016-yil

- [UNICEF, Perils and possibilities: growing up online](#), 2016
- [UNICEF, Child protection in the digital age: National responses to online CSEA in ASEAN](#), 2016
- [Centre for Justice and Crime Prevention, Child Online Protection in the MENA Region](#), 2016
- [ECPAT International, Interagency Working Group on Sexual Exploitation of Children, Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse \(The Luxembourg Guidelines\)](#), 2016

2015-yil

- WeProtect Global Alliance, Preventing and Tackling Child Sexual Exploitation and Abuse (CSEA): [A Model National Response](#), 2015
- NCMEC, [A Global Landscape of Hotlines Combating CSAM](#), 2015
- ITU and UNICEF, [Guidelines for Industry on Child Online Protection](#), 2015

Raqamli dunyoda inson huquqlari to'g'risida

- Council of Europe, [Guidelines to respect, protect and fulfil the rights of the child in the digital environment](#), 2018
- UNESCO, [Internet Universality Indicators](#), 2019
- Ranking Digital Rights (RDR), [2019 RDR Corporate Accountability Index](#), 2019
- Broadband Commission for Sustainable Development, [The State of the Broadband](#), 2019
- ITU, [Measuring Digital Development](#), 2019
- ITU, [Measuring Information Society Report](#), 2018
- UNICEF, [Children and Digital Marketing Industry Toolkit](#), 2018
- Broadband Commission for Sustainable Development, [Digital health](#), 2017
- Broadband Commission for Sustainable Development, [Digital Skills for life and work](#), 2017
- Broadband Commission for Sustainable Development, [Digital gender divide](#), 2017
- UNICEF, [Privacy, protection of personal information and reputation](#), 2017
- UNICEF, [Freedom of expression, association, access to information and participation](#), 2017
- UNICEF, [Access to the Internet and digital literacy](#), 2017
- UN CRC, [Guidelines on effective protection of children from sexual exploitation](#), 2019

Qo'shimcha materiallar veb-saytning tegishli bo'limida mavjud:

www.itu-cop-guidelines.com

1-qo‘shimcha: Atamalar

Quyida keltirilgan ta’riflar, asosan, 1989-yildagi Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya doirasida ishlab chiqilgan mavjud atamalarga, shuningdek, 2016-yildagi ⁷² Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo’ravonlikdan himoya qilish atamalar bo’yicha rahbariy ko’rsatmalar, (Lyuksemburg rahbariy ko’rsatmalari), 2012-yildagi ⁷³ Yevropa Kengashining Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya va jinsiy zo’ravonlikdan himoya qilish to’g’risidagi konvensiyasi, shuningdek 2019-yildagi⁷⁴ Global Kids Online hisoboti doirasida Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish bo’yicha idoralararo ishchi guruh tomonidan tuzilgan mavjud atamalarga asoslanadi.

O’smir

O’smir – bu 10 yoshdan 19 yoshgacha bo’lgan odamlar. Shuni ta’kidlash kerakki, xalqaro huquqda “o’smirlar” majburiy atamasi mavjud emas va 18 yoshgacha bo’lgan shaxslar bolalar deb hisobga olinadi, 19 yoshdagilar voyaga yetgan deb hisoblanadilar agar milliy qonunchilikka muvofiq balog’atga yetish vaqtliroq kelgan holatlar bundan mustasno⁷⁵.

Sun’iy intellekt (SI)

Keng ma’noda ushbu atama sof ilmiy fantastika sohasiga tegishli tizimlarni (“kuchli” Sllar o’zini anglash xususiyatiga ega) hamda amalda mavjud bo’lgan va juda murakkab vazifalarni bajarishga qodir bo’lgan tizimlarni (“zaif” yoki “o’rtacha” Sllar, masalan, yuz yoki ovozni aniqlash va transport vositasini boshqarish) anglatadi⁷⁶.

Sun’iy intellekt tizimlari

SI tizimi - bu inson tomonidan belgilangan maqsadlar to’plami uchun real yoki virtual muhitga ta’sir ko’rsatadigan prognozlar qilish, tavsiyalar beradigan yoki qarorlar qabul qiladigan mashinalar asosidagi tizim va u turli darajadagi avtonomlik bilan ishlashga mo’ljallangan⁷⁷.

Bolaning eng yaxshi manfaatlari

Muayyan bola yoki bolalar guruhi uchun muayyan vaziyatda qaror qabul qilish uchun zarur bo’lgan barcha elementlarni tavsiflaydi⁷⁸.

Bola

Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, agar milliy qonunchilikka muvofiq

⁷² “Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse,” 2016, 114, <http://luxembourgguidelines.org/wp-content/uploads/2017/06/Terminology-guidelines-396922-EN.pdf>.

⁷³ Council of Europe, Conseil de l’Europe, and Council of Europe, Protection of Children against Sexual Exploitation and Sexual Abuse: Council of Europe Convention (Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2012), https://www.coe.int/t/dg3/children/1in5/Source/Lanzarote%20Convention_EN.pdf.

⁷⁴ Globalkidsonline.net, “Done Right, Internet Use Can Increase Learning and Skills,” November 2019, <http://globalkidsonline.net/synthesis-report-2019/>.

⁷⁵ UNICEF and ITU, Guidelines for Industry on Child Online Protection (itu.int/cop, 2015), https://www.itu.int/en/cop/Documents/bD_Broch_INDUSTRY_0909.pdf.

⁷⁶ Council of Europe, “What’s AI?,” coe.int, Artificial Intelligence, 2020-yil 16-yanvarda kiritilgan, <https://www.coe.int/en/web/artificial-intelligence/what-is-ai>.

⁷⁷ OECD, “Recommendation of the Council on Artificial Intelligence” (OECD, 2019), <https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:hTtMv9k1ak8J:https://legalinstruments.oecd.org/api/print%3Fids%3D648%26lang%3Den+&cd=3&hl=en&ct=clnk&gl=ch&client=safari>.

⁷⁸ OHCHR, “Convention on the Rights of the Child,” 2020-yil 16-yanvarda kiritilgan, <https://www.ohchr.org/en/professionalinterest/pages/crc.aspx>.

balog'atga yetishning nisbatan vaqtliroq yoshi ko'zda tutilmagan bo'lsa, 18 yoshga to'lmagan har qanday shaxs bola deb hisoblanadi⁷⁹.

Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va ularga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar (CSEA)

Ushbu tushuncha jinsiy ekspluatatsiya va shahvoniy suiiste'mollikning barcha shakllarini tavsiflaydi, masalan, (BHK, 1989-yil. 34-modda), a) bolani har qanday noqonuniy jinsiy faoliyatga undash yoki majburlash; b) bolalarni fohishalikda yoki boshqa noqonuniy shahvoniy amaliyotlarda ekspluatatsiya qilish; c) bolalardan pornografiya va pornografik materiallarda ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanish, shuningdek "bolaning roziligisiz kuch ishlatib jinsiy aloqa qilish". Bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi va ularga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik tobora ko'proq Internet orqali sodir bo'lmoqda yoki u yoxud shu tariqa onlayn muhit bilan bog'liq.⁸⁰

Bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va ularga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallar (CSAM)

AKTning jadal rivojlanishi onlayn muhitda virtual tarzda amalga oshirilishi mumkin va har doim ham bola bilan jismoniy yuzma-yuz uchrashuvni ko'zda tutmaydigan bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish va ularga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi⁸¹. Garchi ko'pgina yuridik tizimlarda hali ham bolalarning jinsiy zo'ravonligi tasvirlari va videolarini "bolalar pornografiyasi" yoki "bolalar haqidagi odobsiz tasvirlar" deb atasa-da, ushbu Rahbariy ko'rsatmada umumlashtirib bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallar (bu yerda va bundan keyin - CSAM) deb nomlanadi. Bu atama Keng polosali ulanish bo'yicha komissiya ko'rsatmalariga va WePROTECT Global alyanc tomonidan ishlab chiqilgan milliy darajada javob modeliga mos keladi⁸². Ushbu atama mazkur kontentni aniqroq tavsiflaydi. Pornografiya qonuniy, tijoratlashgan ishlab chiqarishni ko'zda tutadi; Lyuksemburg rahbariy ko'rsatmalarida "bolalar pornografiyasi" atamasining quyidagi ta'rifi beriladi:

"U (bolalar pornografiyasi) (ixtiyoriy yoki beixtiyoriy) mohiyatiga ko'ra bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik va/yoki ularni jinsiy ekspluatatsiya qilishning og'irlik darajasini yengillashtirish, ahamiyatini kamaytirish yoki hatto qonuniylashtirishga xizmat qilishi mumkin. "Bolalar pornografiyasi" atamasi barcha xatti-harakatlar bolaning roziligi bilan amalga oshirilgandek talqin qilish xavfini hosil qiladi va jinsiy tusdagi qonuniy materialdan iborat⁸³.

CSAM atamasi bolaga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik va/yoki ularni jinsiy ekspluatatsiya qilish

⁷⁹ OHCHR; UNICEF and ITU, *Guidelines for Industry on Child Online Protection*.

⁸⁰ "Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse."

⁸¹ "Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse"; UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)."

⁸² WePROTECT Global Alliance, "Preventing and Tackling Child Sexual Exploitation and Abuse (CSEA): A Model National Response.," 2016, <https://static1.squarespace.com/static/5630f48de4b00a75476ecf0a/t/582ba50bc534a51764e8a4ec/1479255310190/WePROTECT+Global+Alliance+Model+National+Response+Guidance.pdf>; Broadband Commission, "Child Online Safety: Minimizing the Risk of Violence, Abuse and Exploitation Online (2019)."

⁸³ "Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse."

hisoblanadigan harakatlarni ifodalovchi materialga tegishli. Bularga kattalar tomonidan bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallar; behayo shahvoniy xatti-harakatlarga jalb qilingan bolalar, bolalarning jinsiy a'zolari ifodalangan tasvirlar, tasvirlardan asosan shahvoniy maqsadlarda ishlab chiqariladigan yoki foydalaniladigan holatlarda.

Bolalar va yoshlar

18 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarni tavsiflaydi, bunda "bolalar" (ushbu XTI rahbariy ko'rsatmasida "yosh bolalar" deb ham ataladi) 15 yoshgacha bo'lgan barcha shaxslarni qamrab oladi, "yoshlar" esa 15-18 yoshdagi shaxslarni o'z ichiga oladi.

Internetga ulangan o'yinchoqlar

Bunday o'yinchoqlar Wi-Fi va Bluetooth kabi texnologiyalar yordamida internetga ulanadi va odatda bolalar uchun interaktiv o'yinni yoqish uchun qo'shimcha ilovalar bilan birgalikda ishlaydi. Juniper Research ma'lumotlariga ko'ra, 2015-yilda internetga ulangan o'yinchoqlar bozorining hajmi 2,8 milliard AQSH dollarini tashkil etgan va 2020-yilga kelib 11 milliard AQSH dollariga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda. Bu o'yinchoqlar bolalarning ismlari, geolokatsiyasi, manzillari, fotosuratlar, audio va video yozuvlari kabi shaxsiy ma'lumotlarini to'playdi va saqlaydi ⁸⁴.

Kiberta'qib, shuningdek onlayn muhitdagi ta'qib deb ham ataladi

Xalqaro huquqda kiberta'qibning ta'rifi yo'q. Kiberta'qib raqamli texnologiyalardan foydalangan holda guruh yoki shaxs tomonidan qayta-qayta amalga oshirilgan va o'zini himoya qila olmaydigan jabrlanuvchiga qaratilgan qasddan tajovuzkor harakatni tasvirlaydi⁸⁵. Bu odatda "raqamli texnologiya va internetdan kimgadir haqoratli ma'lumotlarni joylashtirish, shaxsiy ma'lumotlar, fotosuratlar yoki videolar bilan qasddan zararli tarzda bo'lishish, ko'rish, tahdidli yoki haqoratli xabarlar (elektron pochta, tezkor xabarlar, chat yoki matnlar orqali) yuborish, mish-mishlarni tarqatish, jabrlanuvchi to'g'risida yolg'on ma'lumot berish yoki ularni onlayn muloqotdan qasddan chiqarib tashlash va boshqalarni o'z ichiga oladi"⁸⁶. Bu to'g'ridan-to'g'ri (masalan, chatlarda va matnli xabarlarda), kirish cheklangan hamjamiyat ichida (elektron pochta manzillari ro'yxatiga xabarlar va bezovta qiluvchi xabarlar yuborish) yoki hamma foydalanadigan (masalan, jabrlanuvchilarni ataylab masxaralash uchun veb-saytlarni yaratish) amalga oshirilishi mumkin.

Kibernafat, kamsitish va zo'ravonlik ekstremizmi

"Kibernafat, kamsitish va zo'ravonlik ekstremizmi kabi kiberzo'ravonlikning aniq shaklidir, chunki ular alohida odamlarga qarshi emas, balki jamoaviy o'ziga xoslikka qarshi qaratilgan, ko'pincha irqiy, jinsiy oriyentatsiya, din, millat yoki immigratsiya maqomi, jins/gender tegishliligi va siyosiy jihatlarga qaratilgan

⁸⁴ Jeremy Greenberg, "Dangerous Games: Connected Toys, COPPA, and Bad Security," Georgetown Law Technology Review, December 4, 2017, <https://georgetownlawtechreview.org/dangerous-games-connected-toys-coppa-and-bad-security/GLTR-12-2017/>.

⁸⁵ Anna Costanza Baldry, Anna Sorrentino, and David P. Farrington, "Cyberbullying and Cybervictimization versus Parental Supervision, Monitoring and Control of Adolescents' Online Activities," Children and Youth Services Review 96 (January 2019): 302–7, <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2018.11.058>.

⁸⁶ UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)"; "Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse."

bo'ladi"⁸⁷.

Raqamli fuqarolik

Raqamli fuqarolik-raqamli muhitda ijobiy, tanqidiy va malakali ishtirok etish, samarali muloqot qilish va yaratish ko'nikmalariga tayanish, texnologiyadan mas'uliyatli foydalanish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatini hurmat qiladigan ijtimoiy ishtirok etish shakllarini amalda qo'llash qobiliyatini anglatadi⁸⁸.

Raqamli savodxonlik

Raqamli savodxonlik kommunikatsiyalar va axborotdan foydalanish internet-platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalar kabi raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali tobora ko'proq ta'minlanayotgan jamiyatda yashash, o'rganish va ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar mavjudligini bildiradi⁸⁹. U o'z ichiga bevosita kommunikatsiyalar, texnik ko'nikmalar va tanqidiy fikrlashni oladi.

Raqamli muhit ta'siriga chidamlilik

Bu atama bolaning onlayn muhitdagi zararli omillar bilan emotsional jihatdan yenga olish qobiliyatini tavsiflaydi. Shuningdek, raqamli muhitning ta'siriga chidamlilik bolaning onlayn xavf ostida bo'lganini tushunish, yordam so'rashga qanday murojaat qilish, tajriba orttirish va muvaffaqiyatsiz tajribadan so'ng tiklanish uchun zarur bo'lgan emotsional resurslar mavjudligini ko'zda tutadi⁹⁰.

O'qituvchilar

O'qituvchi - boshqa shaxsning ma'lum bir fan bo'yicha bilimni oshirish uchun tizimli ravishda ishlaydigan shaxs. O'qituvchining roli maktabda ishlashni ham, norasmiy o'qitish faoliyatini ham o'z ichiga oladi, masalan, onlayn muhitda xavfsizlik to'g'risida ma'lumot berish yoki bolalar va yoshlarni onlayn muhitda xavfsizligini ta'minlash uchun jamoat yoki maktabda o'quv kurslarini o'tkazish uchun ijtimoiy tarmoqlar saytlarining platformalaridan foydalaniladi.

O'qituvchining ishi ular ishlayotgan sharoitga va ular ta'lim bermoqchi bo'lgan bolalar va yoshlarning (yoki kattalarning) yosh guruhiga qarab o'zgaradi.

Gruming/onlayn muhitdagi gruming

Lyuksemburg rahbariy ko'rsatmasida ta'riflanganidek, gruming/onlayn muhitdagi gruming "bola bilan onlayn yoki oflayn jinsiy aloqani osonlashtirish uchun shaxsan yo Internet yoki boshqa raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali munosabatlarni o'rnatish/qurish jarayonini anglatadi". Bu bolani jinsiy aloqada bo'lishga ko'ndirish uchun u bilan do'stlashish jinoiy faoliyatidir⁹¹. Bolalarni jinsiy zo'ravonlikka ko'proq chaqirish uchun ularni o'zlari bilgan holda ham, bilmasdan jinsiy faoliyat yoki suhbatlarga jalb qilish uchun mo'ljallangan jarayon yoki jinoyatchi va bola o'rtasida aloqa va munosabatlarni o'rnatishni o'z ichiga olgan jarayon hisoblanadi. Gruming atamasi xalqaro huquqda aniqlanmagan; ba'zi yurisdiksiyalar, shu jumladan Kanada, "o'ziga jalb qilish" atamasidan foydalanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)

⁸⁷ UNICEF, "Global Kids Online Comparative Report (2019)."

⁸⁸ Council of Europe, "Digital Citizenship and Digital Citizenship Education," Digital Citizenship Education, 2020-yil 16-yanvarda kiritilgan, <https://www.coe.int/en/web/digital-citizenship-education/home>.

⁸⁹ Western Sydney University-Claire Urbach, "What Is Digital Literacy?," 2020-yil 16-yanvarda kiritilgan, https://www.westernsydney.edu.au/studysmart/home/digital_literacy/what_is_digital_literacy.

⁹⁰ Dr. Andrew K. Przybylski, et al., "A Shared Responsibility. Building Children's' Online Resilience Report" (ParentZone, University of Oxford and Virgin Media, 2014), <https://parentzone.org.uk/sites/default/files/Building%20Online%20Resilience%20Report.pdf>.

⁹¹ "Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse."

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosiy e'tibor kommunikatsiyalarga to'g'ri keladigan barcha axborot texnologiyalarini bildiradi. Bunga kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar, smartfonlar, o'yin moslamalari, televizorlar va soatlar kabi Internetga ulanadigan barcha xizmatlar va qurilmalar kiradi⁹². Shuningdek, radio, keng polosali aloqa, tarmoq uskunalari va yo'ldosh tizimlar kabi xizmatlarni ham o'z ichiga oladi.

Internet va u bilan bog'liq texnologiyalar

Endi smartfonlar, planshetlar, o'yin pristavkalari, televizorlar va noutbuklar, shuningdek oddiy kompyuterlar kabi turli xil qurilmalardan foydalanib internetga ulanish mumkin. Shu tariqa, kontekst boshqacha taklif qiladigan hollar bundan mustasno, internetga har qanday havola ulanish usullarining barcha turlarini qamrab olishini tushunish kerak. Internetning boyligi va murakkabligini ifodalash uchun "Internet va u bilan bog'liq texnologiyalar", "AKT va onlayn industriya" va "Internet xizmatlari" atamalari bir-birining o'rnida ishlatiladi.

Xabarnoma va o'chirish

Operatorlar va xizmatlarni yetkazib beruvchilar ba'zan iste'molchilar, jamoatchilik vakillari, huquqni muhofaza qilish organlari yoki ishonch telefoni tashkilotlaridan shubhali onlayn kontent haqida xabar oladilar. Xabar berish va o'chirish tartib-qoidalari kompaniya o'z xizmatlarida bunday kontent borligi to'g'risida xabardor ("xabarnoma") bo'lishi bilan o'q kompaniya tomonidan qonunga xilof kontentni (qonunga xilof kontent qonunchilikka muvofiq aniqlanadi) zudlik bilan olib tashlash ("o'chirish") bo'yicha kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar hisoblanadi.

Onlayn o'yinlar

"Onlayn o'yin" deganda, Internetga ulangan har qanday qurilma, jumladan, maxsus konsollar, kompyuterlar, noutbuklar, planshetlar va mobil telefonlar orqali har qanday turdagi bir yoki ko'p o'yinchilarga ega tijorat raqamli o'yinlarini o'ynash tushuniladi.

"Onlayn o'yin ekotizimi" bu e-sport, striming yoki video almashish platformalari orqali boshqalarning video o'yinlar o'ynashini tomosha qilish, bu odatda tomoshabinlarga o'yinchilar va tomoshabinlarning boshqa a'zolari haqida fikr bildirish yoki ular bilan muloqot qilish imkoniyatlarini taqdim etishidir⁹³.

Ota-ona nazorati vositalari

Foydalanuvchilarga, asosan, ota-onalarga Internetga ulanishi mumkin bo'lgan kompyuter yoki boshqa qurilmaning ba'zi yoki barcha funksiyalarini boshqarish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot. Odatda, bunday dasturlar veb-saytlar yoki onlayn xizmatlarning alohida turlari yoki ko'rinishlariga kirishni cheklashi mumkin. Ba'zilari, shuningdek, vaqtni boshqarish imkoniyatini ham beradi, ya'ni qurilma faqat ma'lum soatlar oralig'ida Internetga kirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin. Mukammallashtirilgan versiyalar qurilmadan yuborilgan yoki qabul qilingan barcha matnlarni yozib olishi mumkin. Ko'p hollarda, dasturlar parol bilan himoyalangan bo'ladi⁹⁴.

⁹² UNICEF and ITU, *Guidelines for Industry on Child Online Protection*.

⁹³ UNICEF, "Child Rights and Online Gaming: Opportunities & Challenges for Children and the Industry," DISCUSSION PAPER SERIES: Children's Rights and Business in a Digital World, 2019, https://www.unicef-irc.org/files/upload/documents/UNICEF_CRBDigitalWorldSeriesOnline_Gaming.pdf.

⁹⁴ UNICEF and ITU, *Guidelines for Industry on Child Online Protection*.

Ota-onalar va vasiylar

Internetdagi bir qator saytlarda ota-onalar haqida umumiy eslatma mavjud (masalan, “ota-ona sahifasida” yoki “ota-ona nazorati” haqida eslatma). Shu sababli, bolalar va yoshlar tomonidan Internet saytlaridan xavfsiz va mas’uliyatli foydalanishni ta’minlash bilan birga, bolalarga Internet imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish imkoniyatini beradigan shaxslarni aniqlash va ularga ma’lum Internet saytlariga kirishga rozilik berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu hujjatda “ota-ona” atamasi bola uchun yuridik jihatdan javobgar bo’lgan har qanday shaxsni (o’qituvchidan tashqari) anglatadi. Ota-onalarning javobgarlik darajasi, shuningdek, ota-onalarning yuridik huquqlari turli mamlakatlarda har xil.

Shaxsiy axborot

Bu atama onlayn rejimda to’planadigan shaxs to’g’risidagi individual aniqlanadigan axborotni ifodalaydi. Bunga to’liq ism, bog’lanish uchun ma’lumotlar, masalan, uy va elektron pochta manzillari, telefon raqamlari, barmoq izlari yoki yuzni tanish materiallari, sug’urta raqamlari yoki shaxs bilan jismoniy yoki onlayn aloqa qilish yoki shaxsning joylashgan manzilini aniqlash imkonini beruvchi boshqa omillar kiradi. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiy ma’lumotlar sifatida onlayn xizmatlarni yetkazib beruvchilar, jumladan, internetga ulangan o’yinchoqlar, buyumlar Interneti va boshqa Internetga ulangan har qanday boshqa texnologiyalar tomonidan onlayn rejimda to’planadigan bola va uning atrofida qilar haqidagi har qanday axborot tushuniladi.

Maxfiylik

Konfidensiallik ko’pincha shaxsiy ma’lumotlarni onlayn muhitda tarqatish, ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda ochiq profilga ega bo’lish, internetda notanish odamlar bilan axborot almashish, konfidensiallik sozlamalaridan foydalanish, parollarni do’stlarga berish va konfidensiallikni saqlash muhimligini anglashdan kelib chiqib baholanadi⁹⁵.

Seksting

Seksting, odatda, mobil telefonlar va/yoki Internet orqali o’zlari tomonidan ishlab chiqilgan shahvoniy kontentni, shu jumladan rasmlar, xabarlar yoki videolarni yuborish, qabul qilish yoki almashish sifatida ta’riflanadi⁹⁶. Ko’pgina mamlakatlarda bolalarning shahvoniy tasvirlarini yaratish, tarqatish va saqlash noqonuniy hisoblanadi. Agar bolalarning o’zlari tomonidan suratga olingan shahvoniy tasvirlari oshkor etilsa, kattalar ularni ko’rmasligi kerak. Kattalar tomonidan bola bilan shahvoniy tasvirlarni almashish har doim jinoiy harakat bo’lib, zarar keltirishi mumkin va bunday tasvirlar haqida xabar berish, va xattoki, ularni olib tashlash lozim.

Jinsiy tovlamachilik yoki bolalarga nisbatan tovlamachilik

Shaxsni tovlamachilik yoki shahvoniy tovlamachilik (“onlayn jinsiy majburlash va tovlamachilik” deb ham

⁹⁵ “Children’s Online Privacy Protection Act,” Pub. L. No. 15 U.S.C. 6501-6505 (1998), <https://uscode.house.gov/view.xhtml?req=granuleid%3AUSC-prelim-title15-section6501&edition=prelim>.

⁹⁶ “Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse.”

yuritiladi)⁹⁷ “shaxsning o‘zi yaratgan suratlari yordamida undan shahvoniy manfaatlar, pul yoki boshqa manfaatlarni undirish maqsadida shantaj qilish”ni tasvirlaydi. tasvirlangan shaxsning roziligisiz materialni baham ko‘rish tahdidi ostida (masalan, tasvirlarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish)”⁹⁸.

Buyumlar internet (IoT)

Buyumlar interneti jamiyatimiz va iqtisodiyotimizni raqamlashtirish yo‘lidagi navbatdagi qadami bo‘lib, bu yerda obektlar va odamlar aloqa tarmoqlari orqali o‘zaro bog‘langan hamda ularning holati va/yoki atrofdagi muhit haqida hisobot berib boriladi⁹⁹.

URL

Ushbu qisqartma ingl. “uniform resource locator”, ya‘ni resursning universal ko‘rsatkichi” – Internetdagi sahifaning manzili¹⁰⁰.

Virtual reallik

Virtual reallik - bu kompyuter texnologiyalari yordamida obyektlar makonda real mavjud sifatida qabul qilinadigan uch o‘lchamli olam effektini yaratish¹⁰¹.

Wi-Fi

Wi-Fi (ingl.«Wireless Fidelity” – simsiz uzatishning yuqori aniqligi) — simsiz tarmoqlar orqali ma‘lumotlarni uzatish imkonini beruvchi texnik standartlar guruhi¹⁰².

⁹⁷ Europol, “Online Sexual Coercion and Extortion as a Form of Crime Affecting Children: Law Enforcement Perspective” (European Cybercrime Centre, May 2017), https://www.europol.europa.eu/sites/default/files/documents/online_sexual_coercion_and_extortion_as_a_form_of_crime_affecting_children.pdf.

⁹⁸ “Luxembourg Terminology Guidelines for the Protection of Children from Sexual Exploitation and Sexual Abuse.”

⁹⁹ Ntantko, The Internet of Things, 1 October 2013, Digital Single Market - European Commission, <https://ec.europa.eu/digital-single-market/en/internet-of-things>.

¹⁰⁰ UNICEF and ITU, *Guidelines for Industry on Child Online Protection*.

¹⁰¹ NASA, “Virtual Reality,” [nas.nasa.gov](https://www.nasa.gov/Software/VWT/vr.html), 2020-yil 16-yanvarda kiritilgan <https://www.nasa.gov/Software/VWT/vr.html>.

¹⁰² Children’s Online Privacy Protection Act.

2-qo‘shimcha: Bolalar va yoshlarga qarshi aloqa jinoyatlari

Bolalar va yoshlar uchun internetda yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lgan ko‘plab nomunosib va nomaqbul aloqalarga duch kelishlari mumkin. Ushbu aloqaning ba‘zilari shahvoniy tabiatga ega bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar va yoshlarning 22 foizi internetda ta‘qibga ¹⁰³, shilqimlikka yoki quvg‘inga uchragan; 24 foizi yoqmaydigan shahvoniy izohlarni¹⁰⁴ olgan; 8 foizi real hayotda bungacha faqat onlayn aloqada bo‘lgan odamlar bilan uchrashgan ¹⁰⁵. Garchi raqamlar mamlakatlar va mintaqalarga qarab farq qilsa-da, ular xavflar haqiqiy ekanligini ko‘rsatadi ¹⁰⁶. Amerika Qo‘shma Shtatlarida ¹⁰⁷ o‘tkazilgan bir Internet tadqiqotida o‘smirlarning 32 foizi mutlaqo notanish odam bilan muloqot qilgani, ularning 23 foizi suhbat davomida qo‘rqishganini va o‘zlarini noqulay xis qilishganini aytishgan; va 4 foizi doimiy va tajovuzkor jinsiy zo‘ravonlikka duch kelishgan.

Shahvoniy Internet-yirtqichlar internetdan bolalar va yoshlar bilan shahvoniy maqsadlarda muloqot qilish uchun foydalanadilar, ko‘pincha “gruning” deb nomlanuvchi usullardan foydalanadilar, ular yordamida bolaning manfaatlariga murojaat qilib, uning ishonchini qozonadilar. Ular ko‘pincha kichik yoshdagi qurbonlarining irodasini yo‘q qilish, sezgirligini kamaytirish, jinsiy xabardorligini oshirish uchun shahvoniy mavzular, tasvirlar va hamma tushunadigan til vositalarini taqdim etadilar. Bolani yoki yoshlarni ta‘qib qilish va yo‘ldan ozdirish uchun sovg‘alar, pullar, hatto transport chiptalaridan foydalanib, Internet-yirtqichlar unga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik qilishi mumkin bo‘lgan joyga jalb qilish uchun ishlatiladi. Ushbu uchrashuvlar hatto tasvir yoki videoga olinishi mumkin. Bolalar va yoshlarda ko‘pincha emotsional yetuklik va o‘zini o‘zi qadrlash hissi yetishmaydi, bu ularni manipulyatsiya va zo‘ravonlik oldida himoyasiz qiladi. Shuningdek, noqulay ahvolga tushib qolish yoki Internetga kirishdan mahrum bo‘lishdan qo‘rqib, kattalarga uchrashuvlari haqida gapirishga qo‘rqishadi. Ba‘zi hollarda ular internet-yirtqichlar tomonidan qo‘rqitilib, ularni bu aloqani sir saqlashga majburlashadi. Bundan tashqari, shahvoniy Internet-yirtqichlar Internet forumlar va chatlarda bir-birlaridan o‘rganadilar.

¹⁰³ U-report (2019), <http://www.ureport.in/v2/>.

¹⁰⁴ Project deSHAME (2017), https://www.childnet.com/ufiles/Project_deSHAME_Dec_2017_Report.pdf.

¹⁰⁵ Lenhardt, A., Anderson, M., Smith, A. (2015), Teens, Technology and Romantic Relationships, <https://www.pewresearch.org/internet/2015/10/01/teens-technology-and-romantic-relationships/>

¹⁰⁶ Livingstone, S., Haddon, L., Görzig, A., and Ólafsson, K. (2011). *Risks and safety on the internet: The perspective of European children. Full findings*. LSE, London: EU Kids Online, <http://eprints.lse.ac.uk/33731/>.

¹⁰⁷ Amanda Lenhart et al., “The Use of Social Media Gains a Greater Foothold in Teen Life as They Embrace the Conversational Nature of Interactive Online Media.,” *Pew Internet and American Life Project*, 2007, 44, https://www.pewinternet.org/wp-content/uploads/sites/9/media/Files/Reports/2007/PIP_Teens_Social_Media_Final.pdf.pdf.

3-qo'shimcha: WePROTECT Global alyansi

WePROTECT namunaviy milliy javob qaytarish choralari modeli

WePROTECT Global alyansi strategiyasi mamlakatlarga namunaviy milliy javob choralari modeliga asoslanib, onlayn muhitda bolaning jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish uchun muvofiqlashtirilgan ko'p tomonlama javob choralari ishlab chiqishda yordam beradi. WePROTECT Global alyansi namunaviy milliy javob qaytarish choralari modeli milliy miqyosda qabul qilinishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar dasturi sifatida ishlaydi. Bu mamlakatlarga onlayn muhitda bolaning jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish uchun asos yaratadi. Ushbu namunaviy milliy javob qaytarish choralari modeli mamlakatga yordam berish uchun mo'ljallangan:

- onlayn muhitda bolani jinsiy ekspluatatsiya qilish muammosiga hozirgi vaqtda javob choralari va kamchiliklarni aniqlash;
- kamchiliklarni to'ldirish bo'yicha milliy darajada ustuvor sa'y-harakatlarni belgilash;
- xalqaro miqyosda tushuncha va hamkorlikni mustahkamlash.

Model muayyan harakatlarning majburiy xususiyatini nazarda tutmaydi va faqat bitta yondashuvni nazarda tutmaydi. Modelning maqsadi bolalarni samarali himoya qilish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni tavsiflash va mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish yoki kengaytirishda mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashdir. Shuningdek, u rag'batlantiruvchi omillar ro'yxatini o'z ichiga oladi, agar ular amalga oshirilsa va samarali bo'lsa, natijalarga erishishni tezlashtiradi va ularni yaxshilaydi. Model oltita blokka birlashtirilgan yigirma bitta imkoniyatni, ya'ni siyosat va boshqaruv, jinoyatga oid, adliya, jabrlanuvchilar, ijtimoiy masalalar, tarmoq, ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyalarni o'z ichiga oladi. WePROTECT ma'lumotlariga ko'ra, barcha oltita blokda harakatlar ushbu turdagi jinoyatlarga har tomonlama milliy choralar ko'rishni ta'minlaydi.

Ushbu model, ishning hozirgi holatidan qat'i nazar, mamlakatga imkoniyatlar sohasidagi kamchiliklarni aniqlashga va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun rejalashtirishni boshlashga imkon beradi. Mamlakatlar o'zlarining individual yondashuvlarini ishlab chiqadilar, ammo buni umumiy kelishilgan doirada va imkoniyatlarni tushunish kontekstida amalga oshirish orqali milliy va xalqaro miqyosda manfaatdor tomonlar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va hamkorlikni davom ettirish mumkin.

WePROTECT global strategik javob qaytarish choralari

WePROTECT Global alyansining global strategik javob qaytarish choralari - bu onlayn muhitda bolaning jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish uchun muvofiqlashtirilgan yondashuv bo'lib, u global muammolarni chuqurroq tushunishni, milliy yondashuvlarni xalqaro uyg'unlashtirishni va milliy javob choralaridan tashqari global echimlarni o'z ichiga oladi. Global strategik javob qaytarish choralari MJM bilan bog'liq komponent hisoblanadi; MJM milliy darajadagi onlayn muhitda bolaning jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarga qaratilgan bo'lsa-da, Global strategik javob qaytarish choralari xalqaro hamkorlik va salohiyatni oshirishning ustuvor yo'nalishlariga qaratilgan.

Global strategik choralar oltita tematik sohani o'z ichiga oladi, ularning har biri zarur imkoniyatlar va kutilayotgan natijalar, shuningdek, ularga erishish uchun turli mamlakatlar bo'ylab birgalikda ishlashi kerak bo'lgan hamkorlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Siyosat va qonunchilik

Jinoiy huquqbuzarliklarga yondashuvni samarali muvofiqlashtirish uchun qonunchilikni, harakat qilish uchun siyosiy irodani rivojlantirish onlayn muhitda bolaning jinsiy ekspluatatsiyasiga qarshi kurashish bo'yicha yuqori darajadagi milliy va xalqaro miqyosda majburiyatlarining yangilanishiga olib keladi.

Jinoiy adolat

Axborot almashish, shu jumladan rasmiy ma'lumotlar almashish tuzilmalari orqali xalqaro ma'lumotlar bazalaridan birgalikda foydalanish, ixtisoslashtirilgan, o'qitilgan xodimlar va onlayn muhitda bolani jinsiy ekspluatatsiya qilishga qarshi kurashish tajribasiga ega prokurorlar bilan birgalikda jinoyatchilarni aniqlash, ta'qib qilish va shu jumladan muvaffaqiyatli tergov va hukmlar orqali hibsga olishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Jabrlanganuvchilar tomonidan ariza berilishi, yordam ko'rsatish xizmatlari

Jabrlanuvchilarni samarali va o'z vaqtida qo'llab-quvvatlash, shu jumladan shaxsiy identikligini himoya qilish va sodir bo'lgan voqea haqida xabar berish, jabrlanuvchilarga zarur bo'lganda kerakli yordamdan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga yordam beradi.

Texnologiya

Zararli tarkibdagi materiallarni, oqimli eshittirish va onlayn grumingni aniqlash, bloklash va tarqalishining oldini olish uchun texnik yechimlardan, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanish, ko'plab texnologik sektor vakillarining majburiy va izchil ishtirokini talab qiladi, ushbu platformalardan onlayn muhitda bolani jinsiy ekspluatatsiya qilish vositasi sifatida foydalanmaslik imkonini beradi.

Ijtimoiy masalalar

Umuman olganda, jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan bir qator chora-tadbirlar mavjud bo'lib, ular birgalikda bolalar qayerda yashashlaridan qat'i nazar, onlayn muhitda bola jinsiy ekspluatatsiyadan himoya qilish imkoniyatini beradi. Loyiha darajasida raqamli madaniyatning xavfsizligini ta'minlash (xavfsizlik funksiyalari o'rnatilganda) va ommaviy axborot vositalarini yoritishga axloqiy va izchil yondashish onlayn muhitda qonunga xilof bo'lgan tarkibga kirishni cheklaydi. Shu bilan birga, bolalar va ota-onalar, vasiylar va mutaxassislariga qaratilgan ta'lim va targ'ibot ishlari, shuningdek huquqbuzarlarga nisbatan maqsadli choralari – bularning barchasi bolaning onlayn muhitda jinsiy ekspluatatsiya qilinishining oldini olish yoki ularning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan.

Masalani tadqiq qilish va tushunish

Va nihoyat, tahdidlarni baholash (masalan, Global Threat Assessment 2019) va huquqbuzarlarga bag'ishlangan va jabrlanuvchilarning uzoq muddatli jarohatlanishi bilan bog'liq tadqiqotlar - hukumat, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik jamiyati, akademik doiralar va tarmoq uchun hozirgi tahdidlar haqida aniq tushuncha beradi.

4-qo‘shimcha: Onlayn muhitda zarar manbalariga qarshi harakat qilish choralari (misollar)

Bu yerda keltirilgan misollar XTIga hissalarining mualliflari va rahbariy ko‘rsatmalarining mualliflari tomonidan tuzilgan.

Onlayn muhitdagi zarar manbalar haqida bolalarni xabardorligini oshirish

VVS kompaniyasining [Own IT ilovasi](#) – birinchi smartfonini olgan 8-13 yoshli bolalarning tinchligini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan ilova. Ushbu ilova bolalarning smartfonlaridagi harakatlarini kuzatish uchun mashinaviy o‘rganish ilg‘or texnologiyalari va bolalarning o‘zlarining emotsional holati haqida mustaqil ravishda xabar berish imkoniyatini birlashtiradi, bunda ushbu axborotdan moslashtirilgan kontentni taqdim etish va onlayn muhitda bolalarning baxtli va sog‘lom qolishiga yordam beradigan choralar ko‘rish uchun foydalaniladi.

Butun VVS kompaniyasi doirasida tayyorlanadigan maxsus mavzuli kontent sababli ilova foydali materiallar va resurslarni taqdim etadi, bu esa yoshlarga onlayn muhitda vaqtdan unumli foydalanishga va onlayn muhitda sog‘lom xulq-atvor va sog‘lom odatlarni shakllantirishga, shuningdek, yoshlar va ota-onalarga onlayn muhitdagi tajribalari haqida ko‘proq konstruktiv suhbatlar o‘tkazishlariga yordam beradi. Ilova shaxsiy ma‘lumotlarni ham, foydalanuvchi tomonidan yaratilgan kontentni ham to‘plamaydi, chunki butun mashinaviy o‘qitish foydalanuvchi ilovasida/qurilmasida bo‘ladi.

[Project Evolve](#) – raqamli kompetensiyalarga o‘rgatish kutubxonasi bo‘lib, u tegishli manbalar bilan to‘liq ta‘minlangan va barcha yoshdagi bolalarning raqamli ko‘nikmalarini tavsiflaydi; ushbu materiallar ota-onalar va o‘qituvchilarga bolalarda bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalarni tushunishga yordam beradi; shuningdek, ma‘lum ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun materiallar va vazifalar ham mavjud.

[360 degree safe](#) – bu maktablar uchun mo‘ljallangan onlayn o‘zini o‘zi nazorat qilish vositasi bo‘lib, u onlayn muhitda o‘z xavfsizligini har tomonlama ko‘rib chiqish va baholash imkoniyatini beradi, shuningdek aniq standartlarni ishlab chiqishda rahbarlik qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi.

[DQ instituti](#) – 2017-2019-yillar oralig‘ida DQ instituti tomonidan ilgari surilgan [#DQEveryChild](#) harakati – Singapurda Singtel ko‘magida boshlangan va 100 dan ortiq hamkor tashkilotlarni qamrab olgan Jahon iqtisodiy forumi bilan hamkorlik orqali tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotgan global raqamli fuqarolik harakati doirasida dunyoning 30 ta mamlakatida 145 426 ta bola va o‘spirinlarning ma‘lumotlari to‘plangan. Ushbu harakat bolalarning o‘z raqamli hayotining boshidanoq DQ World onlayn ta‘lim va baholash dasturi orqali raqamli fuqarolik bo‘yicha keng bilimga ega bo‘lishlarini ta‘minlashga qaratilgan. Ushbu harakat ma‘lumotlari 2020-yilda [onlayn muhitda bolalar xavfsizligi indeksini](#) yaratish uchun foydalanilgan. Indeksda tizimi oltita blokga birlashtirilgan 24 ta yo‘nalishdan foydalangan holda 30 mamlakatda onlayn muhitda bola xavfsizligi baholangan va tartibga keltirilgan.

Dq Pro Family Readiness to‘plami va DQ World onlayn dasturi ota-onalarga farzandining raqamli tayyorgarligini baholash va o‘quv materiallaridan foydalangan holda raqamli fuqarolik, ekran vaqtini boshqarish, kiberhujumlarga qarshi kurash, kiberxavfsizlikni boshqarish, raqamli birga qayg‘urish, raqamli izni boshqarish, tanqidiy fikrlash va konfidensiallikni boshqarish kabi raqamli kompetensiyalarni yaxshilash imkoniyatini beradi.

Avstraliyaning [Maktablar uchun elektron xavfsizlik vositalari komplekti](#) - bu xavfsizroq onlayn muhitni yaratishda maktablarni qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan resurslar to‘plami hisoblanadi. Vositalar komplekti onlayn xavfsizlikni o‘rgatishning ko‘p qirrali yondashuvni aks ettiradi va quyidagi resurslarga ega to‘rtta blokdan iborat:

- maktablarni onlayn muhitdagi xavfsizlik masalalarini hal qilishga tayyorligini baholashga tayyorlash va joriy amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;
- xavfsiz onlayn muhitni yaratishda ishtirok etish uchun barcha maktab hamjamiyatini jalb qilish;
- onlayn xavfsizlik bo‘yicha o‘qitishning eng yaxshi amaliyot namunalari o‘rgatish uchun xizmat

qiladi, maktablarga onlayn muhitda maktab hamjamiyatining xavfsizlik imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi;

- xavfsizlik va farovonlikni saqlagan holda, hodisalarga samarali javob berish. Polsha elektron aloqa vositalari boshqarmasining (UKE) [I Click Sensible](#) ta'lim kampaniyasi bolalar va ularning ota-onalariga onlayn muhitda qanday qilib xavfsizroq bo'lish va xavflarni qanday aniqlash va boshqarish haqida ma'lumot beradi.

Vyetnamning "ChildFund" kompaniyasi [Swipe Safe](#) tashabbusi bilan chiqdi. Ushbu dastur bolalarga kiberhujum, zo'rvonlik yoki shahvoniy suiiste'mollik kabi onlayn muhitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar haqida ma'lumot beradi va xavfsiz bo'lish bo'yicha maslahatlar beradi.

Keng polosali tarmoq komissiyaning [Texnologiyalar, keng polosali aloqa va ta'lim: «Ta'lim hamma uchun» dasturini tezlashtirilgan bajarish](#) bo'yicha hisoboti, 2013-yil

"Bolalarning onlayn muhitdagi tajribasi: o'zaro hamfikrlilikni va global miqyosda choralar ko'rishni ta'minlash" mavzusidagi tadqiqot, YUNICEF, 2019-yil.

[Global Kids Online tadqiqot loyihasi](#) turli xil onlayn zararlarga javob berishning eng yaxshi amaliyotlari haqida keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etadi

Tarmoq kompaniyalarini jalb qilishga misollar

Avstraliyaning elektron xavfsizlik bo'yicha komissariyati barcha avstraliyaliklarning onlayn muhitdagi tajribasi xavfsizroq va ijobiy bo'lishini ta'minlash uchun kuchli hamkorlik aloqalarini o'rnatadi va tarmoq kompaniyalari bilan hamkorlik qiladi. Masalan, uning "loyihalashtirish bosqichida xavfsizlik" tashabbusini keltirish mumkin. Ushbu tashabbus doirasida elektron xavfsizlik bo'yicha komissariat tomonidan foydalanuvchilarni himoya qilish uchun mas'ul bo'lgan tarmoq kompaniyalari, savdo organlari va tashkilotlari, shuningdek, ota-onalar, vasiylar va yoshlar bilan batafsil maslahatlashuvlar o'tkazildi. Loyihalashtirish bosqichidagi xavfsizlik tashabbusi tarmoq kompaniyalarini rag'batlantirish va ularga onlayn xizmatlar va platformalarni loyihalash, ishlab chiqish va joylashtirish bosqichlaridan boshlab foydalanuvchilar xavfsizligini ta'minlashda yordam berishga qaratilgan. Elektron xavfsizlik, shuningdek, xabarlarini yuborish va shikoyat qilish uchun uchta dasturni ya'ni kiberbulling dasturi, tasvirni suiiste'mol qilish dasturi va onlayn kontent dasturi boshqaradi. Elektron xavfsizlik bo'yicha komissariat ma'lum onlayn xizmat ko'rsatuvchi provayderlarga kontentni o'chirishni rasman buyurishi mumkin. Dasturlar asosan hukumat va tarmoq kompaniyalari o'rtasidagi hamkorlik modeli sifatida ishlayotgan bo'lsa-da, Elektron Xavfsizlik Komissariyati materiallarni olib tashlash bo'yicha mavjud vakolatlari muhim xavfsizlik tarmog'ini ta'minlaydi va tarmoq kompaniyalarini onlayn muhitdagi zararlarni bartaraf etishda faol bo'lishga undaydi

[Telia](#) kompaniyasi ulanish bilan bog'liq salbiy oqibatlarini tahlil qilish va ularni boshqarishni ta'minlash, shuningdek, Direktorlar kengashi darajasida to'liq shaffoflik va javobgarlikka erishish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, kompaniya bolalar va yoshlarga g'amxo'rlik ko'rsatib, ularni kompaniya xizmatlarining faol foydalanuvchilari sifatida e'tirof etadi.

[Polshaning elektron aloqa vositalari boshqarmasi \(UKE\)](#) fuqarolik jamiyati va bolalarni onlayn muhitda qanday hujjatlar imzolanganligini tushunish uchun tashviqot va targ'ibot kampaniyalarida ishtirok etishga jalb qiladi.

[Internet Watch Foundation](#) (Internetni nazorat qilish jamg'armasi) – bu bolalarga nisbatan jinsiy zo'rvonlik amaliyotini yo'q qilish maqsadida tarmoq kompaniyalari, davlat idoralari, huquqni muhofaza qilish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini birlashtirgan hamkor tashkilot hisoblanadi. 2020-yilda IWF tarkibiga platformalar va infratuzilma xizmatlari bo'yicha 152ta a'zoga ega bo'ldi; a'zolarga o'z platformalarida jinoiy tasvirlarning tarqalishini oldini olish bo'yicha bir qator xizmatlar taklif etiladi.

Qonunchilik bilan tartibga solish

Onlayn muhitda bolani himoya qilishga ustuvor ahamiyat berish uchun siyosiy irodani ifodalang– [Onlayn muhitda bolaning xavfsizligi to'g'risida umumjahon deklaratsiyasini](#) imzolang (Keng polosali tarmoq komissiyasi).

Tartibga solish

[Out of the Shadows: shining light on The Response to child sexual abuse and exploitation](#) ("Soyadan chiqish: bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik va ularni jinsiy ekspluatatsiya qilishga qarshi

choralarni yoritish”) (Economist Intelligence Unit, 2019) - bu mamlakatlarning bolalarga nisbatan jinsiy zo'rovonlik va ularning jinsiy ekspluatatsiyasiga, shu jumladan raqamli makonga va AKT kompaniyalari tomonidan qabul qilingan javob choralarga javob berish mezonlarini belgilaydigan yagona vosita hisoblanadi.

Onlayn muhitda bolalarga nisbatan suiiste'molliklarni aniqlash

Quyida onlayn muhitda bolalarga nisbatan suiiste'mollik holatlarini aniqlash bo'yicha yaxshi amaliyot misollari keltirilgan.

INHOPE: INHOPE tarmog'i 1999-yilda onlayn muhitda CSAM materiallariga qarshi kurashish uchun internetning bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallardan xoli makon sifatida yagona qarashlariga javoban tashkil etilgan. So'nggi 20 yil ichida tarmoqda CSAM materiallarining ko'payishi, ularning geografik tarqalishi va shafqatsizligi bilan muvaffaqiyatli kurashib INHOPE tarmog'i rivojlandi. Bugungi kunda INHOPE ishonch telefonlari barcha qit'alarda ishlaydi, xabarlarini qabul qiladi va CSAM materiallarini internetdan darhol olib tashlaydi, shuningdek huquqni muhofaza qilish organlari bilan axborot almashadi.

Microsoft PhotoDNA tasvir xeshlarini yaratadi va ularni allaqachon aniqlangan va CSAM materiallari sifatida tasdiqlangan xeshlar ma'lumotlar bazasi bilan taqqoslaydi. Agar o'xshashlik aniqlansa, tasvir bloklanadi. Ammo bu vosita yuzni aniqlash texnologiyasidan foydalanmaydi va tasvirdagi shaxs yoki obyektini aniqlay olmaydi. PhotoDNA for Video ixtiro etilishi bilan hamma narsa o'zgardi.

PhotoDNA for Video videoni asosiy kadrlarga ajratadi va asosan ekranning ushbu suratlari uchun xeshlar yaratadi. PhotoDNA aniqlanmaslik uchun o'zgartirilgan tasvirni aniqlay olganidek, PhotoDNA for Video tahrir qilingan yoki boshqa holda zararsiz bo'lgan videoga kiritilgan bolalarning jinsiy ekspluatatsiyasi bo'lgan kontentni topishi mumkin.

Microsoft kompaniyasi onlayn muhitdagi chatlarda bolalarning ishonchiga kiradigan bolalarni ovlaydigan Internet yirtqichlarini aniqlash yangi vositasini ishlab chiqdi. The Meat Group, Roblox, Kik va Thorn bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan **Project Artemis** Microsoftning patentlangan texnologiyasi asosida qurilgan va Thorn tashkiloti tomonidan chat funksiyasini taklif qiluvchi onlayn xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalarga bepul tarqatiladi. Project Artemis -bu ma'murlarni chatlarni har qanday moderatsiya qilish zarurligi to'g'risida ogohlantirishga yordam beradigan texnik vosita. Ushbu grumingni aniqlash texnikasi bolalarni jinsiy maqsadlarda qiziktirishga urinayotgan Internet yirtqichlarini aniqlash, ularga nisbatan choralar ko'rish va ular to'g'risida xabar berish imkonini beradi.

Thorn nodavlat tashkiloti odamni bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq materiallarni qidirishdan to'xtatish uchun reklama e'lonlarini ishlab chiqdi; uch yil davomida ushbu reklamalar million martalab to'rtta qidiruv tizimiga joylashtirildi. Shunga ko'ra, e'lonlarda ekspluatatsiya bilan bog'liq materialni qidirgandan so'ng yordam so'rab murojaat qilgan odamlarning 3 foizlik reytingi qayd etilgan. **Thorn's Safer** - CSAM materiallarini aniqlash va olib tashlash, shuningdek bunday materiallar to'g'risida xabarlar taqdim etish uchun bevosita xususiy kompaniya platformasida o'rnatish mumkin bo'lgan vosita.

Thorn Spotlight - bu Kanada va Amerika Qo'shma Shtatlaridagi barcha 50ta shtatlardagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jabrlanuvchilarni identifikatsiyalashni tezlashtirish va surishtiruv vaqtini 60% dan ko'proq qisqartirish imkoniyatini beradigan dasturiy ta'minot.

Ma'murlari ushbu platformada jinsiy ekspluatatsiyaga yo'l qo'ymaslik majburiyatini olgan **Geebo** e'lonlar saytida bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish holatlari hech qachon bo'lmagan. Ular buni qisman oldindan tekshirish protsedurasi mavjudligi tufayli amalga oshiradilar.

Google AI klassifikatoridan tarmoqlar, xizmatlar va platformalarda bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar bilan bog'liq materiallarni aniqlash uchun foydalanish mumkin. Ushbu vosita **Google Content Safety API** orqali bepul taqdim etiladi, bu kamroq sonli odamlar ishtirokida kontentni ko'rib chiqish imkoniyatini kengaytiradigan dasturlar to'plamidir. Ushbu vosita inson-mutaxassislariga qonunga xilof materiallar sifatida belgilanmagan tasvirlarga e'tibor qaratib, materiallarni yanada kattaroq hajmda ko'rishga va huquqbuzarlarni kuzatib borishga yordam beradi. Ushbu texnologiyadan birgalikda foydalanish tasvirlarni identifikatsiyalashni tezlashtiradi.

2015-yilda Google **YouTube**dagi bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik bilan bog'liq ma'lum

materiallarni o'z ichiga olgan yuklangan videolarni skanerlaydigan va identifikatsiyalaydigan o'z turidagi birinchi bo'lgan "barmoq izlari"ni olish va videolarni solishtirish texnologiyasi taqdim etib, o'zining xeshlar bilan ishini kengaytirdi.

2019-yilda bolalar xavfsizligi bo'yicha xakaton paytida **Facebook** bir xil va deyarli bir xil tasvirlar va videolarni aniqlaydigan ikkita texnologiyani ochiq manbaga o'tkazilishini e'lon qildi. Ushbu ikkita algoritmdan GitHub-da foydalanish mumkin bo'lib, ular xeshlar bilan almashish tizimlariga bir-biri bilan muloqot qilishiga imkon beradi va tizimlarni ancha kuchliroq qiladi.

IWF tashkilotining ishonch telefoni doimiy ravishda ishlaydi va nafaqat bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik elementlarini o'z ichiga olgan onlayn tasvirlarga duch kelgan jamoatchilik vakillarining minglab xabarlarini kuzatib boradi, balki Internetda ushbu qonunga xilof kontentni qidirishda ham noyob tashabbus vazifasini bajaradi. Iшонch telefonlari o'z ma'lumotlari va manbalaridan foydalanish imkoniyatini berish orqali ko'proq kontentni aniqlash va yo'q qilishga imkon beradi. Bundan tashqari, IWF doimiy ravishda Google, Microsoft, Facebook va boshqa unga a'zo kompaniyalar bilan texnik chegaralarni doimiy ravishda kengaytirish uchun ishlaydi. IWF yechim sifatida [xabarlarni yo'naltirish portalini](#) taklif etadi, bu esa ishonch telefonlari bo'lmagan mamlakatlardagi Internet foydalanuvchilariga bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollikning taxminiy elementlarini o'z ichiga olgan tasvirlar va videoroliklar haqida to'g'ridan-to'g'ri IWFga onlayn portalning maxsus sahifasi orqali xabar berish imkonini beradi.

IWF jabrlanuvchilarni qo'llab-quvvatlashga ixtisoslashgan Meri Kollinz Xayriya jamg'armasi bilan hamkorlikda yangi tashabbusni yo'lga qo'yimoqchi, unda yosh yigitlarni internetda sahifalarida duch kelishlari mumkin bo'lgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarning har qanday mustaqil yaratgan shahvoniy tasvirlari yoki videolari haqida xabar berishga chaqiradi.

Interpolda 50 dan ortiq mamlakatlarning ixtisoslashgan tergovchilariga bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik holatlari to'g'risida ma'lumot almashish imkonini beruvchi razvedka va tekshiruv vositasi bo'lgan tasvirlar va videolarni o'z ichiga olgan bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish bo'yicha xalqaro ma'lumotlar bazasi (ICSE)ni yaratilgan. Tasvirlar va videolarning raqamli, vizual va audio mazmunini tahlil qilib, jabrlanuvchini aniqlash bo'yicha mutaxassislar bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'molliklar qurbonlarini qidirish bo'yicha dalillarni aniqlashlari, ishdagi har qanday o'xshashliklarni aniqlashlari va kuchlarni birlashtirishlari mumkin. Hozirgi vaqtda Interpolning bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qilish ma'lumotlar bazasida 1,5 milliondan ortiq tasvir va videolar mavjud bo'lib, uning yordamida butun dunyo bo'ylab 19 400 jabrlanuvchilar aniqlandi.

NetClean ProActive - bu korporativ muhitda bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik tasvirlari va videolarni avtomatik ravishda aniqlaydigan signaturalarni taqqoslash va boshqa aniqlash algoritmlariga asoslangan dasturiy ta'minot.

Griffeye Brain kompaniyasi hech qanday toifaga kirmaydigan kontentni skanerlash, uni ma'lum CSAM kontentining atributlari bilan solishtirish va shubhali elementlarni agent tomonidan ko'rib chiqish uchun belgilashda sun'iy intellektdan foydalanadi.

RAINN tashkiloti jinsiy tajovuzga qarshi kurashish bo'yicha Milliy ishonch telefonini yaratdi, uni butun mamlakat bo'ylab 1000 dan ortiq mahalliy jinsiy zo'ravonlik haqida xabar berish mumkin bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda boshqaradi, shuningdek AQSH Mudofaa vazirligining Xavfsiz ishonch telefoni xizmatini ma'muriy boshqaradi. RAINN shuningdek, jinsiy zo'ravonlikning oldini olish, jabrlanganlarga yordam berish va aybdorlarni javobgarlikka tortilishini ta'minlash dasturlarini amalga oshiradi.

Safehorizon - 1978-yildan beri Nyu-Yorkda faoliyat yuritib kelayotgan zo'ravonlik va haqorat qurbonlariga yordam beruvchi notijorat tashkilotidir. Safehorizon zo'ravonlik qurbonlariga "ishonch telefoni" xizmatlarini ko'rsatadi.

Project Arachnid – bu loyiha Kanadada ma'muriy boshqariladigan innovatsion vosita bo'lib, bolalarga nisbatan shahvoniy suiiste'mollik materiallarning (CSAM) internetda tarqalishiga qarshi kurashishga xizmat qiladi.

[1] <http://www.oecd.org/internet/bridging-the-digital-gender-divide.pdf>